

O'zbekiston Respublikasi qishloq va
suv xo'jaligi vazirligi

ANORGANIK VA ANALITIK KIMYO

(Ma'ruza matnlari, qayta ishdangan va to'ldirilgan 3-nashri)

Toshkent 2005 yil

Ma’ruza matnlarida har bir ma’ruzaning mavzusini nomi, rejasи, foydalaniладиган адабиётлар рақами, со’нгра ма’руза рејасидаги бо’лимлар qisqa va lo’nda yoritilган. Talabalar ushbu ma’ruza matnlarida fanning alohida mavzulari bo’yicha asosiy tushunchalar, qoida va qonuniyatlar bilan hamda elementlar va ularning birikmalarini xossalari va ishlatalinish sohalari bilan tanishdilar.

Talabalarning o’z ustilarida mustaqil ishlashlarini kuchaytirish, ma’ruzadan olgan bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida, fanning har bir mavzusi bo’yicha talabalarning mustaqil o’zlashtirishlari uchun 3-4 savoldan iborat topshiriqlar berilgan.

Oliy ta’limning:

- 5140900-Kasbiy ta’lim (agronomiya);
- 5620100-Agrokimyo va agrotuproqshunoslik;
- 5620200-Agronomiya (dalachilik, meva-sabzavotchilik,)
- 5620300-O’simliklar himoyasi;
- 5620400-Qishloq xo’jalik ekinlari urug’chiligi va seleksiyasi;
- 5620500-Qimloq xo’jalik mahsulotlarini etishtirish, saqlash va ularni qayta ishslash texnologiyasi;
- 5620600-Zootexniya;
- 5620800-O’rmonchilik;
- 5620900-Ipakchilik;
- 5640100-Veterinariya bakalavriat yo’nalishlari uchun.

TUZUVCHILAR:

- Q.G’iyosov-** Fizika va kimyo kafedrasи dosenti, k.f.n.
L.Jamolova- Fizika va kimyo kafedrasи katta o’qituvchisi, k.f.n.

R.Ziyayev- Fizika va kimyo kafedrasи mudiri, k.f.d., professor

E.O’rinov Fizika va kimyo kafedrasи professori, k.f.d.

TAQRIZCHILAR:

- N.Raxmatullaev-** kimyo fanlari nomzodi, professor (Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti)
A. Abdusamatov- kimyo fanlari doktori, professor (ToshDAU)

Ushbu ma’ruza matnlari ToshDAU o’quv – uslubiy Kengashi (2005 yil 3 iyun, majlis bayoni №6), hamda Ilmiy Kengashida (30 iyun, majlis bayoni №13) muhokama qilinib, chop etishga tavsiya qilingan.

ToshDAU nashr tahririyati bo’limi
Toshkent 2005

MA'RUZA MATNLAR MAVZULARI

No	Ma'ruza mavzulari	Saat
1.	Kimyoning asosiy tushuncha va qonunlari	2
2.	Atom tuzilishi. D.I.Mendeleevning davriy qonuni va davriy sistemasi	2
3.	Kimyoiv bog'lanish	2
4.	Kimyoiv reaksiyalarning tezligi va kimyoiv muvozanat	2
5.	Eritmalar	2
6.	Elektrolitik disosilanish nazariyasi	2
7.	Suvning ion ko'paytmasi va vodorod ko'rsatkich. Tuzlarning gidrolizi	2
8.	Kompleks birkimlar	2
9.	Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari	2
10.	S-elementlar	2
11.	Uglerod va kremlniy	2
12.	Azot va fosfor	2
13.	Mineral o'g'itlar	2
14.	Kislorod va oltингugurt	2
15.	Galogenlar	2
16.	Metallar	2
17.	Analitik kimyo fani va uning metodlari	2
18.	Miqdor analizi	2
JAMI		36

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

- I.A. Karimov, "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". T.: «O'zbekiston», 1997.
- Z.N.Saidnosirova. Anorganik ximiya. T. "O'qituvchi", 1980.
- K.Rasulov, O. Yo'ldoshev, B. Qarabolaev. Umumiy va anorganik kimyo. T.: "O'qituvchi", 1996.
- G.P.Xomchenko, I.K.Sitovich. Neorganicheskaya ximiya. M.: "Vlysshaya shkola", 1990.
- D.A.Knyazov, S.N.Smarigin. Neorganicheskaya ximiya. M.: "Vlysshaya shkola". 1990.
- X.R.Raximov. Anorganik ximiya. T.: "O'qituvchi", 1984.
- N.R.Glinka. Umumiy ximiya. T.: "O'qituvchi", 1982.
- S.N.Aminov va boshqalar. Anorganik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari. T.: "Tibbiyot nashriyoti", 1998.
- Yu.I.Ibroximov. Umumiy va anorganik ximiyadan praktikum. T.: "O'qituvchi", 1985.
- X.T.To'xtashev, A.Ismoilov. Anorganik ximiyadan labarotoriya ishlari. T.: "O'qituvchi", 1984.
- F.P.Platonov, Z.E.Deykova. Praktikum po neorganicheskoy ximii, M.: "Vlysshaya shkola", 1985.
- Q.G'iyosov va boshqalar. Neorganik ximiya. T. 1992.
- Sh.N.Nazarov, Z.A.Aminov. Anorganik ximiya. T.: "O'qituvchi", 1984.
- E.O'.O'rinnov, Q.G'iyosov, M.Z.Isamuhamedova. Analitik ximiyadan labarotoriya amaliy mashg'ulotlar. T.: "FAN", 1999.
- O. Fayzullaev Analitik kimyo asoslari. T. "A. Qodiriy nomidagi xalq merosi", 2002.
- A. Abdusamatov, R. Ziyaev, B. Akbarov. Kimyodan savol va masalalar. T. "O'qituvchi", 1998.

1-Mavzu: KIMYONING ASOSIY TUSHUNCHА VA QONUNLARI

Reja:

1. Kimyo fani va uning vazifalari, xalq va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. Tabiat muhofazasi.
2. O'zbekistonda kimyo fani va sanoatining rivojlanishi.
3. Kimyoning asosiy tushuncha va qonunlari.
 - 3.1. Atom - molekulyar ta'lilot. Modda miqdori - mol.
 - 3.2. Stexiometrik qonunlar.

Adabiyotlar: 1-3, 5, 6

1. Kimyo fani moddalarning tarkibi, tuzilishi, xossalari va o'zgarishini, shuningdek bu o'zgarishlarda sodir bo'ladigan hodisalarini o'rganadi. Kimyo fani fizika va biologiya fanlari bilan bog'liqdir. Chunki biologik jarayonlar uzlusiz fizik va kimyoviy o'zgarishlar asosida ketadi.

Kimyoning eng muhim vazifasi-har xil aniq maqsadlar uchun zaruriy xossalarga ega bo'lgan modda va materiallarni olishdan, ularning xossalarni o'rganishdan iboratdir. Ishlab chiqarish jarayonida kimyo muhim ahamiyatga ega. Tabiiy xom-ashyolarni kimyoviy qayta ishlash yo'li bilan qishloq xo'jaligi, sanoat va uy ro'zg'or buyumlari chiqarish uchun kerak bo'ladigan turli-tuman moddalar: o'g'itlar, metallar, plastmassalar, bo'yoqlar va dorivor moddalar olinadi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida ishlatilinadigan mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari (pestisidlar), chorvachilikda ishlatilinadigan qo'shimcha oziq moddalar ko'plab ishlab chiqarilmoqda.

Qishloq xo'jaligini kimyolashdirish - kimyoviy vositalardan foydalanim, tuproq unumdorligini oshirish va yuqori hosil olishdan iborat. Buning uchun kimyoviy o'g'itlardan oqilona foydalinish lozim. Aks holda agro-eko tizimimi bузishga olib keladi. Tabiat muhofazasi insoniyat oldida turgan eng muhim masalalardan biridir. Oqar suv, tuproq va atmosferani nazorat qilib turish kabi masalalarni hal etishda kimyoning roli katta. Atrof-muhitni ifoslantirmaydigan (chiqindisiz ishlab chiqarish) xom-ashyo va energiyaning tejashga olib keladigan texnologik jarayonlarni ishlab chiqish ham kimyo fanining asosiy vazifasidir.

2. O'zbekistonda kimyo fani va sanoatining rivojlanishi O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi qoshidagi kimyoga oid institutlar, hamda oliv o'quv yurtlarining kimyo kafedralarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan olimlarning xizmatlari katta. Ular orasida Respublikamiz kimyo fani rivojiga munosib hissasini qo'shgan va qo'shayotgan, alohida maktab yaratgan olimlarimiz akademiklar O.S.Sodiqov, S.Yu.Yunusov, K.S.Axmedov, M.N.Nabiev, X.U.Usmonov ilmiy yo'nalişlarini misol qilib keltirish mumkin.

O'zbekiston hududida tabiiy gaz, ko'mir, oltingugurt, oltin kabi tabiiy boyliklarning mavjudligi mamlakatimiz yirik kimyo sanoatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Prezidentimiz I.A. Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida respublikamizning tabiiy xom-ashyo resurslari va jug'rofiy - strategik

imkoniyatlari har tomonlama chuqur tahlil qilingan va bu asardan quyidagi misralarni keltirish mumkin:

«O'zbekiston o'z er osti boyliklari bilan haqli ravishda faxlanadi bu erda mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan». Chunonchi, oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kalytuzlari, fosforitlar, kaolinlar bo'yicha O'zbekiston tasdiqlangan zahiralar jihatdan dunyoda etakchi o'rinni egallaydi. Masalan, oltin zahiralari bo'yicha dunyoda 4 - o'rinda, uni qazib olish bo'yicha 7-o'rinda, mis zahirasi bo'yicha 10 -11 o'rinda, uran zahirasi bo'yicha 7-8 o'rinda turadi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida har yili million tonnalab mineral o'g'itlar, zaharli ximikatlar, defoliantlar va boshqa mahsulotlar ishlatalinadi. Chirchiq elektr kimyo kombinati, Olmaliq kimyo zavodi, Samarqand kimyo zavodi, Navoiy elektr kimyo kombinati va azotli o'g'itlar zavodi, Farg'onan azotli o'g'itlar zavodida turli mineral o'g'itlar, o'simliklar zararkunandalariga qarshi zahar moddalar - defoliantlar tayyorlanmoqda.

3. Kimyoning asosiy tushuncha va qonunlari.

3.1. Ilmiy asoslangan atom-molekulyar ta'lomitni M.V. Lomonosov yaratadi va uning asoslarini "Matematik kimyo elementlari" degan asarida bayon etgan. Lomonosov talimotining mohiyati qo'ydagilardan iborat:

1. *Barcha moddalar korpuskalardan (Lomonosov molekulalarni shunday atagan edi) tarkib topgan. Molekula – bu berilgan moddaning kimyoviy xossalariiga ega bo'lgan eng kichik zarrachasidir;*
2. *Molekulalar elementlardan (atomlardan) tarkib topgan. Atom – bu kimyoviy elementning modda tarkibiga kiradigan eng kichik zarrachasidir. Har xil elementlarga har xil atomlar to'g'ri keladi.*
3. *Zarrachalar - molekula va atomlar to 'xtovsiz harakatda bo'ladi.*
4. *Kimyoviy reaksiyalarda bir xil molekulalardan boshqa xil molekulalar hosil bo'ladi. Kimyoviy reaksiyalarda atomlar o'zgarmaydi.*

Materianing tuzilishi moddalarning xossalari va kimyoviy o'zgarishlarning tabiatini haqidagi hozirgi zamон tasavvurlarimiz, atom-molekulyar talimotga asoslanadi.

Kimyoviy element – bu yadrosining musbat zaryadi bir xil bo'lgan atomlarning muayyan turidir. Hozirgi vaqtida 114 ta element ma'lum. Elementning tabiiy izotoplar tarkibidagi atomi o'rtacha massasining uglerod ^{12}C atomi massasining $1/12$ qismiga nisbatiga teng kattalik kimyoviy elementning nisbiy atom massasi Ar deyiladi. Masalan :

$$Ar(H) = \frac{1,67 \cdot 10^{-27} \text{ кг}}{(1/12) \cdot 1,993 \cdot 10^{-26} \text{ кг}} = 1,0079$$

$$Ar(O) = \frac{2,667 \cdot 10^{-26} \text{ кг}}{(1/12) \cdot 1,993 \cdot 10^{-26} \text{ кг}} = 15,999$$

Moddaning tabiiy izotoplar tarkibidagi molekulasi o'rtacha massasining $1/12$ qismiga nisbatiga teng qiymat moddaning nisbiy molekulyar massasi Mr deyiladi. Mr son jihatdan modda molekulasi tarkibiga kiradigan barcha atomlar

nisbiy atom masssalarining yig'indisiga teng. Masalan, $Mr(H_2O)$ quyidagicha topiladi:

$$2Ar(H) = 2 \cdot 1,0079 = 2,0115;$$

$$Ar(O) = 15,999;$$

$$Mr(H_2O) = 18,0153 \text{ yoki yaxlitlaganda } 18 \text{ ga teng.}$$

Kimyoda modda miqdori birligi sifatida “mol” ishlataladi. Mol- bu ^{12}S izotopining 12 grammida qancha atom bo’lsa, tarkibida shuncha struktura birliklar (molekula, atom, ion va boshqalar) bo’lgan modda miqdoridir.

Hozirgi vaqtدا 1 mol modda tarkibida bo’lgan struktura zarrachalar soni (*Avogadro soni*) juda aniqlik bilan hisoblangan bo’lib, bu son $6,02 \cdot 10^{23}$ ga tengdir.

Moddaning 1 molining massasi molyar massa deb yuritiladi. Molyar massa odatda kg/mol yoki g/mol bilan o’lchanadi. Moddaning massasini va miqdorini bilgan holda, uning molyar massasini topish mumkin.

$$M = m/n; \quad n = m/M; \quad m = Mn \quad (1)$$

Bu erda: M - molyar massa; m - massa; n - miqdor.

3.2. Stexiometrik qonunlar. Stexiometriyaning asosini stexiometrik qonunlar: moddalar massasini saqlanish qonuni, tarkibning doimiylik qonuni, ekvivalentlar, karrali nisbatlar, hajmiy nisbatlar, Avogadro qonunları tashkil etadi.

Moddalar massasini saqlanish qonuni. Bu qonunni M.V. Lomonosov avval nazariy (1748 y.) aytib, so’ngra tajribada isbotlab berdi (1750 y.).

Ta’rifi: kimyoviy reaksiyaga kirishayotgan moddalarning massasi reaksiya natijasida hosil bo’ladigan moddalarning massasiga teng.

Keyinchalik fransuz kimyogari Lauaze bu qonunni (Lomonosov ishidan bexabar holda) ta’rifladi (1789 y.).

Massa bilan energiyaning bog’liqligi Eynshteyn tenglamasi bilan ifodalanadi: $E = m \cdot c^2$ (2)

bunda: E - energiya; m - massa; $s=3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$ - yorug’likning vaakumdagи tezligi.

Tarkibning doimiylik qonuni. Bu qonunni dastlab fransuz olimi Prust ta’riflagan (1808 y.): *har qanday toza modda olinishidan qat’iy nazar, o’zgarmas tarkibga ega bo’ladi.*

Kimyoning keyingi taraqqiyoti o’zgarmas tarkibli birikmalar bilan birga o’zgaruvchan tarkibli birikmalar borligi aniqlangan. Akademik N.S.Kurnakovning taklifiga ko’ra o’zgarmas tarkibli birikmalar daltonidlar, o’zgaruvchan tarkibli bertolidlar deyiladi. Shu munosabat bilan bu qonun hozirda quyidagicha ta’riflanadi.

Molekulyar strukturali birikmalarning tarkibi, olinish usulidan qat’iy nazar o’zgarmas bo’ladi. Nomolekulyar strukturali birikmalarni tarkibi esa olinish usuliga bog’liq bo’ladi. Bu qonunni ko’plab misollar orqali tushintirish mumkin.

Ekvivalentlar qonuni. Bu qonun XVIII asrning oxirida kashf etilgan: *Reaksiya kirishuvchi moddalar massasi shu moddalarning kimyoviy ekvivalentiga proporsionaldir.*

$$\frac{m_1}{m_2} = \frac{\mathcal{E}_1}{\mathcal{E}_2} \quad (3)$$

Bunda: m_1 va m_2 moddalar massasi; E_1 va E_2 - birinchi va ikkinchi moddalar ekvivalentlari.

Elementlar va murakkab moddalarning ekvivalenti bir-biridan farqlanadi. *Elementning bir massa qism vodorod yoki sakkiz massa qism kislorod bilan birika oladigan yoki shularga almasha oladigan miqdori uning ekvivalenti deb ataladi.*

Elementning kimyoviy ekvivalentini aniqlash uchun uning ekvivalenti ma'lum bo'lgan boshqa har qanday element hosil qilgan birikmasining tarkibini bilish kerak va bu misollar orqali tushuntiriladi.

Avogadro qonuni. Italiya olimi A. Avogadro 1811 yilda gazlar uchun o'zining muhim qonunini kashf etdi. Bir xil sharoitda (bir xil bosim va temperaturada) barobar hajmda olingan turli gazlarning molekulalari soni o'zar teng bo'ladi. Bu qonundan uchta muhim xulosa chiqadi va misollar asosida tushintiriladi:

- 1) *Oddiy gazlarning molekulalari ikki atomdan iborat;*
- 2) *Normal sharoitda 1 mol gaz 22,4 l hajmni egallaydi.*
- 3) *Bir xil sharoitda teng hajmda olingan ikki gaz massasi orasidagi nisbat shu gazlarning molekulyar massasi orasidagi nisbatga teng.*

Savollar:

1. Atrof - muhitni muhofaza qilishda kimyo fanining vazifalari.
2. O'zbekistonda katta kimyo samoati va rivojlanishi.
3. O'zbekistonning jug'rofiy - strategik imkoniyatlari va tabiiy xom - ashyo resurslari.
4. Karrali va hajmiy nisbatlar qonunlari.
5. Gazsimon moddalarning molekulyar massasini aniqlash.

2-Mavzu: ATOM TUZILISHI. D.I.MENDELEEVNING DAVRIY QONUNI VA DAVRIY SISTEMASI

Reja:

1. Atom tuzilishi.
- 1.1. Atom tuzilishining dastlabki nazariyasi.
2. Atomlarning elektron qavatlarini tuzilishi. Elektronlarning kvant sonlari. Pauli prinsipi.
- 2.1. Elektron formulalar.
3. Atomlarning tuzilishi asosida D.I. Mendeleevning davriy qonuni va sistemasi.
- 3.1. Davriy qonunning rivojlanishi va ahamiyati.

Adabiyotlar: 5, 6, 8, 10.

1. Atom tuzilishi. XX asr boshlaridagi ko'p izlanishlar va kashfiyotlar shuni ko'rsatadiki, atom murakkab zarracha bo'lib, u elektron, proton, neytron va boshqa elementar zarrachalardan tashkil topgandir.

Katod nurlari, hamda radiaktivlik hodisasini kashf etilishi atomning murakkab ekanligini to'liq isbot etadi. Bunda siyraklashgan gazlarda elektr zaryadini hosil bo'lishi, hamda Mariya Kyuri Skladovskaya va Per-Kyuri kashfiyotlari ustida to'xtalib o'tish lozim.

1.1. Atom tuzilishining dastlabki nazariyalari. Atom tuzilishi to'g'risidagi birinchi nazariyani angliya olimi D.Tomson 1903 yilda kashf etgan. Bu nazariyaga muvofiq atom musbat zaryadli sferadan va manfiy zaryadli ionlardan tarkib topadi. D.Tomson atomning butun hajmi bo'yicha bir tekisda tarqalgan musbat zaryadni, elektronlar neytrallab turadi, degan xulosaga keladi. Keyinchalik 1911 yili angliya olimi E.Rezerford atom tuzilishining yadro nazariyasini yaratdi. Rezerfordning yadro modeli quyidagicha:

1. Atomning markazida musbat zaryadlangan, o'lchamlari juda kichik yadro joylashgan.
2. Yadroda musbat zaryad va atomning deyarli barcha massasi to'plangan. Butun atomning o'lchami 10^{-8} sm, yadroniki 10^{-13} sm ga yaqin, ya'ni o'lchami jihatidan yadro atomdan taxminan 100000 marta kichik.
3. Yadro atrofida elektronlar aylanadi. Elektronlar soni yadroning musbat zaryadlar soniga teng bo'ladi, shuning uchun atom elektroneytraldir. E.Rezerford nazariyasi yordamida elementlarning fizik va kimyoviy hodisalarini izohlash mumkin. Lekin bu nazariya element spektrlari ayrim chiziqlardan iboratligini, hamda atomlar ichida sodir bo'ladigan ayrim jarayonlarni tushuntirib bera olmadi.

Rezerfordning yadro modelini yanada rivojlantirib, 1913 yil daniya fizigi Nils Bor atom tuzilish (Bor postulotini) nazariyasini yaratdi. Bor nemis fizigi Plank fanga kiritgan nurlanishning kvantlar nazariyasini tadbiq etib o'zining nazariyasini yaratdi. U quyidigilardan iborat:

1. Elektron yadro atrofida tasodifiy orbitallarda emas, balki ma'lum ruxsat etilgan stasionar orbitallarda aylanadi. Elektronni tezligi (v) va harakatlanoyotgan orbitaning radiusi (r) Borning kvant nisbati orqali bir-biri bilan quyidagicha bog'langan: $m \cdot v \cdot r = n \cdot \hbar m$ -elektronning massasi, n -orbitaning nomeri, \hbar -Plank doimiysi ($\hbar=1.05 \cdot 10^{-34} \text{ Dj} \cdot \text{s}$).
2. Stasinar orbitalarda harakat qilayotgan elektron o'zidan energiya chiqarmaydi va yutmaydi. 1962 yildan orbita tushunchasi -orbital deb atala boshlandi. Elektronning to'lqin xossasi va atomdagи boshqa elementar zarrachalar asosida hamda Bor nazariyasini rivojlantirib, atom tuzilishining hozirgi zamон modeli yaratildi, u quyidagilardan iborat:
 - Elektron bir vaqtning o'zida ham zarracha (korpuskula) xususiyatiga, ham to'lqin xususiyatiga egadir. Zarracha sifatida u ma'lum massaga ($9.1 \cdot 10^{-28}$ g) va zaryadga (-1) ega. Elektronning difraksiya berish xususiyati, uni to'lqin xossasigi ega ekanligini ko'rsatadi (to'lqinni geometrik soha sohasiga kirib borishi difraksiya deyiladi). Elektronning massasi (m), to'lqin uzunligi (λ) va tezligi (v) orasidagi bog'lanish Lui de-Broyl tenglamasidan o'z ifodasini topgan: $\lambda = \frac{\hbar}{m \cdot v}$;

- Plank doimiysi ($6.6 \cdot 10^{-27}$ erg sek).
- Elektronning koordinatasasi va tezligini bir vaqtning o'zida aniq o'lhash mumkin emas. Boshqacha aytganda, elektronning tezligi qancha aniqlik bilan o'lchansa, uning koordinatasini aniqlashda shuncha noaniqlikka yo'l qo'yiladi yoki aksincha.
 - Atomdagide elektronning harakati aniq traektoriyalar bo'yicha emas, balki yadro atrofida fazoning istalgan qismida harakatlanishi mumkin. Yadro atrofidagi elektronning bo'lish ehtimolligi 90% dan yuqori bo'lgan fazoning shakli o'lchamiga orbital deyiladi.
 - Atomning yadrosoi proton va neytronlardan iborat (ularning umumiy nomi nuklonlar). YAdrodagi protonlar soni elementning tartib raqamiga, proton va neytronlar summasi (yig'indisi) uning atom massa soniga teng bo'ladi: $A=Z+N; N=A-Z; Z=A-N$

2. Atomlarning elektron qobiqlarining tuzilishi. Atom orbitallarning o'lchamlari turlicha bo'ladi. Kichik o'lchamli orbitallarda harakatlanadigan elektronlar katta o'lchamli orbitallarda harakatlanadigan elektronlarga qaraganda yadroga kuchliroq tortiladi. O'lchamlari bir-biriga yaqin orbitallarda harakatlanadigan elektronlar elektron qavatlarda yoki energetik pog'onalarda harakatlanadi. Ko'pincha energetik pog'onalar yadrodan boshlab raqamlanadi: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 yoki ular K , Z , M , N , O , P , Q harflar bilan ham belgilanadi. Elektronlarning atomdagi holati to'rtta kvant sonlar yordamida ifodalanadi:

1. Bosh kvant son (n). Bosh kvant son atomdagi elektronning energiyasi va elektron bulutning o'lchamini ifodalarydi. Uning qiymatlari 1 dan ∞ gacha bo'lgan butun sonlar bo'lishi mumkin. Atomda elektronlar bilan to'ladijan energetik pog'onalar soni element joylashgan davrning raqamiga teng bo'ladi.

Energetik pog'onaldagi maksimal elektronlar soni $N=2n^2$ formula bilan aniqlanadi. Masalan:

- 1- energetik pog'onada yoki (K - qavatda) $n=1$, 2 ta elektron;
- 2- energetik pog'onada yoki (Z - qavatda) $n=2$, 8 ta elektron;
- 3- energetik pog'onada yoki (M - qavatda) $n=3$, 18 ta elektron;
- 4- energetik pog'onada yoki (N - qavatda) $n=4$, 32 ta elektron bo'lishi mumkin va hakoza.

2. Orbital yoki yonaki (*qo'shimcha*) kvant son (l). Orbital kvant son elektron bulutning shaklini va pog'onachadagi elektronlarning energiyasini ifodalarydi. Demak, energetik pog'onalar pag'onachalarga bo'linadi, ularning soni pog'onaning nomeriga teng bo'ladi. l ning qiymatlari 0 dan $n-1$ gacha bo'ladi va lotin harflari bilan ifodalanadi.

Energetik pog'ona	$n=1$	$n=2$	$n=3$	$n=4$	$n=5$
l ning qiymatilari	0	1	2	3	4
harfiy belgisi	s	p	d	f	g

Demak, 1-pog'ona 1ta s pog'onachaga, 2-pog'ona s , p pog'onachalarga, 3-pog'ona s , p , d pog'nachalarga bo'linadi. Pog'onachalardagi elektronlar soni quyidagi formula bilan aniqlanadi: $x_l=2(2l+1)$.

Ushbu formulaga muvofiq har bir s -pog'onachada 2 ta s elektron (s^2), p -pog'onachada 6 ta p - elektron (p^6), d - pog'onachada 10 ta d elektron (d^{10}) va f -pog'onachada 14 ta f elektron (f^{14}) bo'lishi mumkin. Agar $l=0$ bo'lsa, elektron buliti shakli sharsimon bo'lib, s - elektron bulit deyiladi. $l=1$ bo'lsa elektron bulit shakli gantelsimon bo'lib, p -elektron bulut deyiladi. $l=2$ bo'lsa elektron bulut shakli o'zaro kesishgan gantelsimon bo'lib, d -elektron bulut deyiladi.

3. Magnit kvant son (m_i). Magnit kvant son elektron bulutlarning fazoda bir-biriga nisbatan joylashuvini belgilaydi. Uning qiymatlari $-l$ dan $+l$ gacha bo'lishi mumkin. Masalan: $l=2$ da bo'lsa m_i qiymatlari $-2, -1, 0, +1, +2$ bo'lishi mumkin.

Bosh kvant son, n	Orbital kvant son, l	Magnit kvant son	Orbitallar soni	Elektronlar soni

		ifodasi	qiymati					Pog' onachada	Pog' onada	Pog' onachadagi umumiy	Pog' onadagi umumiy
K	1	s	0		0			1	1	2	2
L	2	s	0		0			1		2	
		p	1	-1	0	+1		3	4	6	8
M	3	s	0		0			1		2	
		p	1	-1	0	+1		3		6	
		d	2	-2	-1	0	+1	+2	5	9	10
N	4	s	0		0			1		2	
		p	1	-1	0	+1		3		6	
		d	2	-2	-1	0	+1	+2	5		10
		f	3	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	7
								7	16	14	32

4. Spin kvant son (m_s). Spin kvant son elektronning o'z o'qi atrofidagi harakatini yo'nalishini belgilaydi. Elektron o'z o'qi atrofida antiparallel yo'nalishda aylanishi mumkin. Shuning uchun $m_s=+1/2$ yoki $m_s=-1/2$ qiymatlarini oladi. Pauli prinsipiiga muvofiq har qaysi energetik yachevkada bittadan juftlashmagan \uparrow yoki 2ta \downarrow juftlashgan elektron bo'lishi mumkin.


V.Pauli 1925 yilda bir atomda to'rtta kvant sonlari bir-biriga teng bo'lgan ikkita elektron bo'la olmaydi degan prinsipni yaratdi. Bundan elektron pog'onachalardagi elektronlarning maksimal soni quyidagicha taqsimlanadi: s-pog'onachada 2 ta, p-pog'onachada 6 ta, d-pog'onachada 10 ta, f-pog'onachada 14 ta. Elektronlarni pog'onachalarga joylashtirishda quyidagi uch qoidaga amal qilish kerak:


1. Har qaysi elektron minimal energiyaga muvofiq keladigan holatni olishga intiladi.
2. Elektronlarning joylashishi Pauli prinsipiiga zid kemaslik kerak.
3. Ayni pog'onachada turgan elektronlar mumkin qadar ko'proq orbitalarda juftlashmaslikka intiladi (Xund qoidasi). Demak, qo'zg'almagan holatda atomda elektronlarning joylashishi quyidagi tartibda to'lib boradi:

$$1s < 2s < 2p < 3s < 3p < 4s < 3d < 4p < 5s < 4d < 5p < 6s < 4f < 5d < 6p < 7s$$

2.1. Elektron formulalar. Atomlarda elektronlarning pog'ona va pog'onachalarda taqsimlanishi elektron formulalar tarzida ifodalanadi. Masalan, natriy atomining elektron formulasi (konfigurasiyası) quyidagicha: $_{11}Na \quad 1s^2 \ 2s^2 \ 2p^6 \ 3s^1$

Atomlarda elektron qavatlarning tuzilishi energetik yachevkalar (katakchalar) shaklida ifodalanadi. V.Pauli qonuniga muvofiq, har qaysi yachevkada 1 ta yoki 2 ta elektron bo'lishi mumkin. Elektron 2 ta bo'lganda ularning spinlari har xil aptipiralli bo'lishi lozim. Masalan:





Demak, turli elementlar atomlarining elektron qavatlari vujudga kelganda navbatdagи elektron eng kam energiyaga ega bo'lgan va bo'sh pog'onachaga joylashadi. Davriy jadvalning I davridan to VII davrdagi elementlar atomlar energetik pog'onalarida elektronlarning to'lib borishi yuqoridagi tartibda bo'lib, talabalarga misollar asosida tushintiriladi.

3. Atom tuzilishi asosida elementlarning davriy qonuni va sistemasi.

Bu borada quyidagi qoidalarni nazarda tutish kerak:

1. Elementning tartib nomeri atom yadrosining musbat qiymatiga va atomdagi barcha elektronlar soniga tengdir.
2. Davrning nomeri esa elektronlar to'ladigan (to'lgan) qavatlar soniga teng.
3. Bosh gruppaga nomeri element atomidagi tashqi elektron qavatdagi elektronlar soniga teng.

Atom tuzilishi nazariyasiga binoan davriy qonun quyidagicha ta'rflanadi: Oddiy modda (element) larning xossalari, shuningdek elementlar birikmalarining shakl va xossalari elementlarning atom yadrosi zaryadiga davriy bog'liqdir. Mendeleev davriy sistemasi element atomlaridagi energetik pog'onalarning elektronlar bilan to'lish tartibini aks ettiradi. Navbatdagi elektron qaysi pog'onachada paydo bo'lishiga qarab, hamma elementlar 4 turkumga: s, p, d, f bo'linadi.

3.1. D.I.Mendeleevning davriy qonuni, hozirgi zamon kimyo faniga asos soldi, uni yagona, butun bir fanga aylantirdi. Davriy qonunni kashf etilishi tabiatda yangi elementlar borligini va ularning birikmalarini oldindan aytishga hamda xossalarni bayon qilishga imkoniyat yarattdi. Bunga misol tariqasida D.I. Mendeleevning o'zi kashf etmagan elementlarning borligini oldindan aytib, ulardan uchtasini (*Ga*, *Sc* va *Ge*) xossalarni aniq bayon qilganini aytish mumkin. Davriy sistema ba'zi elementlarning (masalan *Be*) valentligi va atom massasini aniqlashda katta rol o'ynadi.

Atom tuzilishi haqidagi nazariyalar asosida davriy qonun rivojlandi. Bu nazariya davriy qonunning fizik mohiyatini ochib berdi va davriy sistemada elementlarning joylashuvini to'g'ri tushintirib berdi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, davriy qonun XX asr kimyo va fizika fanlaridagi buyuk kashfiyotlarning manbai hisoblanadi. U kimyo fani va sanoatining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Savollar:

1. Atom tuzilishining kvant nazariyasi.
2. Tabiiy va sun'iy radiaktivlik. Yadro reaksiyalari.
3. D.I.Mendeleevning davriy qonuni va elementlar davriy sistemasi.
4. Katta davr (4 va 5 davr) elementlari atomlarini energetik pog'onalarida elektron joylanishi, ularning elektron formulalari.

3-Mavzu: KIMYOVIY BOGLANISH

Reja:

1. Kimyoviy bog'ning turlari.

2. Kovalent bog'lanish.
- 2.1. Qutbsiz kovalent bog'lanish.
- 2.2. Qutbli kovalent bog'lanish.
- 2.3. Kovalent bog' hosil bo'lishida donor akseptor mexanizmi.
- 2.4. Kovalent bog'lanishning xossalari.
3. Vodorod bog'lanish.
4. Ion bog'lanish.
5. Metall bog'lanish.

Adabiyotlar 3, 4, 5, 6, 8.

1. Kimyoviy bog'lanishning turlari. Davriy sistemadagi atomlar bir biri bilan birikkanda oddiy va murakkab moddalar hosil bo'ladi, ya'ni molekula hosil bo'lishida atomlar orasida kimyoviy bog'lar vujudga keladi.

Kimyoviy birikmalar molekulasi hosil bo'lishda atomlararo ta'sir etuvchi va ularni birligida ushlab turuvchi kuchga kimyoviy bog'lanish deyiladi. Kimyoviy bog'lanishning kelib chiqish sababi shundaki, atom yoki ionlar o'zaro birikkanda umumiyligi energiya zapasi ular ayrim-ayrim holda bo'lganlaridagiga nisbatan kichik qiymatga ega bo'ladi va sistema barqaror holatni egallaydi.

Kimyoviy bog'lanish valent elektronlar hisobiga vujudga keladi, lekin turli usullarda amalga oshadi. Kimyoviy bog'lanishning uchta asosiy turi bor:

1. Kovalent bog'lanish.
2. Ion bog'lanish.
3. Metall bog'lanish bo'lib, bulardan tashqari vodorod bog'lanish ham mayuddir.

Atomlar o'zaro birikkanda ular orasida kimyoviy bog'lanishning qay turi hosil bo'lishi elementlarning elektromanfiyligiga bog'liqdir. Ayni element atomlarning birikmalarda boshqa elementninig atomlaridan elektronlarni o'ziga tortish xususiyati elektromanfiylik deyiladi. Elektromanfiylikning absolyut qiymatlari juda kichik sonlar bo'lib, hisoblashlar uchun noqulaydir. Shuning uchun shartli ravishda *Li* ni elektromanfiyligi 1 ga teng deb qabul qilingan. Boshqa elementlarning elektromanfiyligi shunga muvofiq hisoblab topiladi. Elektromanfiylik darvlarda chapdan o'nga, bosh guruhlarda esa yuqorida pastga tomon ortib boradi. Ayrim elementlarning elektromanfiylik qiymatlarini kamayish tartibi quyidagicha:

F	O	C	N,Br	S	C'	P	H	Zn, Al	Mg	Ca,Li	Na	K
4	3.5	3.2	3	2.6	2.5	2.2	2.1	1.6	1.3	1	0.9	0.8

Elektromanfiyligi bir xil bo'lgan elementlar orasida qutbsiz kovalent va metall bog'lanishli birikmalar vujudga keladi.

Elektromanfiyliklari bir-biridan ozroq farq qiladigan elementlar orasida qutbli kovalent bog'lanishli birikmalar vujudga keladi. Elektromanfiyliki bir-biridan keskin farq qiladigan elementlar ta'sirlashganda ion bog'lanishli birikmalar vujudga keladi.


2. Kovalent bog'lanish. Atomlarni elektron juftlar orqali bog'lanishiga kovalent bog'lanish deyiladi. (kovalent so'zi *birlashgan* degan ma'noni bildiradi). Kovalent bog'lanishni ikki turi: *Qutbli va qutbsiz kovalent bog'lanishlar* mavjuddir.

2.1. Qutbsiz kovalent bog'lanish. Elektromanfiyligi bir xil bo'lgan atomlar o'zaro ta'sirlashganda qutbsiz kovalent bog'lanishli molekulalar hosil bo'ladi. Misol: N_2 , SI_2 , N_2 , F_2 .

Vodorod atomi yadrosi $1s$ - elektron bulut bilan o'ralgan. Atomlar o'zaro muayyan masofaga yaqinlashganda bulutlar bir-birinini qoplaydi, natijada ikkala yadroning markazlari orasida maksimal elektron zichlikka ega bo'lgan ikki elektronli bulut hosil bo'ladi. Manfiy zaryad zichligining ko'payishi esa, yadrolar bilan molekulyar bulut orasidagi tortilish kuchlarining keskin ortishiga imkon beradi. Demak, kovalent bog'lanish atomlar elektron bulutlarining bir-birini qoplashi natijasida vujudga keladi. Kovalent bog'lanish turlicha tasvirlanadi:


1.	Elektron orqali	H^\bullet	+	H^\bullet	\rightarrow	$H : H$
2.	Energetik yacheykalar orqali		+		\rightarrow	
3.	Elektron bulutlar shakli orqali		+		\rightarrow	
Misol: Cl_2 molekulasi hosil bo'lishi		$: Cl \cdot$	+	$: Cl \cdot$	\rightarrow	$: Cl : Cl :$
		$\cdot \cdot$		$\cdot \cdot$	$\cdot \cdot$	$\cdot \cdot$

Xlor atomining juftlashmagan elektroni r - elektron bo'lib, elektron buluti gantelsimon shaklga ega. Elektron bulutlarning qoplanishini quyidagicha tasvirlash mumkin:




2.2. Qutbli kovalent bog'lanish. Elektromanfiyliklari bir-biridan ozroq farq qiladigan elementlar bir-biri bilan birikkanda qutbli kovalent bog'lanishli birikmalar hosil bo'ladi. Bunda elektron juft elektromanfiyligi katta element tomonga siljigan bo'ladi. Qutbli kovalent bog'lanishli birikmalarga. HCl , NH_3 , NVr , N_2O , H_2S misol ketirish mumkin.

HCl molekulasini hosil bo'lishini ko'rib chiqamiz. $N=2.1$, $Sl=3.2$. Xlor va vodorodni elektromanfiyliklari orasidagi ayirma $3.2-2.1=1.1$ ga teng.



Vodorod xlorid molekulasi hosil bo'lishida, elektron bulutlarning qoplanishi quyidagicha:



HCl molekulasida bog'ni hosil qiluvchi elektron bulutning xlor atomi tomon siljishi natijasidi, molekulaning xlor tomoni manfiy, vodorod tomoni esa musbat earyadlanib qoladi, ya'ni $H^{\sigma+} : Cl^{\sigma-}$. Qutblangan molekulalarni dipollar


deyiladi. Dipol momenti (μ), dipol uzunligi (l) ning elektron zaryadiga (q) ko'paytmasiga teng: $\mu = l \cdot q$.

2.3. Kovalent bog'hosil bo'lishida donor-akseptor mexanizmi.

Kovalent bog'lanish 2 xil mexanizmda almashinish va donor-akseptor mexanizda boradi. Elektron bulutlari bir-birini qoplashi almashinish mexanizmi deyiladi.

Donor-akseptorli mexanizmda esa, bitta atomning ikki elektronli buluti bilan boshqa atomning erkin orbitali hisobiga vujudga keladi. NN_4^+ hosil bo'lishi quyidagicha:


Vodorod ionida $1s$ - orbital bo'sh $\square N^+$, NN_4^+ hosil bo'lishida azotning ikki elektronli buluti azot bilan vodorod uchun umumiylib bo'lib qoladi, ya'ni molekulyar elektron bulutga aylanadi. Buning natijasida vodorodning zaryadi umumiylib bo'lib qoladi.



Bo'linmagan elektronlar juftini beradigan atom donor (azot), uni biriktirib oladigan atom (vodorod) esa akseptor deyiladi.

2.4. Kovalent bog'lanishning xossalari. Kovalent bog'lanishning o'ziga xos xususiyatlari - uning uzunligi, energiyasi, to'yinuvchanligi va yo'nalgaligidir.

YAdrolar orasidagi masofa kovalent bolanishning uzunligi deyiladi. Masalan, H_2 molekulasida bog'ning uzunligini quyidagicha tasvirlash mumkin:




Bog'lanishni uzush uchun zarur bo'lgan energiya miqdori bog'lanish energiyasi deyiladi. Masalan, H_2 , Cl_2 , N_2 molekularida kimyoviy bog'uzunliklari mos ravishda 0.074, 0.198 va 0.109, bog'lanish energiyasi esa 436, 942, 946 kJ/mol ga teng.

Kovalent bog'lanishni to'yinuvchanligi deganda, kovalent bog'i hosil qiluvchi atomlarning faqat ma'lum miqdorda bog'lar hosil qilish qobiliyati tushuniladi. Masalan, vodorod 1ta, kislород 2 ta, azot 3 ta, uglerod 4 ta bog'hosil qila oladi.

Kovalent bog'ning yo'naluvchanligi deganda molekulaning fazoviy shakli hamda valent burchaklari tushuniladi.

3. Vodorod bog'lanish. Biror molekulaning vodorod atomi bilan boshqa molekulaning kuchli elektromanfiy elementi (O, F, N) atomi orasida vujudga keladigan bog'lanish vodorod bog'lanish deyiladi. Vodorod atomining radiusi nihoyatda kichikligi vodorod bog'lanishni vujudga keltiradi. H_2O , HF ,

NH_3 molekulalarida umumiy elektron juft vodoroddan elektromanfiy element tomonga ko'proq siljigan bo'ladi. Vodorodning musbat zaryadi esa, boshqa atomning bo'linmagan elektron jufti bilan o'zaro ta'sirlashib, bu juftni umumlashtirib oladi. Natijada kuchsiz vodorod bog'lanish vujudga keladi. Masalan H_2O molekulasidagi vodorod bog'lanish quyidagicha:



Vodorod bog'lanish ko'pchilik moddalarning xossalariga ta'sir etadi:

1. H_2O ni qaynash temperaturasi H_2S dan past bo'lishi kerak edi, lekin aksincha chunki, H_2O da vodorod bog' bor.

2. Vodorod bog'lanish oqsillarda, nuklein kislotalarda, pestisidlarda ayniqsa ko'p tarqalgan.

4. Ion bog'lanish. Elektromanfiyligi bir-biridan keskin farq qiladigan elementlar o'zaro ta'sirlashganda ion bog'lanishli birikmalar hosil bo'ladi, masalan: $NaCl$, KCl , $LiCl$, $NaBr$, KBr .

$NaCl$ molekulasini hosil bo'lishini ko'rib chiqamiz:

	$Na=0.9$, $Cl=3.2$	$3.2-0.9=2.3$			
Na		$1s^2$	$2s^2$	$2r^6$	$3s^1$
Cl		$1s^2$	$2s^2$	$2r^6$	$3s^2$
$Na-1e^- \rightarrow Na^+$		$1s^2$	$2s^2$	$2r^6$	
$Cl+1e^- \rightarrow Cl^-$		$1s^2$	$2s^2$	$2r^6$	$3s^2$
					$3r^5$

Ionlar orasida elektrostatik tortilish kuchlar vujudga keladi va $NaCl$ molekulasi hosil bo'ladi. Ionlar orasida elektrostatik tortishuv tufayli vujudga keladigan bog'lanish ionli bog'lanish deyiladi.

5. Metall bog'lanish. Odatdagi sharoitda metallarning simobdan tashqari hammasi qattiq kristall moddalardir. Metallarning kristall panjaralari uch xil bo'ladi:

1. Hajmiy markazlashgan kub- Na , K , α - Fe , α - Cr , V , Mo , W ana shunday panjaraga ega.

2. Yoqlari markazlashgan kub- Al , Cu , Ni , Ag , Au , Pt , Pb shunday panjaraga ega.

3. Geksagonal- Be , Mg , Cd , Ti , Zn geksogonal panjaraga ega.

Metall atmolarini tashqi qavatlardagi elektronlarini berib musbat zaryadli ionlarga aylanadi. Metall atomlaridan ajralgan elektronlar (elektronlar gazi) musbat zaryadli ionlar atrofida erkin harakatlanadi. Metall zarrachalari bir-biri bilan ana shunday elektron vositasi yordamida bog'lanib turadi. Bunday bog'lanish metall bog'lanish deyiladi. Elektronlar muayyan atomlar bilan bog'lanmaganligi uchun maydon ta'siridayoq ma'lum yo'nalishda ko'cha boshlaydi va natijada elektr toki hosil bo'ladi.

Savollar:

1. Kimyoviy bog' va valentlik.
2. Orbitalarning gibridlanishi.
3. Molekulyar orbitalalar metodi.





4-Mavzu: KIMYOVIY REAKSIYALARING TEZLIGI VA KIMYOVIY MUVOZANAT

Reja:


1. Kimyoviy reaksiyalar.
2. Kimyoviy reaksiyalarning tezligi.
3. Tezlikka tasir etuvchi omillar.
 - 3.1 Reaksiya tezligining reaksiyaga kirishayotgan moddalarning tabiatiga bog'liqligi.
 - 3.2. Reaksiya tezligining konsentrasiyaga bog'liqligi.
 - 3.3 Reaksiya tezligining konsentrasiyaga, haroratga bog'liqligi. Vant - Goff qoidasi.
 - 3.4 Reaksiya tezliga katalizatorning tasiri.
4. Kimyoviy muvozanat.
5. Le-SHatele qoidasi.
6. Kimyoviy kinetikaning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.

Adabiyotlar: 3-10.


1. Kimyoviy reaksiyalar. Biror jarayon davomida bir xil moddalardan boshqa xil moddalarni hosil bo'lishi kimyoviy hodisalar yoki kimyoviy reaksiyalar deyiladi. Kimyoviy reaksiya sodir bo'lishi uchun, reaksiyaga kirishuvchi moddalarning molekulalari o'zarbo'yda bir-biri bilan to'qnashishi kerak. Buning uchun to'qnashadigan molekula yoki atomlar ma'lum miqdorda energiyaga ega bo'lishi shart. Kimyoviy reaksiyalarni sodir qiladigan eng kichik energiya faollanish (aktivlanish) energiyasi (E_a) deyiladi. Faollanish energiyasi kichik bo'lsa reaksiyaning tezligi katta bo'ladi. Bunday reaksiyalarga eritmalar orasida boradigan reaksiyalar misol bo'la oladi:





Faollanish energiyasi katta bo'lgan reaksiyalar sekin boradi. Masalan:




Faollanish energiyasi o'rtacha bo'lgan reaksiyalarning tezligini oson o'lchasa bo'ladi. Masalan:



Gazlar aralashmasi, eritmalar orasida boradigan reaksiyalar **gomogen** (bir jinsli) reaksiyalar deyiladi. Masalan:



Qattiq moddalar bilan gazlar va suyuqliklar orasidagi reaksiyalar **geterogen** (ko'p jinsli) reaksiyalar deyiladi. Masalan:



Gomogen reaksiyalarda reaksiyaga kirishuvchi modda molekulalari sistema hajmining hamma joyida, geterogen reaksiyalarda esa faqat qattiq faza sirtidagina to'qnashadi. SHunga asosan gomogan va geterogan reaksiyar turli xil kinetik tezlikka ega bo'ladi. Kimyoviy reaksiyalarning tezligi, mexanizmi, ularga ta'sir etuvchi faktorlarni o'rganadigan kimyoning bo'limi kimyoviy kinetika deyiladi.

2. Kimyoviy reaksiyalarning tezligi. Mexanikada tezlik jismning vaqt birligi ichida bosib o'tgan yo'li bilan o'lchanadi, ya'ni $V=S/t$, m/s; V - tezlik ; S -bosib o'tgan yo'l; t - vaqt. Kimyoda reaksiya tezligi reaksiyaga kirishayotgan

moddalar konsentrasiyasining vaqt birligi ichida o'zgarishi bilan o'lchanadi. Odatda konsentrasiya mol/l , vaqt esa, sekundda ifodalanadi. SHunga ko'ra kimyoviy reaksiya tezligining birligi $mol/l\cdot s$ deb qabul qilingan. Ushbu reaksiyada $J_2+H_2=2HJ$ moddalardan birining konsentrasiyasi vaqt oralig'ida C_1 (mol/l)dan C_2 (mol/l)gacha kamaysa, reaksiyaning ana shu vaqt oralig'idagi o'rtacha tezligi:

$$V = - \frac{C_2 - C_1}{t_2 - t_1} = - \frac{\Delta C}{\Delta t}$$

Bu erda J_2 ning konsentrasiyani kamayishiga va binobarin C_1-C_2 - ayirmanning qiymati manfiy bo'lismiga qaramay reaksiyaning tezligi faqat musbat kattalik bo'lishi mumkin. Agar konsentrasiya cheksiz qisqa vaqt oralig'ida o'zgarsa reaksiyaning tezligi:

$$V = \pm \frac{dc}{dt}$$

Bu erda: V - kimyoviy reaksiyaning haqiqiy tezligi; dt - cheksiz kichik vaqt oralig'i; dc - moddalarning konsentrasiyasining o'zgarishi; dc/dt - konsentrasiyasining vaqt bo'yicha olingan hosilasi.

3. Tezlikka tasir etuvchi omillar. Kimyoviy reaksiyaning tezligi, reaksiyaga kirishayotgan moddalarning tabiatiga, konsentrasiyasiga, haroratiga, katalizatorning ishtirot etish –etmasligiga, gazlarda bo'ladijan reaksiyalarda esa bosimga, qattiq moddaning sathiga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

3.1. Reaksiya tezligining reaksiyaga kirishayotgan moddalartabiatiga bog'liqligi. Reaksiya tezligi moddalarning ichki tuzilishiga bog'liqdir. Odatdagi sharoitda qutbsiz molekulali moddalar reaksiyaga sekin, qutbli molekulali moddalar esa reaksiyaga tezroq kirishadi. Ayniqsa ion bog'lanishli moddalarning suvdagi eritmalar g'oyat tez reaksiyaga kirishadi.

3.2. Reaksiyaning tezligining konsentrasiyaga bog'liqligi. Masalan, quyidagi moddalar reaksiyaga kirishayotgan bo'lsin: $mA+nB=cC+dD$

Massalar tasiri qonuniga asosan reaksiya tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentrasiyasining ko'paytmasiga to'g'ri proporsionaldir, yani:

$$V=k[A]^m[B]^n$$

V - tezlik; k - tezlik konstantasi bo'lib, o'zaro ta'sir etayotgan moddalarning tabiatiga, haroratga va katalizatorga bog'liq bo'lib, konsentrasiyaga bog'liq emas.

$[A]$ va $[B]$ reaksiyaga kirishuvchi A va V moddalarning konsentrasiyasi. Masalan: $N_2+J_2=2N J$ va $2NO+O_2=2NO_2$ reaksiyalarning tezliklari massalar ta'siri qonuniga ko'ra quyidagicha ifodalanadi:

$$V=k[H_2][J_2] \quad \text{bu erda } t=1, p=1.$$

$$V=k[NO]^2 \cdot [O_2] \quad \text{bu erda } t=2, p=1.$$

Agar reaksiyaga kirishuvchi moddalar gaz yoki erigan modda holidagina bo'lmay, balki reaksiyada qattiq moddalar ishtirot etsa, reaksiya

tezligi faqat gaz yoki erigan moddaning konsentrasiyasiga bog'liq bo'ladi. Masalan:



3.3. Reaksiyaning tezligining tempraturaga bog'liqligi. Reaksiya davomida tempratura ko'tarilishi bilan reaksiya tezligi keskin ortadi. Masalan, quyidagi reaksiyalar:




1.	$H_2 + J_2 = 2HJ$	100°S da 314000 yildan keyin tugaydi. 200°S da 110 yildan keyin tugaydi. 700°S da 0.12 sekunda tugaydi.
2.	$2N_2 + O_2 = 2N_2O$	xona haroratda 1 milliard yilda tugaydi. 400°S da 80 sutkada 500°S da 2 soatda 600°S da 7 minutda 700°S da portlash bilan suv hosil bo'ladi.

Vant-Goff qoidasi. Reaksiya tezligini haroratga bog'liqligini Vant-Goff qoidasi bilan aniqlanadi. Harorat har 10°C ga ko'tarilganda reaksiya tezligi 2-4 marta ortadi. Bu bog'lanish quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$V_{t_2} = V_{t_1} \cdot \gamma^{\frac{(t_2 - t_1)}{10}}$$

V_{t_1} – boshlang'ich t_1 dagi reaksiya tezligi; V_{t_2} - ma'lum vaqtidan so'ng t_2 dagi reaksiya tezligi; γ - reaksiya tezligining harorat koeffisienti bo'lib, reaksiya kirishayotgan moddalarning harorati 10 ko'tarilganda reaksiya tezligi necha marta oshishini ko'rsatadi.

3.4. Reaksiya tezligiga katalizatorlarning ta'siri. Kimyoviy reaksiyalarning tezligini o'zgartiruvchi, lekin reaksiyaning oxirida o'zini tarkibini to'liq saqlab qoladigan moddalar katalizatorlar deyiladi. Masalan:



Katalizatorlar ishtirokida boradigan reaksiyalar katalitik reaksiyalar deyiladi. Ba'zi bir moddalar reaksiya tezligini kamaytiradi, bunday moddalarni ingibitorlar deyiladi.

4. Kimyoviy muvozanat. Ma'lumki kimyoviy reaksiyalar qaytar va qaytmas bo'ladi. Faqat bir yo'nalishda boradigan reaksiyalar qaytmas reaksiyalar, qarama-qarshi tomonga yo'nalgan reaksiyalar esa, qaytar reaksiyalar deyiladi.

Qaytmas reaksiyalarga misollar:

1. $NH_4NO_2 \rightarrow 2H_2O + N_2$
2. $2KClO_3 \rightarrow 2KCl + 3O_2$

Qaytar reaksiyalarga misollar:

1. $ZnSO_4 + H_2S \rightleftharpoons ZnS + H_2SO_4$
2. $N_2 + 3H_2 \rightleftharpoons 2NH_3$
3. $H_2 + J_2 \rightleftharpoons 2HJ$

Vaqt o'tishi bilan to'g'ri reaksiyaning tezligi kamayadi, teskari reaksiyaning tezligi ortadi. Nihoyat ma'lum vaqtidan so'ng to'g'ri va teskari reaksiyalarning tezligi bir-biriga teng bo'ladi, ya'ni:

$$V_{to\ g'ri} = V_{teskari}.$$

Qaytar reaksiyalarni umumiy holda quyidagicha ifodalash mumkin. $tA + pV \rightleftharpoons rS + qD$

$$V_1 = k_1 \cdot [A]^m \cdot [B]^n \quad \text{to'g'ri reaksiya tezligi.}$$


$$V_2 = k_2 \cdot [C]^p \cdot [D]^q \quad \text{teskari reaksiya tezligi.}$$

To'g'ri va teskari reaksiyalarning tezliklari o'zaro tenglashgan holat kimyoviy muvozanat deyiladi. Kimyoviy muvozanat faqat o'zgarmas sharoitda doimiy bo'ladi. Reaksiya davomida reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentrasiysi, reaksiya harorati yoki bosimi (gaz moddalar) o'zgarsa, muvozanat buziladi. Bu hol muvozanatni siljishi deyiladi. Muvozanatning biror tashqi ta'sir ostida qaysi tomonga siljishi Le-SHatelle (1884 y.) qoidasi bilan aniqlanadi.


5. Le-SHatele qoidasi. Kimyoviy muvozanat holatda turgan sistemaga tashqi ta'sir ko'rsatilsa, muvozanat shu tashqi ta'sirni kamaytiradigan reaksiya tomonga siljiydi.

a) Kimyoviy muvozanatning konsentrasiyaga bog'liqligi. Kimyoviy muvozanat holatda turgan sistemadagi moddalardan birining konsentrasiysi oshirilsa, muvozanat shu modda konsentrasiyasini kamaytiruvchi reaksiya tomongi a siljiydi: $2SO_2 + O_2 \rightleftharpoons 2SO_3$. Bu reaksiyada O_2 ning konsentrasiyasi oshirilsa, to'g'ri reaksiyaning tezligi ortadi va kimyoviy muvozanat SO_3 hosil bo'lgan tomonga siljiydi: $N_2 + 3N_2 \rightleftharpoons 2NN_3$. N_2 ning konsentrasiyasi oshirilsa, to'g'ri reaksiya tezligi ortadi, ya'ni muvozanat NN_3 hosil bo'lisch tomonga siljiydi.

b) Muvozanatning reaksiya haroratiga bog'liqligi. Kimyoviy muvozanat - harorat oshirilganda endotermik reaksiya tomonga, harorat pasaytirilganda esa, ekzotermik reaksiya tomonga siljiydi. Misollar:



v) Kimyoviy muvozanatning reaksiya bosimiga bog'liqligi. Gazlar orasida boradigan reaksiyalarning bosimi oshirilganda hajmi kamayadi. Binobarin, molekulalar soni oz mahsulotlar hosil bo'lgan tomonga, aksincha bosim kamaytirilganda esa, kimyoviy muvozanat gaz molekulalari ko'p mahsulot hosil bo'lgan tomonga siljiydi.



Gaz moddalar molekulalarining soni o'zgarmay qoladigan reaksiyalarda bosimni o'zgarishi muvozanatga ta'sir etmaydi (gazlarning hajmi teng bo'lgani uchun)



Masalan: gazlar aralashmasining hajmi 3 marta kamaytirilsa, quyidagi reaksiya tezligi qanday o'zgaradi. $2SO_2 + O_2 \rightleftharpoons 2SO_3$.

Echim: $[SO_2]=a$, $[O_2]=v$ deb belgilasak, reaksiya tezligi $V=k \cdot a^2 \cdot v$ bo'ladi.

Gaz hajmining 8 marta kamayishi natijasida SO_2 va O_2 larning konsentrasiyasi shuncha marta oshadi, ya'ni $[SO_2]=3a$, $[O_2]=3v$ bo'ladi, bundan $V_I = k \cdot (3a)^2 \cdot v = 27 \cdot a^2 \cdot v$. V va V_I taqsimlash natijasida reaksiya tezligi 27 marta ortar ekan.

6. Kimyoviy kinetikaning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. Kimyoviy kinetika qonunlarini bilish va ularning hayotga tadbiq etish kimyoviy reaksiyalarni boshqarish va kimyoviy apparatlarning unumdorligini oshirish imkonini beradi. Masalan, azotli, fosforli o'g'itlar, pestidsidlar va boshqa qishloq xo'jaligi uchun muhim bo'lgan kimyoviy moddalar ishlab chiqarish asosida katalitik jarayonlar yotadi.

Kimyoviy kinetika qonunları tuproqda bo'ladigan agrokimyoviy reaksiyalarning mexanizmini hamda fermentlar ishtirokida boradigan biokimyoviy reaksiyalarni tezligini har xil omillarga bog'liqligini tushuntirib beradi. Masalan, o'simliklarni normal rivojlanishi uchun tuproqdagi haroratni optimal bo'lishi katta ahamiyatga ega. SHuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini past haroratlarda uzoq vaqt saqlash mumkinligini esa, organik birikmalarning parchalanish reaksiyasini keskin sekinlashtirish, ya'ni fermentlar faoliyati to'xtatish bilan bog'liqidir.

Savollar:

1. Faollanish (aktivlanish) energiyasi.
2. Reaksiyalarni iing molekulyarligi.
3. Gomogen va geterogen katalizlar.
4. Geterogen sistemalardagi kimyoviy muvozonat.

5-Mavzu: ERITMALAR

Reja:

1. Dispers sistemalar.
2. Eritmalarning turlari.
3. Erish jaranyoni.
4. To'yingan, to'yinmagan, o'ta to'yingan eritmalar.
5. Moddalarning eruvchanligi va eruvchanlik.
6. Erishda bo'ladigan issiqlik hodisalari.
7. Kristallogidratlar.
8. Eritmalar konsentrasiyasini ifodalash usullari.
 - 8.1. Konsentrasiyani erigan moddaning massa ulushida ifo dalanishi.
 - 8.2. Molyar konsentrasiya.
 - 8.3. Ekvivalent, molyar konsentrasiya.
 - 8.4. Molyal konsentrasiya.

- 8.5. Erigan modda konsentrasiyasining molyar ulushlarda ifodalanishi.
- 8.6. Eritmaning massa ulushidan, molyar, normal, molyal konsentrasiyaga o'tish.
9. Eritmaning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.

Adabayotlar: 5-8, 12, 14.

1. Dispers sistemalar. Eritmalar dispers sistemalarning bir ko'rinishidir.

Biroq moddaning mayda zarrachalari boshqa bir modda orasida taqsimlanishidan hosil bo'lgan sistemaga dispers sistema deyiladi. Taqsimlangan modda dispersion faza, ikkinchi modda esa dispersion muhit deyiladi. Dispers faza zarrachalarining diametrilari $1nm$ - 10^6mm katta bo'lgan sistemalar *dag'al* sitemalar deyiladi. Bularga suspenziya - qattiq moddaning suyuqlikda tarqalishi, emulsiya - erituvchida erimaydigan suyuqliknинг erituvchida tarqalishi va ko'piklar- gazsimon moddaning suyuqlikda tarqalishi kiradi. Dispers sistema zarrachalarining o'lchami $1-100nm$ gacha bo'lgan sistemalar kolloid sistemalarni hosil qiladi.

Dispers sistema zarrachalari $1nm$ dan kichik bo'lganda chin, molekulyar yoki ionli dispers sistemaga, ya'ni eritmalariga olib keladi. Ikki yoki bir necha moddalardan (komponentlardan) iborat bo'lgan bir jinsli (gomogen) termodinamik jihatdan barqaror bo'lgan, o'zgaruvchan tarkibli sistemalarga eritmalar deyiladi.

Eritmalarda bir yoki bir necha erigan moddaning zarrachalari erituvchida bir tekis tarqalgan bo'ladi. Masalan, fosfat kislota eritmasi, erigan modda kislota, erituvchi suv va ularning o'zaro ta'sir maxsulotlari gidratlangan ionlar H^+ , $H_2PO_4^-$, HPO_4^{2-} , PO_4^{3-} lardan iborat bo'ladi.

2. Eritmalarning turlari. Erituvchi va eruvchi moddaning agregat holatiga qarab eritmalar: gazsimon (har xil gazlar aralashmasi, masalan, havo), suyuq (qattiq moddalarni, suyuqliklarni va gazsimon moddalarni erituvchidagi eritmasi) va qattiq (qotishmalar - har xil metallar aralashmasi) holatlarida bo'lishi mumkin.

3. Erish jarayoni. Molekulyar-kinetik nazariyaga muvofiq erish jarayoni shunday tasvvur qilish mumkin: erituvchi ta'siridan qattiq modda sirtlaridagi ionlarning tebranma xarakati kuchayib boradi va natijada ion yoki molekulalar asta-sekin ajrala boshlaydi. Eritmaga o'tgan zarrachalar diffuziya tufayli erituvchining butun xajmi bo'yicha bir me'yorda tarqaladi. Boshqa tomondan eritmaldargi zarrachalarning (ion yoki molekulalar) konsentrasiyasini oshib borishi va ularning to'xtovsiz harakati tufayli, ular oxirigacha erib ulgurmasdan qattiq modda sirtiga qayta o'tirishi ham mumkin, ya'ni erish jarayoniga teskari kristallanish ham yuzaga keladi. Nihoyat ma'lum vaqtadan so'ng erish va kristallanish orasida muvozonat yuzaga keladi, ya'ni qancha zarracha (ion yoki molekula) eritmaga o'tsa, shuncha zarracha eritmadan qattiq zarracha yuzasiga o'tadi.

4. To'yingan, to'yimagan va o'ia to'yingan eritmalar. Qattiq moddalar suvda eriganda eritmaga o'tuvchi zarrachalar va eritmadan qattiq zarracha yuzasiga o'tuvchi zarrachalar sonlarining nisbatiga asosan eritmalar

to'yingan, to'yinmagan va o'ta to'yingan bo'lishi mumkin. Ayni haroratda modda ortiq erimaydigan, ya'ni eruvchi modda bilan muvozonatda turgan eritma to'yingan eritma deyiladi. Demak, to'yingan eritmada ayni haroratda erigan moddaning mumkin bo'lgan eng ko'p miqdori bo'ladi.

To'yinmagan eritmada to'yingan eritmada qaraganda kamroq, o'ta to'yingan eritmada esa- ko'proq modda bo'ladi. Harorat ortishi bilan to'yingan eritma to'yinmagan holga o'tadi. O'ta to'yingan eritmalar beqaror muvozonatsiz sistemalar bo'lib, ular o'z-o'zidan muvozonat holatiga o'tish hollari ham bo'lib turadi. Bunday vaqtida ortiqcha erigan modda eritmadan ajraladi va eritma to'yingan holatga o'tadi.

Ervuchi modda va erituvchining nisbiy miqdorlariga asosan suyultirilgan va konsentrangan eritmalar mavjud bo'ladi. Erigan moddaning miqdori kam bo'lgan eritmalar suyultirilgan, ko'p bo'lgan eritmalar esa konsentrangan eritmalar deyiladi. Eritma komponentlaridagi zarrachalar elektroneytral bo'lsa molekulyar (elektrolitmaslar), zaryadli zarrachalar bo'lsa ionli (elektrolitlar) eritmalar deyiladi.

5. Moddalarning eruvchanligi va eruvchanlik. Tajribadan ma'lumki, suvda qattiq moddalar ham, gazlar ham bir xilda erimaydi. Barcha moddalar suvda eruvchanligiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. *YAxshi eriydigan* ($100\text{ g suvda }10\text{ g dan ortiq modda erisa}$);
2. *Oz eriydigan* ($100\text{ g suvda }1\text{ g dan kam erisa}$);
3. *Amalda deyarli erimaydigan moddalar* ($100\text{ g suvda }0.01\text{ g}$).

Moddalarni erituvchida (suvda) erish xususiyatini xarakterlash uchun "eruvchanlik" degan tushuncha kiritilgan. Eruvchanlik miqdoriy jihatdan moddaning 100g erituvchida ayni temperaturada eng ko'p erishi mumkin bo'lgan grammalar soni bilan ifodalanadi. Bu miqdor moddalarni eruvchanligi deyiladi. Masalan, 20°S da $100\text{ g suvda }35.9\text{ g NaCl}$ tuzi eriydi, ya'ni bu tuzning 20°S dagi eruvchanligi 35.9 ga teng. Agar shu haroratda bu miqdorga nisbatan yana ortiqcha natriy xlorid tuzi qo'shilganda bu miqdordagi tuz erimaydi, u cho'kma holida bo'ladi. Ko'pincha qattiq moddalarning eruvchanligi harorat ortishi bilan ortadi, lekin ba'zi bir moddalarniki esa juda kam ortadi (masalan, NaCl , AlCl_3) va hatto kamayadi (masalan $\text{Ca}(\text{OH})_2$, Li_2SO_4 , $\text{Ca}(\text{CH}_3\text{COO})_2$).

Gaz moddalarning eruvchanligi bosimga va haroratga bog'liq bo'ladi. Gazlar suvda eriganda issiqlik ajralib chiqadi. Le-SHatele qoidasiga muvofiq gazlarning eruvchanligi harorat ko'tarilganda kamayadi. Bosim oshgan sari esa, Genri qonuniga muvofiq gazlarning eruvchanligi ortadi.

6. Erishda bo'ladigan issiqlik xodisalari. Moddalar erigan vaqtida erituvchi va eruvchi modda molekulalari orasida fizik (orientasion, induksion va dispersion) hamda kimyoiy kuchlar (vodorod bog'i va ion-dipol) o'zaro ta'siri natijasida issiqlik yutilishi va chiqishi mumkin.

Genri qonuni- o'zgarmas haroratda gazlarning eruvchanligi ularning parsial bosimiga to'g'ri proparsionaldir:

$$C_{(x)}=K \cdot P_{(x)}$$


$C_{(x)}$ - to'yingan eritmadiagi x gazning konsentrasiyasi; K - Genri doimiysi, $P_{(x)}$ - gazini eritma ustidagi bosimi.

Qattiq moddalar erigan vaqtida ularning kristall panjaralari emiriladi va moddaning mayda zarrachalari erituvchi orasida bir tekis tarqaladi. Bu jarayonda energiya yutiladi ($\Delta H > 0$). SHu bilan bir vaqtida erituvchi bilan eruvchi modda zarrachalari o'zaro ta'sir etib, aniq tarkibli birikmalar, ya'ni solvatlar hosil bo'ladi. Agar erituvchi suv bo'lsa, bunday birikmalar gidratlar deyiladi. Bu jarayonda (issiqlik) energiya ajralib chiqadi ($\Delta H < 0$). 1 mol modda eriganda ajralib chiqqan yoki yutilgan issiqlik miqdori shu moddaning erish issiqligi deyiladi. Masalan, 1 mol KON uchun $\Delta N = -55.65 \text{ kDj/mol}$, NH_4NO_3 uchun esa $\Delta N = +26.48 \text{ kDj/mol}$.

7. Kristallogidratlar. Erigan moddaning erituvchi bilan kimyoviy o'zaro ta'siri natijasida solvatlar, erituvchi suv bo'lganda gidratlar hosil bo'ladi. Bunday birikmalarning ko'pchiligi beqaror bo'lib, ularni eritmadan ajratishda parchalanib ketadi, lekin ayrim hollarda ularni eritmadan kristallga tushirish yo'li bilan ajratib olish mumkin. Bunda tarkibida suv molekulalari bor kristallar cho'kmaga tushadi.

Tarkibida suv tutgan kristall moddalarni kristallogidratlar deyiladi. Kristallogidrat tarkibiga kirgan suvni kristallizasiya suvi deyiladi. Kristallogidratlarga

$CaSO_4 \cdot 2H_2O, CuSO_4 \cdot 5H_2O, Na_2B_4O_7 \cdot 10H_2O, Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$ misol bo'la oladi. Kristallogidratlarni ma'lum bir xaroratda qizdirilganda, faqatgina tarkibidagi suvni yo'qatadi, moddani parchalanishi esa, yuqori haroratda sodir bo'ladi. Masalan:



8. Eritmalarning konsentrasiyasini ifodalash usullari. Ma'lum miqdordagi (og'irlilik yoki hajmdagi) eritmada erigan moddaning miqdoriga (og'irlilik yoki hajmiy) konsentrasiya deyiladi. Eritmalarning konsentrasiyasi miqdor jihatdan har xil usullarda ifodalanadi.

- 1) Erigan moddaning massa ulushlarida (birining ulushlarida yoki foizlarda).
- 2) Eritmaning o'zagarmas hajmdagi konsentrasiysi: molar konsentrasiya, ekvivalent-molyar konsentrasiya va titr bilan.
- 3) Erituvchining o'zagarmas miqdordagi erigan moddaning konsentrasiyasi- molyallik bilan ifodalanadi.

8.1. Konsentrasiyani erigan moddaning massa ulushlarida ifodalanishi. Erigan modda massasining (m modda) eritma massasiga (m) nisbati, erigan moddaning massa ulushi (W) deyiladi:

$$W = \frac{m_{\text{modda}}}{m}$$

(1)

Bu formula erigan modda massasini eritmaning umumiy massasidagi ulushini ifodalaydi. Massa ulushi foizlarda ifodalansa:

$$W = \frac{m_{\text{modda}} \cdot 100}{m} \quad (2)$$

Agar eritma hajmi (V) ml da va uni zichligi (ρ) (g/ml)da ma'lum bo'lsa:

$$W = \frac{m_{\text{modda}} \cdot 100}{V \cdot \rho} \quad (3)$$

8.2. Molyar konsentrasiya. Molyar konsentrasiya- bu erigan modda miqdorining eritma hajmiga bo'lgan nisbatidir.

$$C_{M_x} = \frac{n_x}{V} \quad (4)$$

Bu erda: V - eritma hajm *litr* hisobida; C_{M_x} - x moddaning molyar konsentrasiysi, g/mol ; n_x - x moddaning miqdori, mol . Molyar massa- bu modda massasining modda miqdoriga bo'lgan nisbatidir.

$$M_x = \frac{m_x}{n_x} \quad (5)$$

$$n_x = \frac{m_x}{M_x} \quad (6)$$

Bu erda: M_x - x moddaning molyar massasi, g/mol ; m_x - x moddaning massasi, g . (6) ni (4) ga qo'ysak (7) tenglik kelib chiqadi:

$$C_{M_x} = \frac{m_x \cdot 1000}{M_x \cdot V} \quad (7)$$

Bu erda: V - ml hisobida. Molyar konsentrasiyaning *SI* birligi - mol/m^3 , lekin ko'pincha mol/l ishlataladi. Agar 1 l eritmada 1 mol modda erisa, bunday eritma konsentrasiysi bir molyar eritma deyiladi va 1 M bilan ifodalanadi. Agar 0.1 mol yoki 0.01 mol moddalar erisa desimolyar, santimolyar eritmalar deyiladi hamda 0.1 M va 0.01 M bilan ifodalanadi.

8.3. Ekvivalent molyar konsentrasiya. Ekvivalent molyar konsentrasiya - bu eritmadagi ekvivalent modda miqdorining eritma hajmiga bo'lgan nisbatidir.

$$C_{H_x} = \frac{n_x}{V} \quad (8)$$

C_{H_x} - x moddaning ekvivalent molyar konsentrasiysi; n_x - x moddaning ekvivalent miqdori; V - eritma hajmi, l .

$$n_x = \frac{m_x}{\varTheta} \quad (9)$$

E- ekvivalent modda miqdori. (9) ni (8) ga qo'ysak (10) tenglik kelib chiqadi:

$$C_{M_x} = \frac{m_x \cdot 1000}{V \cdot \varTheta} \quad (10)$$

Bu erda: V - hajm, ml da. Agar $1 l$ eritmada $1 mol$ ekvivalent modda erigan bo'lsa, uning konsentrasiyasini normal eritma deyiladi va $1n$ bilan ifodalanadi. Desinormal, santinormal eritmalar $0.1n$ va $0.01n$ bilan ifodalandi. Ekvivalent molyar eritmalar tayyorlash uchun kislota, asos, tuzlarni ekvivalentlarini aniqlash lozim. Ekvivalent molyarligi (normalligi) har xil bo'lgan eritmalar o'zaro ta'sir etganda eritmalarning hajmi ularning normalligiga teskari proporsional bo'ladi.

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{H_2}{H_1} \quad (11)$$

Bu erda: N_1 va N_2 - birinchi va ikkinchi eritmalarning ekvivalent molyarligi; V_1 va V_2 - birinchi va ikkinchi eritmalarning hajmi. Eritmada erigan modda massasini (m), eritma hajmiga bo'lgan nisbati titr (T) deyiladi.

$$T = \frac{m_{\text{модда}}}{V}, \text{ g/ml} \quad (12)$$

Eritmaning titri bilan molyar konsentrasiya S_m va ekvivalent molyar konsentrasiya S_n o'rtaida quyidagacha bog'lanish bor:

$$T = \frac{C_m \cdot M}{1000}; \quad T = \frac{C_n \cdot \varTheta}{1000} \quad (13)$$

8.4. Molyal konsentrasiya. Molyal konsentrasiya- bu erigan modda miqdorining erituvchi massasiga bo'lgan nisbatidir:

$$C_{m_x} = \frac{n_x}{m} \quad (14)$$

Bu erda: C_{m_x} - x moddaning molyal konsentrasiyası; n_x - erigan moddaning miqdori; m - erituvchining massasi.

$$n_x = \frac{m_x}{M_x} \quad (15)$$

(15) ni qiymatini (14) ga qo'yysak:

$$C_{m_x} = \frac{m_x}{M_x \cdot m} \quad (16)$$

Bu erda: m_x - x moddaning massasi; M_x - x moddaning molyar massasi. Molyal konsentrasiyaning birligi kg/mol dir.

8.5 Erigan modda konsentrasiyasini molyar ulushlarda ifodalanishi.

Erigan modda miqdorining erituvchi va erigan modda miqdorlari yig'indisiga nisbati erigan moddaning molyar ulushi deyiladi: $N = \frac{n}{n_0 + n}$

$$(17)$$

Bu erda: N - erigan moddaning molyar ulushi; n - erigan moddaning miqdori, mol ; n_0 - erituvchining miqdori, mol .

Molyar ulush foizlarda ifodalansa (17) quyidagicha ko'rinish oladi:

$$N = \frac{n \cdot 100}{n_0 + n} \quad (18)$$

(18) formulada $n=m/M$ hisobga olinsin.

Erituvchining molyal ulushi esa quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N_0 = \frac{n_0}{n_0 + n} \quad (19)$$

Bu erda: n_0 - erituvchining miqdori, mol; n - erigan moddaning miqdori, mol. (19) formula foizlarda ifodalansa:

$$N_0 = \frac{n_0 \cdot 100}{n_0 + n} \quad (20)$$

8.6. Eritmaning massa ulushidan , molyar, normal, molyal konsentrasiyalarga o'tish. Eritma massasi (m), hajmi (V) va zichligi (ρ) o'zaro quyidagicha bog'langan: $m=V \cdot \rho$ bundan $V=m/\rho$.

Eritmaning massa ulushi foizlarda berilgan bo'lsa, uning molyar (C_M), normal (C_H), molyal (C_m) konsentrasiyalarini quyidagicha topish mumkin:

$$C_M = \frac{\omega \cdot \rho \cdot 10}{M}, C_H = \frac{\omega \cdot \rho \cdot 10}{\varTheta}, C_m = \frac{\omega \cdot 1000}{M(100 - \omega)}$$

9. Eritmalarning qishloq ho'jaligidagi axamiyati. Eritmalar tabiatda va qishloq xo'jaligida katta ahamiyatga ega. Tabiatdadagi barcha suvlar eritmalar hisoblanadi. O'simliklar azot, fosfor, kaliy va mikroelementlar bo'lgan moddalar tuproqdan eritmalar holida o'zlashtiradi. SHuning uchun, tuproq suvsiz o'lik hisoblanadi. Barcha dori moddalar eritma holida organizm tomonidan o'zlashtiriladi. SHuning uchun ko'pchilik dorilar eritma holida tay'rlanadi.

Savollar:

1. Elervchanlik egor chiziqlari
2. Raul qonuni.
3. Vant-Goff qonuni.

6-Mavzu: ELEKTROLITIK DISSOSILANISH NAZARIYASI

Reja:

1. Elektrolitlar va elektrolitmaslar.
2. Elektrolitik dissosilanish nazariyasi.
3. Kislota, asos va tuzlarning dissosilanishi.
4. Dissosilanish darajasi.
5. Kuchli, o'rta kuchli va kuchsiz elektrolitlar.
6. Dissosilanish konstantasi.
7. Elervchanlik ko'paytmasi.
8. Reaksiyalarning ionli tenglamalari.
9. Kuchli va kuchsiz elektrolitlarning biologik ahamiyati.


Adabiyotlar: 3-10.

1. Elektrolitlar va elektrolitmaslar. Erigan va suyuqlangan holatda elektr tokini o'tkazadigan moddalar elektrolitlar, o'tkazmaydiganlari elektrolitmaslar deyiladi. Elektrolitlarga kislotalar, asoslar va tuzlarning suvdagi

eritmaları, elektrolitlerin lagerde ko'pchilik organik birikmalar, masalan, spitrlar va uglevodlar kiradi. Elektrolitler suvda eritilganda suvning qutbli molekulaları ta'siridan musbat va manfiy zaryadli ionlar (ion so'zi kezib yuruvchi degan ma'noni anglatadi)ga ajraladi. Bu hodisa elektrolitik dissovylanish deyildi.

2. Elektrolitik dissovylanish nazariyasi. 1887 yilda shved kimyogar olimi S.Arrenius kislota, asos va tuz eritmalarining xossalalarini izohlovchi elektrolitik dissovylanish nazariyasini yaratdi:

A) Elektrolitler suvda erganda musbat va manfiy zaryadli ionlarga ajraladi (dissosilanadi). Bu ionlar suv molekulalari bilan birikib, gidratlangan ionlarga aylanadi. Masalan:



Amalda qulaylik uchun soddalashtirib, quyidagicha yoziлади: $NaCl \rightleftharpoons Na^+ + Cl^-$;


B) Ionlar elektr toki ta'siridan harakatlanadi, musbat earyadli ionlar katodga, manfiy earyadli ionlar anodga tomon harakatlanadi. SHuning uchun musbat zaryadli ionlarni, kationlar, manfiy zaryadli ionlarni anionlar deyiladi;

V) Dissovylanish qaytar jarayondir, unga teskari bo'lgan jarayon mollarish (assosilanish) deyiladi.


Muvozonat qaror topganda, unga qancha molekula ionlarga ajralasa, ionlardan yana shuncha molekula hosil bo'ladi.

Ion bog'lanishli moddalar eng oson dissovylanadi. Bunday moddalar ionlardan tarkib topgani uchun ular suvda erganda suvning dipollari musbat va manfiy ionlar atrofida orientasiyalanadi. Ionlar bilan suvning dipollari orasida o'zaro tortishuv kuchlari vujudga keladi, natijada ionlar orasidagi bog'lanish kuchsizlanib, ionlar kristalldan eritmaga o'tadi, so'ngra bu ionlar suv molekulalari bilan birikib gidratlangan ionlarni hosil qiladi.

3. Kislota, asos va tuzlarning dissovylanishi. Elektrolitik dissovylanish nazariyasiga muvofiq, kislotalar vodorod ionlari va kislota qoldig'i ionlariga, asoslar metall ionlari va hidroksil ionlariga, tuzlar esa metall ionlari va kislota qoldig'i ionlariga dissovylanadilar. Masalan, kislotalar quyidagicha dissovylanadi:




Ko'p negizli kislotalar bosqichma- bosqich dissovylanadi:




Demak, kislotalar dissovylananganda faqat vodorod kationlari hosil qiluvchi elektrolitlar ekan.

Asoslar quyidagicha ionlarga parchalanadi, kuchli asoslar ionlar to'liq dissovylanadi:




Kuchsiz asoslar bosqichli dissovylanadi:







Demak, asoslar dissosilanganda faqat gidrosil-anionlari hosil qiluvchi elektrolitlar ekan. Tarkibiga qarab tuzlar o'rta, nordon, asosli, qo'sh va kompelks tuzlarga bo'linadi. O'rta tuzlar quyidagicha dissosilanadi:




Nordon tuzlar dissosilanishida metall kationi va murakkab anion hosil bo'ladi:



Asosli tuzlar murakkab kation va kislota goldig'i anioniga dissosilanadi:



Qo'sh tuzlar bir bosqichda dissosilanadi:



4. Dissosilanish darajasi. Elektrolitlarning dissosilanishi miqdor jihatdan dissosilanish darajasi bilan ifodalanadi. Eritmadagi elektrolit molekulalarining qancha qismi ionlarga ajralishini ko'rsatuvchi kattalik dissosilanish darajasi deyiladi. Dissosilanish darajasi elektrolit va erituvchining tabiatiga hamda eritmaning konsentrasiyasiga bog'liq bo'ladi:


$$\alpha = n \cdot 100/N$$

Bu erda: α - dissosilanish darajasi; n - ionlarga ajralgan molekulalar soni; N - umumiy molekulalar soni.

5. Kuchli va kuchsiz elektrolitlar. Barcha elektrolitlar dissosilanish darajasigi qarab shartli ravishda kuchli, o'rta kuchli va kuchsiz elektrolitlarga bo'linadi. O .In eritmadagi dissosilanish darajasining qiymati:

1. 3% kam bo'lgan (NSN , Sn_3SOON , N_3VO_3 , N_2SO_3 , NN_4ON , N_2S suvda erimaydigan asoslar va tuzlar) kuchsiz elektrolitlar;
2. 3-30% bo'lgan o'rta kuchli (N_2SO_3 , N_3RO_4);
3. 30% dan ortiq bo'lgan (NSI , NNO_3 , $NCIO_3$, NVr , N_2SO_4 , $NaOH$, KON , $Sa(ON)_2$, $Va(ON)_2$ singari ishqoriy va erishqoriy metall gidroksidlari, eruvchan tuzlarning hammasi) kuchli elektrolitlar deyiladi.

6. Dissosilanish konstantasi. Dissosilanish darajasining qiymati eritmaning konsentrasiyasiga, temperaturaga elektrolitning va erituvchining tabiatiga bog'liq bo'ladi. Elektrolitik dissosilanish qaytar jarayon bo'lgani uchun unga massalar ta'siri qonunini qo'llash mumkin.



Muvozanat konstantasi K bunday hollarda dissosilanish konstantasi deb ataladi.

Kuchsiz elektrolitlar eritmalarida K bilan α orasida quyidagicha bog'lanish bor.


$$K = \frac{\alpha^2 \cdot C}{1 - \alpha} \quad \text{ëku} \quad K = \frac{\alpha^2}{V \cdot (1 - \alpha)}$$

Bu erda V - o'zida 1 mol moddasi bo'lgan eritma hajmi, uni suyultirish deyiladi.


Agar $\alpha < 1$ bo'lsa, $(1-\alpha) \approx 1$ deb olish mumkin, u holda $K = \alpha^2 \cdot C$ bo'ladi.

Bundan $\alpha = \sqrt{\frac{K}{C}}$ ëku $\alpha = \sqrt{K \cdot V}$

Demak, elektrolit eritmasini suyultirish ya'ni, konsentrasiyasini kamaytirish bilan uning dissosilanish darajasi ortadi. Elektrolit bosqichma-bosqich dissosilansa, har qaysi bosqich ma'lum bir bosqich dissosilanish konstantasi qiyimi bilan ifodalandi. 1 bosqich K si boshqa bosqichlarnikiga nisbatan ancha katta bo'ladi. Masalan:



7. Eruvchanlik ko'paytmasi. Elektrolit suvda eriganda eritmaga molekulalar emas, balki ionlar o'tadi, shuning uchun ham to'yigan eritmada qattiq tuz bilan eritmadi ionlar o'rtasida muvozonat sodir bo'ladi. Masalan, kumush iodidning to'yigan eritmasida quyidagicha muvozonat ro'y beradi:



Muvozanat holatida qattiq tuz konsentrasiyasi o'zgarmas bo'ladi, ya'ni $K_{AgJ} = K_1$, $K_1 = [Ag^+] \cdot [J^-]$ teng bo'ladi.

Demak, oz eruvchan elektrolitlarning to'yigan eritmasida ionlar konsentrasiyasining ko'paytmasi ayni temperaturada o'zgarmas kattalikdir. Bu kattalik eruvchanlik ko'paytmasi deyiladi va EK bilan begilanadi. $EK_{AgJ} = [Ag^+] \cdot [J^-] = 1.5 \cdot 10^{-16}$. Temperatura ortishi bilan EK ning qiyimi ortadi. Agar eritmadi ionlar konsentrasiyasining ko'paytmasi EK qiymatidan katta bo'lsa, cho'kma hosil bo'ladi, kichik bo'lsa, cho'kma hosil bo'lmaydi.

8. Reaksiyalarning ionli tenglamalari. Elektrolitlar orasida sodir bo'ladiqan barcha almashinish reaksiyalari elektrolitlar orasida boradi. SHunga

ko'ra bunday reaksiyalar ionli reaksiyalar deyiladi va ionli tenglamalar bilan ifodalanadi. Ionli tenglamalarda cho'kma tushgan yoki gaz holida ajralgan va kam dissosilangan moddalar molekulyar holida yozildi. Misollar:

1. $VaSl_2 + N_2SO_4 = \checkmark VaSO_4 + 2NSl$ *Molekulyar tenglama*
 $Va^{2+} + 2SI^- + 2N^+ + SO_4^{2-} = \checkmark VaSO_4 + 2N^+ + 2SI^-$ *Ionli tenglama*
 $Va^{2+} + SO_4^{2-} = VaSO_4$ *Qisqartirilgan ionli tenglama*
2. $Na_2SO_3 + 2NSl = 2NaSl + SO_2 + N_2O$
 $2Na^+ + SO_3^- + 2N^+ + 2SI^- = 2Na^+ + 2SI^- + SO_2 + N_2O$
 $SO_3^{2-} + 2N^+ = SO_2 + N_2O$
3. $NaON + NSl = NaCl + N_2O$
 $OH^- + H^+ = H_2O$

9. Kuchli va kuchsiz elektrolitlarning qishloq xo'jaligidagi axamiyati.

Tirik bo'limgan tabiatda eng muhim kationlarning (Na^+ , K^+ , Ca^{2+} , Hg^{2+} va boshqalar) harakati kuchli elektrolitlarning suvdagi eritmalari sifatida namoyon bo'ladi. Dengiz, daryo, ko'l va er osti suvlarining mineral tarkibi, ularda erigan kuchli elektrolitlarning gidratlangan ionlar binoan aniqlanadi. O'simliklar va hayvonlar kuchli elektrolitlarning dissosilanishi natijasida hosil bo'lgan biologik faol elementlarni xazm qilib, gidratlangan ionlarni o'zining metabolizmida ishlatadi.

Tabiatda eng ko'p tarqalgan kuchsiz elektrolit bu suvdir. Suvsiz geokimyoiy, agrokimyoiy reaksiyalar va hujayralarning biokimyoiy sikllari yuz bermaydi. Geokimyoda tuproq hosil bo'lishida va hujayralarning hayot faoliyatida kuchsiz elektrolitlar ishtirokida boradigan reaksiyalar muhim rol o'yndaydi. Kuchsiz elektrolitlarning bufer eritmalar hosil qilish qobiliyati tuproqdagi o'simliklar o'sishi uchun zarur bo'ladigan tuproq eritmasi muhitini hosil qilishda alohida ahamiyatga ega.

Savollar:

1. Eritmalar orqali tok o'tish mexanizmi.
2. Izotonik koeffisient.
3. Kuchli elektrolitlarning eritmadiagi holati.
4. Ionlarning faolligi.


7-Mavzu: SUVNING ION KO'PAYTMASI VA VODOROD KO'RSATKICH. TUZLARNING GIDROLIZI

Reja:

1. Suvning ion ko'paytmasi va vodorod ko'rsatkich.
2. Vodorod ko'rsatkichni qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.
3. Tuzlarning gidrolizi.
 - 3.1. Kation bo'yicha gidrolizlanish.
 - 3.2. Anion bo'yicha gidrolizlanish.
 - 3.3. Ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizlanish.
 - 3.4. Gidrolizning ahamiyati.

Adabiyotlar: 3-10.

1. Suvning ion ko'paytmasi va vodorod ko'rsatkich. Suvnihoyatda kuchsiz elektrolitdir, suv qanchalik toza bo'lmasin juda oz miqdorda elektr tokini o'tkazadi. Suvning elektr tokini o'tkazishiga sabab uning ionlanishidir.



Aslida suvli eritmalarda N^+ ionlari N_2O bilan birgalikda N_3O^+ kompleks gidrat ionini hosil qiladi. Buni soddalashadirish uchun $H_2O \Leftrightarrow H^+ + (OH)^-$ shaklida yoziladi. Massalar ta'siri qonuniga asosan suvning dissosilanish konstantasi quyidagi ifoda bilan ifodalanadi:

$$K = \frac{[H^+] \cdot [OH^-]}{H_2O}$$

Suvni 22 °C, $K=1.8 \cdot 10^{-16}$, $\alpha=1.8 \cdot 10^{-9}$ nihoyatda kichik sonlardir. Suvning har qaysi 556.000.000 molekulasidan, faqatgina bitta molekula N^+ va $(OH)^-$ ionlarga ajraladi. 1l, ya'ni 1000g suvning gramm molekulalari soni yoki boshqacha aytganda suvning konsentrasiyasi $[H_2O]=1000/18=55,56$ ga teng.

$$\text{Suv uchun, } K = \frac{[H^+] \cdot [OH^-]}{[H_2O]}, \quad 1.8 \cdot 10^{-16} = \frac{[H^+] \cdot [OH^-]}{55,56},$$

bundan $[H^+] \cdot [OH^-]=1.8 \cdot 10^{-16} \cdot 55,56=10^{-14}$. Vodorod ionlari konsentrasiyasini gidroksil ionlari konsentrasiyasiga ko'paytmasi 10^{-14} ga teng bo'lib, suvning ion ko'paytmasi deyiladi, ya'ni $[H^+] \cdot [OH^-]=10^{-14}$.

Suvni ionlanishida 1 ta $[H^+]$ va 1 ta $[OH^-]$ hosil bo'lishini nazarda tutsak, suvdagi $[H^+]$ va $[OH^-]$ konsentrasiyasi topiladi. $[H^+]=[OH^-]=10^{-7} \text{ g-ion/litr}$. Demak, neytral suvdagi $[H^+]=10^{-7} \text{ g-ion/litr}$, $[OH^-]=10^{-7} \text{ g-ion/litr}$ ga tengdir. Agar suvgaga kislota qo'shsak, unda $[H^+]>10^{-7}$, $[OH^-]<10^{-7}$ bo'ladi. Aksincha, ishqoriy qo'shsak, unda $[H^+]<10^{-7}$, $[OH^-]>10^{-7}$ bo'ladi. $[H^+]$ va $[OH^-]$ konsentrasiyalari qanday o'zgarmasining ularni ko'paytmasi 10^{-14} ga tengdir. Bundan ko'rindaniki kislotalik va ishqoriylik miqdorini $[H^+]$ va $[OH^-]$ ionlari konsentrasiyalari bilan ifodalash mumkin. Neytral eritma uchun $[H^+]=10^{-7}$; Kislotali eritma uchun $[H^+] > 10^{-7}$; Ishqoriy eritma uchun $[H^+] < 10^{-7}$ teng bo'ladi.

Manfiy daraja ko'rsatkichli sonlarni ifodalash noqulay bo'lganligi uchun $[H^+]$ ionini konsentrasiyasini vodorod ko'rsatkich orqali ifodalab pH simvoli bilan belgilash qabul kilingan. pH ko'rsatkich tushinchasi daniya kimyogari Serensenon 1909 yili kiritgan. p - matematik daraja ma'nosini; N - harfi vodorodni simvolini bildiradi. Vodorod ionlari konsentrasiyasini manfiy ishora bilan olingan o'nlik logarifmiga vodorod ko'rsatkich deyiladi yoki pH deb ataladi.

$$pH=-\lg[H^+] \text{ yoki } [H^+]=10^{-pH}.$$

Gidroksid ko'rsatkich- pOH deb $[OH^-]$ ionlari konsentrasiyasining manfiy ishora bilan olingan o'nlik logarifmiga aytildi, ya'ni $pOH=\lg[OH^-]$ yoki $[OH^-]=10^{-pOH}$.

Vodorod ko'rsatkich va gidroksil ko'rsatkichdan quyidagi ifoda hosil bo'ladi. $pH+pOH=14$. Eritmalarning muhiti pH yordamida quyidagicha belgilanadi. $pH=1-3$ - kuchli kislotali muhit, $pH=4-6$ - kuchsiz kislotali muhit, $pH=7$ neytral muhit, $pH=8-10$ - kuchsiz ishqoriy muhit, $pH=11-14$ - kuchli ishqoriy muhitlarni ko'rsatadi.


2. Vodorod ko'rsatkichni qishloq xo'jaliligidagi ahamiyati. Eng ko'p ma'lum bo'lgan ba'zi eritmalarning muhiti, ya'ni pH qiymatlari quyidagicha:

- <i>oshqozon shirasi</i>	- 1.7;
- <i>so'lak</i>	- 6.9;
- <i>ko'z yoshi</i>	- 7.0;
- <i>qon</i>	- 7.4;
- <i>yomg'ir suvi</i>	- 6.0;
- <i>vodoprovod suvi</i>	- 7.5 ga tengligi tajribada aniqlangan.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yaxshi rivojlanishi va yuqori hosil olish uchun ham tuproq eritmasi muayyan muhitli bo'lishi zarur. Tuproq eritmasining pH qiymatiga qarab tuproqlar - kuchli kislotali ($pH=3-4$), kislotali ($pH=5$), kuchsiz kislotali ($pH=5-6$), neytral ($pH=7$), kuchsiz ishqoriy ($pH=7-8$), ishqoriy ($pH=8-9$) hamda kuchli ishqoriy ($pH=9-11$) bo'ladi. Ko'pincha o'simliklar kuchli kislotali tuproqlarda yaxshi o'sa olmaydi. Kislotalikni kamaytirish uchun tuproqlarga $CaCO_3$ yoki $MgCO_3$ solinadi, ya'ni tuproqlar ohaklanadi.

Agar tuproqlar kuchli ishqoriy (sho'rxok va sho'rtob tuproqlar) bo'lsa, u holda ishqoriylikni kamaytirish uchun tuproq gipslanadi, unga maydalangan $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ (gips) qo'shiladi.

3. Tuzlarning gidrolizi. Ko'pchilik tuzlar suvli eritmalarida suvning $[H^+]$ va $[OH^-]$ ionlari bilan o'zaro ta'sirlashib eritmani pH ni o'zgartiradi. Natijada kam dissovylanadigan birikmalar hosil bo'ladi. Bu jarayonga tuzlarning gidrolizi deyiladi. Gidroliz tufayli suvning dissosilanish muvozanati:






1. Agar $[H^+]$ ionlari tuz ionlari bilan biriksa, eritmada ortiqcha $[OH^-]$ ionlari hosil bo'ladi va muhit ishqoriy bo'lib qoladi, $[pN > 7]$.


2. Agar tuz ionlari $[OH^-]$ ionlarini biriktirib olsa, eritmada $[H^+]$ ionlari ortib qoladi va muhit kislotali bo'ladi, $[pN < 7]$.

Tuzlarning gidrolizi uch tipdan iborat: 1. Kation bo'yicha gidroliz. 2. Anion bo'yicha gidroliz. 3. Ham kation, ham anion bo'yicha gidroliz.


3.1. Kation bo'yicha gidrolizlanish. Kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlar. ($NH_4Cl, CuSO_4, ZnCl_2$) kation bo'yicha gidrolizlanadi va eritmani muhiti kislotali bo'lib, ($pH < 7$) bo'ladi:



Aniqrog'i $CuCl_2$ ni gidrolizi ikki bosqichda boradi,



3.2. Anion bo'yicha gidrolizlanish. Kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzlar ($Na_2CO_3, K_2CO_3, CH_3COONa$) anion bo'yicha gidrolizlanadi. va eritmaning muhitni ishqoriy bo'lib, $pH>7$ bo'ladi.



3.3. Ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizlanish. Kuchsiz asos va kuchsiz kislotalardan hosil bo'lgan tuzlar. Masalan, $(NH_4)_2CO_3, CH_3COONH_4, (NH_4)_2S$ ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizlanadi va tuz tarkibidagi kationlar bilan OH^- ionlari birikib, kam dissovylanishlanadigan kislota va asos hosil qildi. Hosil bo'lgan kislota va asosning kuchiga qarab eritmaning muhitni kuchsiz kislotali yoki kuchsiz ishqoriy bo'ladi:



bunda $K_{NH_4OH} = 1,79 \cdot 10^{-5}$, $K_{HCN} = 7,9 \cdot 10^{-10}$ bo'lgani uchun eritma kuchsiz ishqoriy muhitni namoyon qildi. Gidroliz jarayoni qaytar jarayon bo'lgani uchun, unga massalar ta'siri qonuni tadbiq etish mumkin. Masalan, KCN tuzi anion bo'yicha gidrolizlanadi:

$$KCN + H_2O \Leftrightarrow HCN + KOH \quad CN^- + H_2O \Leftrightarrow HCN + OH^- \quad K = \frac{[HCN] \cdot [OH^-]}{[CN^-] \cdot [H_2O]} \quad (1)$$

Suyultirilgan eritmalarida suvning konsentrasiysi doimiy qiymatga ega bo'ladi, u holda $K_{[H_2O]} = K_e$ ga teng bo'ladi.

$$K_e = \frac{[HCN] \cdot [OH^-]}{[CN^-]} \quad (2)$$

K_e - gidrolizlanish konstantasi.

(2) formulani surat va maxrajini $[H^+]$ siga ko'paytirsak, suratda suvni ion ko'paytmasi, $K_e = \frac{[HCN] \cdot [OH^-] \cdot [H^+]}{[CN^-] \cdot [H^+]}$ (3) bundan,

$$K_C = [OH^-] \cdot [H^+] \text{ kelib chiqadi. } K_C - \text{suvni ion ko'paytmasi.}$$

Uchta konsentrasiyani qiymatini nisbati kuchsiz kislota (HCN) dissosilanish konstantasini teskari qiymatiga teng bo'ladi, ya'ni:

$$\frac{1}{K_{HCN}} = \frac{[HCN]}{[CN^-] \cdot [H^+]} \quad (4)$$

SHunday qilib, suvning ion ko'paytmasini kuchsiz kislotani dissosilanish konstantasiga nisbati, gidrolizlanish konstantasini ifodasini keltirib chiqaradi: $K_e = \frac{K_C}{K_{HCN}}$ (5)

umumiy xolda,

$$K_e = \frac{K_C}{K_K} \quad (6)$$

$$K_e = \frac{K_C}{K_a} \quad (7)$$

K_K - kuchsiz kislotani dissosilanish konstantasi.

K_a - kuchsiz asosni dissolanish konstantasi.

Ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizlanadigan tuzlar uchun:

$$K_e = \frac{K_C}{K_K \cdot K_a} \quad (8)$$

6, 7, 8 formulalardan ko'rindiki, gidroliz natijasida qanchalik kuchsiz elektrolit hosil bo'lsa, shunchalik gidroliz reaksiyasi to'liq boradi. Gidrolizga uchrangan tuzni konsentrasiyasini (S_{tuz} , g), tuzni umumiy konsentrasiyasiga (S_{tuz}) nisbati (9) gidrolizlanish darajasi (h) deyiladi:

$$h = \frac{C_{my3},^2}{C_{my3}} \quad (9)$$

Gidrolizlanish darajasi foizlarda ifodalansa (9) quyidagi ko'rinish oladi: $h = \frac{C_{my3},^2}{C_{my3}} \cdot 100\%$ (10)

Gidrolizlanish darajasi kation va anion bo'yicha gidrolizlanadigan tuzlarda harorat ortishi bilan ortadi, konsentrasiya ortishi bilan esa kamayadi. Lekin ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizlanadigan tuzlarning gidrolizlanish darajasi konsentrasiyaga bog'liq emas.

Kation, anion va ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizlanadigan tuzlarning gidrolizlanish darajasi va gidrolizlanish konstantasi orasidagi bog'lanishlar quyidagi formulalar orqali hisoblanadi:

$$\text{Kation bo'yicha, } h = \sqrt{\frac{K_C}{K_K \cdot C_{my3}}} \quad (11)$$

$$\text{Anion bo'yicha, } h = \sqrt{\frac{K_C}{K_a \cdot C_{ty3}}} \quad (12)$$

$$\text{Ham kation, ham anion bo'yicha, } h = \sqrt{\frac{K_C}{K_K \cdot K_a}} \quad (13)$$

Gidrolizga uchragan o'rta tuzlar eritmalarining pH gidroliz darajasi bilan aniqlanadi, o'z navbatida gidroliz darajasi esa gidroliz konstantasini qiymatiga bog'liq bo'ladi. Buni KCN tuzini gidrolizida ko'rib chiqamiz.

$$K_c = \frac{[HCN] \cdot [OH^-]}{[CN^-]} \quad (2)$$

Kaliy sianid, ya'ni aninon bo'yicha gidrolizlanadigan tuzlarda ekvivalent miqdorda HCN va OH^- ionlari hosil bo'ladi, CN^- ionlari konsentrasiysi KCN ni dastlabki konsentrasiyasiga (C_{my_3}) ga teng bo'ladi, chunki KCN to'liq ionlarga parchalanadi. Demak, $[HCN] \rightarrow [OH^-]$ ga, $[CN^-] \rightarrow C_{tuz}$ ga almashtirilsa, (2) formula quyidagi ko'rinishni oladi,

$$K_c = \frac{[OH^-]^2}{C_{my_3}} \quad (14), \quad \text{bundan,} \quad [OH^-] = \sqrt{K_c \cdot C_{my_3}} \quad (15)$$

$$(15) \text{ ga (6) ning qiymatini qo'ysak, } pOH = -\log \sqrt{\frac{K_c \cdot C_{my_3}}{K_K}} \quad (16)$$

(16) manfiy ishora bilan logarifmlansa,

$$-\log OH^- = \frac{1}{2} \log K_c - \frac{1}{2} \log C_{my_3} + \frac{1}{2} \log K_K \quad (17)$$

$$pOH = 7 - \frac{1}{2} \log C_{my_3} + \frac{1}{2} \log K_K \quad (18)$$

(18) da $pK_K = -\log K_K$ tengligi hisobga olingan. pK_K - kislota kuchini ifodalaydi. $pH = 14 - pOH$ hisobga olinsa, (18) quyidagi ko'rinishni oladi:

$$pH = 7 + \frac{1}{2} \log C_{ty_3} + \frac{1}{2} pK_K \quad (19)$$

Kation bo'yicha gidrolizlanadigan tuzlarda pH quyidagicha hisoblab topiladi:

$$K_c = \frac{[H^+]}{C_{my_3}} \quad (20), \quad \text{bundan} \quad [H^+] = \sqrt{K_c \cdot C_{my_3}} \quad (21)$$

$$(21) \text{ ga (7) ni qo'ysak, } pH = 7 - \log \sqrt{\frac{K_c \cdot C_{ty_3}}{K_a}} \quad (22)$$

$$(22) \text{ ni logarifmlansak: } pH = 7 - \frac{1}{2} pK_a - \frac{1}{2} \log C_{my_3} \quad (23)$$

(24) da $pK_a = -\log K_a$, pK_a - asos kuchini ifodalaydi.

Ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizlanadigan tuzlarda pH quyidagicha hisoblanadi:

$$pH = 7 + \frac{1}{2} pK_K - \frac{1}{2} pK_o \quad (24)$$

pK_K va pK_o - kislota va asos kuchini ifodalaydi.

3.4. Gidrolizning ahamiyati. Gidroliz reaksiyasi tabiatda keng tarqalgan. Oziq moddalardagi oqsil va uglevodlarni organizm gidroliz tufayli o'zlashtiradi. Yog'ochni va qishloq xo'jaligi chiqindilarini gidrolizlab etil spirti,

glyukoza va boshqa moddalar olinmoqda. Yog'larning gidrolizi orqali sovun va glerin olinmoqda. Gidroliz tufayli ichimlik suvlari tozalanmoqda.

Savollar:

1. Bufer eritmalar.
2. Gidroliz reaksiya tenglamalarini tuzilishi.
3. Gidroliz reaksiyasini termodinamikasi.


8-Mavzu: KOMPLEKS BIRIKMALAR

Reja:

- 1.Kompleks birikmalarni aniqlash.
- 2.Vernerning koordinasion nazariyasini.
- 3.Kompleks birikmalarning sinflarga bo'linishi.
- 4.Kompleks birikmalardagi kimyoviy bog'lanish.
- 5.Kompleks birikmalarning nomlanishi.
- 6.Kompleks birikmalarning disosilanishi.
- 7.Kompleks birikmalarning ahamiyatini.

Adabiyotlar: 5, 6, 8, 9, 10.

1. Kompleks birikmalarni aniqlash. Kimyoviy birikmalarni birinchi va yuqori tartibli birikmalar turkumiga bo'lish mumkin. Asoslar, kislotalar, tuzlar kabi ionli va kovalent bog'lanishli birikmalar, birinchi tartibli birikmalar jumlasiga kiradi. $KAl(SO_4)_2$, $CuSO_4 \cdot 5H_2O$, $K_3[Fe(CN)_6]$, $K_2[HgJ_4]^-$ singari oddiy turdag'i neytral birikmalarning o'zaro birikishidan hosil bo'lgan yuqori tartibli birikmalar jumlasiga kiradi. Bulardan ba'zi birlari suqli eritmalarida oddiy ionlarga parchalanadi. Misol uchun, $KAl(SO_4)_2 \Leftrightarrow K^+ + Al^{3+} + 2SO_4^{2-}$ boshqalari esa, oddiy ionlardan hosil bo'lgan murakkab ionlarga ya'ni kompleks ionlarga disosilanadi. Misol uchun, $K_3[Fe(CN)_6] \Leftrightarrow 3K^+ + [Fe(CN)_6]^{3-}$. Molekulasi tarkibida kompleks ionlari bo'lgan yuqori tartibli birikmalar kompleks birikmalar deyiladi. Kompleks birikmalarning hosil bo'lishini dastlab shved olimi Alfred Verner asosiy va qo'shimcha valentliklar orqali tushuntirib berdi. $K_2[HgJ_4]^-$ birikmasida simob ionlari asosiy valentlik hisobiga ikkita yodid ionlarini biriktirib oladi (to'g'ri chiziq orqali ifoda etilgan), qo'shimcha valentlik hisobiga esa, yana ikkita yodid ionlarini biriktirib olib (punktir chiziqlar orqali ifoda etilgan) $K_2[HgJ_4]^-$ birikmasini hosil qildi, ya'ni




Simob ionlari, to'rtta yodid ionlari bilan kompleks birikmani ichki sferasini, ikkita kaliy ionlari esa, tashqi sferani tashkil etadi. Vernerni bu nazariyasiga muvofik asosiy va qo'shimcha valentliklari farqlari tushintirishda qiyinchiliklar bo'lgani uchun, 1893 yili o'zini koordinasion nazariyasini yaratdi.

2. Vernerning kordinasion nazariyasi. Kompleks birikmalarini xossalari va tuzilishini 1893 yil Verner tomonidan yaratilgan koordinasion nazariya tushintirib beradi. Bu nazariyaning mohiyati quyidagi lardan iborat:

- Kompleks birikmalarining molekulasi da musbat zaryadlangan ion markaziy o'rinda turadi va kompleks hosil qiluvchi deb ataladi.
- Kompleks hosil qiluvchi ion atrofida qarama-qarshi zaryadlangan ionlar yoki elektroneytal molekulalar, ya'ni ligandlar joylashadi, boshqacha aytganda koordinatlanadi.
- Kompleks hosil qiluvchi ion va ligandlar kompleks birikmaning ichki sferasini tashkil etadi.
- Ichki sferaga sigmay kolgan ionlar markaziy iondan ancha uzoqlikda turib, kompleks birikmaning tashqi sferasini tashkil etadi.

Kompleks hosil qiluvchi ion bilan birikkan ligandlar soniga kompleks birikmaning koordinasion soni deyiladi.

Misol uchun:



Kompleks hosil qiluvchi elementlarning koordinasion soni (KS) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 12 bo'lishi mumkin. Misol uchun:

Ag^+ , Cu^+ , Au^+	учун	$KC = 2$
Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} , Au^{3+} , Pt^{2+}	учун	$KC = 4$
Co^{2+} , Fe^{2+} , Fe^{3+} , Cr^{3+} , Al^{3+} , Pt^{4+}	учун	$KC = 6$

2. Kompleks birikmalarining sinflarga bo'linishi. Kompleks birikmalar kompleks birikma tarkibidagi ligandlarning xiliga ko'ra: a) Ammiakatlar; b) Aminatlar; c) Akvokomplekslar; d) Asidokomplekslar; e) Poligalogenidlar kabi sinflarga bo'linadi.

- a) Ligandlar ammiak molekulalaridan iborat kompleks birikmalarga ammiakatlar deyiladi.
Masalan: $[Cu(NH_3)_4]SO_4$, $[Ag(NH_3)_2]Cl$.
- b) Ligandlari har xil organik amin molekulalaridan iborat kompleks birikmalarga aminatlar deb ataladi.
Masalan: $[Pt(En)_2]Cl$, $[Co(En)_3](OH)_3$, $En = NH_2 - CH_2 - CH_2 - CH_2 - NH_2$.
- c) Ligandlar suv molekulalaridan iborat kompleks birikmalarga akvakomplekslar deb ataladi.
Masalan: $[Al(H_2O)_6]Cl_3$, $[Co(H_2O)_6]Cl_2$.
- d) Ligandlari kislota qoldig'idan iborat kompleks birikmalarga asidokomplekslar deb ataladi.
Masalan: $K_4[Fe(CN)_6]$, $K_2[PtCl_6]$.
- e) Markaziy ioni va ligandlari galogenlardan tashkil topgan kompleks birikmalarga poligalogenidlar deb ataladi. Masalan: $Me[J(J_2)]$, $Me[J(J_2)_4]$.


3. Kompleks birikmalardagi kimyoviy bog'lanish. Kompleksning ichki va tashqi sferalarida joylashgan ionlar orasida ionli bog'lanish mavjud. Kompleks ion ichidagi bog'lanish markaziy ionning ligandlar bilan birikishi donor-akseptor bog'lanish hisobiga sodir bo'ladi, ya'ni ligand tarkibidagi bitta

atomning bog'lanishlar hosil bo'lishida ishtirok etmagan elektron jufti, tugallanmagan elektron qavatga ega bo'lgan markaziy ionlar o'zining tashqi energetik pog'onalarini to'ldirishga harakat qiladi. Bunda elektron juftini beradigan ion yoki molekula donor, o'z elektron qavatini to'ldiradigan metall esa, akseptor deyiladi.

Kompleks birikmalarda kompleks ionning zaryadi markaziy atomni oksidlanish darajasi bilan ligandlar zaryadlarining algebrlik yig'indisiga teng bo'ladi. Masalan: $[Pt(NH_3)_4Cl_2]$ kompleks ionda Rt ning oksidlanish darajasi 4 ga, ligand-ammiak molekulasining zaryadi nolga, 2 ta Cl ionning zaryadi -2 bo'lgani uchun, kompleks ionning zaryadi $4+(-2)=+2$ dir. Demak $[Pt(NH_3)_4Cl_2]$ da kompleks ionning +2 ga teng bo'lgani uchun tashqi sferasiga 2 Cl biriktira oladi. U holda $[Pt(NH_3)_4Cl_2]Cl_2$ bo'ladi.

Bu qoidaga asosan markaziy atomning oksidlanish darajasini ham aniqlash mumkin. Masalan: $Na_3[Co(NO_2)_6]$ da kompleks ion $[Co(NO_2)_6]^{3-}$ ning zaryadi -3 ga teng. Agar kobaltning oksidlanish darajasini X bilan belgilasak, $X+(-6)=-3$, bundan, $X=+3$. Demak, kobaltning oksidlanish darajasi +3 ga teng ekan.

5. Kompleks birikmalarning nomlanishi. Kompleks birikmalar kompleks hosil qiluvchi ionning tabiatiga ko'ra, kation, anion, neytral kompleks birikmalarga bo'linadi. Kompleks birikmalarda markaziy atomning musbat zaryadi ligandlar zaryadlarining yig'indisidan katta bo'lsa kation kompleks, aksincha, kichik bo'lsa, anion kompleks, nixoyat markaziy atomning zaryadi bilan ligandlar zaryadining yig'indisi orasidagi ayirma nolga teng bo'lsa, neytral kompleks deb ataladi.



birikmalarga kiradi.

Kation kompleks birikmalarni nomlashda, avvalo, neytral molekula holidagi ligandlarning nomi aytildi. Bunda ammiak bo'lsa «amin», suv bo'lsa «akva» deb o'qiladi. So'ngra ion holidagi ligandlarning nomiga «O» qo'shimchasi qo'shib aytildi, masalan xloro- Cl^- , nitro- NO_2^- , siano- CN^- , rodano- SCN^- , gidrokso- OH^- va xokazo.

Agar ligandning soni birdan ortiq bo'lsa, ular yunoncha sanaladi, masalan, 2-di-, 3-tri-, 5-penta va hokazo. Undan keyin markaziy atomning nomi aytildi, bunda oksidlanish darajasi rim raqami bilan qavs ichida ko'rsatiladi. Eng keyin tashqi sferadagi manfiy zaryadli ionlarning nomi aytildi.

$[Ag(NH_3)_2]Cl$ - diamino-kumush (I) - xlorid.

$[Co(NH_3)_5Br]SO_4$ - pentaminbromo-kobalt (II)-sulfat.



Anion kompleks birikmalarni nomlashda, avvalo, neytral molekula holidagi ligandlarning nomi, so'ngra ion holidagi ligandlarning nomi, undan

keyin markaziy atomning lotincha nomiga «at» qo'shimchasi qo'shib aytildi, bunda oksidlanish darajasi rim raqami bilan qavs ichida ko'rsatiladi. Nixoyat, tashqi sferadagi musbat zaryadli ionlarning nomi aytildi.

$K_3[Fe(CN)_6] \cdot$ - geksamino - ferrat (III) - kaly.

Neytral kompleks birikmalarini nomlashda avvalo ligandlarning nomi yuqoridagi tartibda aytildi, so'ngra markaziy atomning ruscha nomi aytildi. Bunda oksidlanish darajasi nolga teng bo'lgani uchun qavs ichida ko'rsatilmaydi. $[PtCl_4(NH_3)_2] \cdot$ -diamintetra xloro-platina, $[Co(NO_2)_3(NH_3)_3] \cdot$ - triamintrinitro – kobalt.

6. Kompleks birikmalarining dissosilanishi. Kompleks birikmalar suvdagi eritmalarida ikki bosqichda ionlarga dissosilanishi mumkin, masalan:





Birinchi bosqich to'liq boradi, ikkinchi bosqich esa, juda oz darajada boradi, bunda muvozanat chapga siljigan bo'ladi. Ikkinci bosqichga massalar ta'siri qonuni tadbik etilsa,

$$K\delta = \frac{[Ag^+][CN^-]^2}{[Ag(CN)_2]^+}$$

Bunda dissosilanish konstantasi kompleks ionning beqarorlik konstantasi deyiladi va uni K_b bilan belgilanadi.


7. Kompleks birikmalarining ahamiyati. Kompleks birikmalar kimyo sanoatida katta ahamiyatga ega. Ular Au , Pt , Ag , Ni , Co va boshqa metallarni toza holida ajratib olishda ishlataladi. Misol uchun:

Ruda tarkibidagi oltinni turli qo'shimchaldandan ajratib olishda, ya'ni oltinli qum $NaCN$ yoki KCN eritmasi bilan O_2 ishtirokida ishlansa, oltin-kompleks birikma disiano aurit (I)- kaly tarkibiga o'tadi. Bu kompleks birikmadan oltin rux metali yordamida qaytarilib olinadi, ya'ni



Tirik organizmda kompleks birikmalar modda almashinuvida va nafas olish jarayonida alohida axamiyatga ega. Tabiiy kompleks birikmalar, ya'ni gemoglobin va xlorofil tarkibida Fe^{2+} , Mg^{2+} ionlar kompleks hosil qiluvchi ion sifatida ishtirok etadi. Magniyni murakkab kompleks birikmasi xlorofil tufayli o'simliklarning barglari yashil rangda bo'ladi.

O'simliklar quyosh nuri tufayli havodagi karbonat angidridni va suvni o'zlashtirib uglevodlarni va O_2 hosil qiladi. Bu jarayon o'simliklar yashil barglaridagi murakkab kompleks birikma- xlorofil tufayli amalgal oshadi va jarayonni fotosintez deyiladi:



xlorofil

Fotosintez reaksiyasi orqali er yuzida bir yilda 10^{12} kg kraxmal, sellyuloza va $1,1 \cdot 10^{12}$ kg kislorod atmosferaga tarqaladi.

Biologik katalizator- kompleks birikmalar, ya'ni fermentlar tarkibiga kompleks hosil qiluvchi Cu^{2+} , Co^{3+} , Zn^{2+} , Mo^{2+} , Mg^{2+} ionlari kiradi. Co^{3+} ni murakkab birikmalari organizmda oqsil almashinuvini faollashtirib, qon tarkibini tartibga solib turishda muhim rolni o'yynaydi.

Savollar:

1. Kompleks birikmalarni izomeriyasi.
2. Kompleks birikmalarni beqarorlik konstantasi.
3. Kompleks birikmalar ishtirokida boradigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.


9-Mavzu: OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIYALARI

Reja:

1. Kimyoviy reaksiyalarning turlari.
2. Oksidlanish darajasi.
3. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarning nazariyasi.
4. Oksidlovchii va qaytaruvchilar.
5. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarning borishiga muhitning ta'siri.
6. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarning turlari.
7. Elektron balans va ion-elektron usuli.
8. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarning tabiatdagi va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.


Adabiyotlar: 5, 6, 8, 12, 13.

1. Kimyoviy reaksiyalarning turlari. Barcha kimyoviy reaksiyalarni ikki turga bo'lish mumkin. Ularning birinchisiga reaksiyaga kirishayotgan moddalar tarkibidagi atomlarning oksidlanish darajasi o'zgarmaydigan reaksiyalar kiradi. Masalan:



Ko'rinish turibdiki, atomlardan har birining oksidlanish darajasi reaksiyadan oldin ham, keyin ham o'zgarmasdan qolgan.

Ikkinci turga reaksiyaga kirishayotgan moddalar atomlarining oksidlanish darajasi o'zgaradigan reaksiyalar kiradi. Masalan:




Reaksiyaga kirishayotgan moddalar tarkibidagi atomlarning oksidlanish darajasi o'zgarishi bilan boradigan reaksiyalarni oksidlanish-qaytarilish (o-k) reaksiyalarini deyiladi.

2. Oksidlanish darajasi. Oksidlanish darajasi element atomining shartli zaryadi bo'lib, u birikma faqat ionlardan tashkil topgan taxmin asosida hisoblab topiladi. Oksidlanish darajasi umumlashgan elektron juftining elektromanfiyligi

kattaroq element atomi tomon siljishi tufayli vujudga keladi. Elektron juftini o'zi tomon siljitan element atomi manfiy oksidlanish darajasiga, o'zidan elektron juftini berayotgan element atomi esa, musbat oksidlanish darajasiga ega bo'ladi. Oksidlanish darjasini musbat, manfiy va nol bo'lishi mumkin. Moddalardagi element atomlarining no'malum oksidlanish darjasini topish uchun quyidagi qoidalardan foydalaniladi:


1. Oddiy moddalarni tashkil etgan atomlarning oksidlanish darjasini nolga teng buladi. Masalan: $H_2^0, O_2^0, N_2^0, Cl_2^0, Na^0, Zn^0, Al^0, P^0, S^0$.
2. Metall birikmalarda -1, boshqa barcha birikmalarda vodorodning oksidlanish darjasini +1ga teng bo'ladi.
3. Ko'pchilik birikmalarda kislorodning oksidlanish darjasasi -2, bo'ladi, faqat F_2O da +2, peroksidlarda -1 bo'ladi.
4. Ishqoriy metallr barcha birikmalarda +1, ishqoriy-er metallar esa +2 oksidlanish darjalarini namoyon qiladilar.
5. Alyuminiy barcha birikmalarida +3 oksidlanish darjasining ega bo'ladi.
6. Birikmalarda metallarning oksidlanish darjasasi sonjihatdan ularning valentliklariga teng bo'lib, musbat ishorali bo'ladi.
7. Ftor o'zining barcha birikmalarida -1 oksidlanish darjasiga ega bo'ladi.
8. Molekula tarkibidagi atomlarning oksidlanish darjalarining algebaikiyig' indisi nolga, murakkab ionlarda esa ion zaryadiga teng bo'ladi.

SHu ma'lumotlar asosida murakkab moddalardagi o'zgaruvchan element atomining oksidlanish darjasini topish mumkin. Masalan: $K_2Cr_2O_7$ dagi xromni oksidlanish darjasini x bilan belgilab, kали (+1), kislород (-2) ning oksidlanish darjalarini ularning atomlari soninga ko'paytirib tenglama tuzamiz:




3. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining nazariyasasi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari nazariyasini, birinchi marta 1914 yilda S.V. Dain va L.V. Pisavrjevskiy yaratdilar. Ushbu nazariya quyidagilardan iborat:

- a. Atom, molakula yoki ionning elektron berish jarayoni oksidlanish deyiladi. Oksidlanishda element atomining oksidlanish darjasasi ortadi. Masalan:



- b. Elektronlarin iberadigan atom, molekula yoki ion qaytaruvchilar deyiladi. Reaksiya vaqtida ular oksidlanadi.

- c. Atom, molekula yoki ionning elektron biriktirib olish jarayoni qaytarilish deyiladi. Qaytarilishda element atomining oksidlanish darjasasi kamayadi:



- d. Elektronlarni biriktirib oladigan atom, molekula yoki ion oksidlovchilar deyiladi. Reaksiya vaqtida ular qaytariladi.

- e. Oksidlanish hamma vaqt qaytarilishi bilan sodir bo'ladi va aksincha. Qaytaruvchi bergen elektronlarning umumiyligi soni oksidlovchi qabul qilgan elektronlarning umumiyligi soniga teng bo'ladi.

- f. Eritmalarda oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari kislotali (H^+) neytral (H_2O) va ishqoriy (OH^-) muhitlarda borishi mumkin.


4. Oksidlovchi va qaytaruvchilar. Qaytaruvchi va oksidlovchilar oddiy va murakkab moddalar bo'lishi mumkin. Quydagilar qaytaruvchi bo'lishi mumkin:

- A) Inert gazlar va fildordan tashqari hamma elementlarning neytral atomlari qaytaruvchi bo'la oladi.
 B) Manfiy zaryadlangan ionlar ham qaytaruvchi bo'la oladi, chunki ular o'zlarining ortiqcha elektronlarini yo'qotishi mumkin
 V) YUqori musbat zaryadli ionga o'tishi mumkin bo'lgan musbat zaryadli metal va metalloid ionlari ham qaytaruvchi bo'la oladi. Masalan: Cu^+ , Fe^{2+} , Sn^{2+} , S^{2-} va boshqa ionlar qaytaruvchi bo'la oladi.

Quydagilar oksidlovchi bo'lishi mumkin:


- A) Elektron biriktirish qobiliyatiga ega bo'lgan neytral atomlar oksidlovchi bo'la oladi.
 B) Elektron biriktirish qobiliyatiga ega bo'lgan metal va metalloidlarning musbat zaryadli ionlari oksidlovchi bo'la oladi. Masalan: Na^+ , Ca^{2+} , Al^{3+} , Mn^{7+} va boshqa ionlar.

5. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining borishiga muhitning ta'siri. Eritmalarda oksidlanish-qaytarilish raeksiyalari kislotali, neytral va ishqoriy muhitda borishi mumkin. Eritmaning muhiti atomlar oksidlanish darajalarining o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi. Masalan permanganat (MnO_4^-) qaytarilish mahsulotlari muhitga qarab turlicha bo'lishi mumkin.




Kaliy permanganat va natriy sulfat orasidagi reaksiyalarni kislotali, ishqoriy va neytral muhitlarda borishini ko'rib chiqamiz.


A) Kislotali muhitda, odadta sulfat kislota ishlataladi:



b) Ishqoriy muhit hosil qilish uchun NaOH va KOH ishlataladi.



v) neytral muhitda suv ishlataladi:



6. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining turlari. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari uch turga: 1. Molekulalararo. 2. Ichki molekulyar va 3. Disproporsionalish reaksiyalariga bo'linadi.

Birinchi tur reaksiyalarda oksidlanish darajasi o'zgaradigan element atomlari turli molekulalar tartibiga kirgan bo'ladi. Masalan: $3N_2+N_2=2NN_3$; $4NN_3+5O_2=4NO+6N_2O$; $3Na_3AsO_3+K_2Sr_2O_7+4N_2SO_4=3Na_3AsO_4+Cr_2(SO_4)_3+4H_2O+K_2SO_4$.

Ikkinci tur reaksiyalarda oksidlanish darajasi o'zgaradigan turli element atomlari bir molekula tarkibiga kiradi. Masalan: $2KClO_3=2KCl+3O_2$ ($NH_4)_2Sr_2O_7=N_2+Cr_2O_3+4H_2O$

Uchinchi tur yoki o'z-o'zidan oksidlanish qaytarilish reaksiyalarda molekula tarkibidagi bir atomning oksidlanish darajasi ham ortib, ham kamayadi. Masalan: $3K_2MnO_4+2N_2O=2KMnO_4+MnO_2+4KON$; $2KSlO_3=2KSl+KSlO_3$; $2KON+Sl_2=KSl+KOSl+N_2O$.

7. Elektron balans va ion elektron usul. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tenglashtirishning ikki xil usuli bor, elektron balans va ion-elektron usuli.

A) Elektron balans usuli. Bu usulning mohiyati asosida, qaytaruvchi yo'qotgan elektronlarning umumiy soni oksidlovchi biriktirib olgan umumiy elektronlar soniga teng bo'ladi. Bunda:

- Kimyoiy reaksiya tenglamasi to'g'ri yozib olinadi.
 $KMnO_4+Na_2SO_3+H_2SO_4=MnSO_4+Na_2SO_4+K_2SO_4+H_2O$
- Elementlarni o'zgargan oksidlanish darajalari aniqlanadi.

$$\begin{array}{ccccccc} +7 & +4 & & +2 & +6 & & \\ KMnO_4+Na_2SO_3+H_2SO_4 & = & MnSO_4+Na_2SO_4+K_2SO_4+H_2O & & & & \end{array}$$
- Oksidlanish darajasi o'zgargan elementlardan elektron balans tenglamasi tuziladi. $Mn^{+7} + 5e \rightarrow Mn^{2+}$ /5/ |2/ |
 $S^{+4} - 2e \rightarrow S^{+6}$ |2/ |5/
- Topilgan koeffisientlar reaksiyaning o'ng tomonida hosil bo'lgan mahsulotlar oldiga qo'yiladi, so'ng chap tomonida reaksiya uchun olingan moddalar oldiga qo'yib tenglashtiriladi: $2KMnO_4+5Na_2SO_3+N_2SO_4=2MnSO_4+5Na_2SO_4+K_2SO_4+H_2O$
- Reaksiyaning o'ng tomonidagi kislota qoldiglari soni hisoblanib, chap tomoni bilan tenglashtiriladi: $2KMnO_4+5Na_2SO_3+3N_2SO_4=2MnSO_4+5Na_2SO_4+K_2SO_4+N_2O$.
- Reaksiya oxirida oldin vodorod keyin esa, kislorod atomlari soni tenglashtiriladi: $2KMnO_4+5Na_2SO_3+3N_2SO_4=2MnSO_4+5Na_2SO_4+K_2SO_4+3N_2O$


B) Ion-elektron yoki yarim reaksiya usuli. Bu usulda oksidlovchi, qaytaruvchi va ularning reaksiya mahsulotlari ion holida yozilib, keyin yarim reaksiyalar tenglamalari tuziladi. Bunda reaksiya muhitimi hisobga olib qaytarilish jarayoni (1 va 2-qoida) uchun va oksidlanish jarayoni (3 va 4-qoida) uchun qo'llaniladigan qoidalardan foydalaniлади.

1-qoida. Oksidlovchi tarkibidagi ortiqcha (O) kislotali muhitda vodorod ionlari bilan birikib suv hosil qilib qaytariladi: $[O]+2N^+ + 2e \rightarrow N_2O$ $MnO_4^- + 8N^+ + 5e \rightarrow Mn^{2+} + 4H_2O$.


2-qoida. Oksidlovchi tarkibidagi ortiqcha kislorod neytral va ishqoriy muhitda suv molekulasi bilan birikib gidroksid ionini hosil qilib qaytariladi. $[O]+2N^+ + 2e^- \rightarrow N_2O$ $MnO_4^- + 2H_2O + 3e^- \rightarrow MnO_2 + 4(OH)^-$

3-qoida. Qaytaruvchi kislotali va neytral muhitda etishmagan kislorodni suvdan olib oksidlanadi va vodorod ionini hosil qiladi. $N_2O - 2e^- \rightarrow [O] + 2H^+$ $SO_3^{2-} + H_2O$

4-qoida. Qaytaruvchi kuchli ishqoriy muhitda etishmagan kislorodni gidroksid ionida olib oksidlanadi va suv molekulasini hosil qiladi. $2(ON)^- - 2e^- \rightarrow$



$KMnO_4+Na_2SO_3+H_2SO_4=MnSO_4+Na_2SO_4+K_2SO_4+H_2O$ reaksiyasi uchun ion-elektron usuli qo'llanilganda:



8. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining tabiatdagi va qishloq ho'jalagidagi ahamiyati. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tabiatda keng tarqalgan bo'lib, kimyo sanoatida, xalq xo'jaligi tarmoqlarida va qishloq xo'jaligida keng qo'llanilmoqda. Biologik va yashash jarayonida muhim bo'lgan nafas olish, emirilish va fotosintez ko'p bosqichli katalitik reaksiyalardir.

Fotosintez- fotokimyoviy qaytarilish jarayonidir. Bu oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari asosida uglevodlar, lipedlar (yog'lar), proteinlar (oqsil) va nuklein kislotalar hosil bo'ladi.

Biosferani tarkibiy qismi tuproq hisoblanadi. Ko'p miqdordagi oksidlovchi va qaytaruvchi moddalar tuproqni tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Masalan: ikki va uch valentli temir birikmalari hamda ikki, uch, to'rt valentli marganes birikmalari va boshqalar.

Tuproqni oksidlanish-qaytarilish potensiali optimal holatda bo'lsa, o'simliklar normal rivojlanadi. Hozirgi vaqtida tuproqni oksidlanish qaytarilish potensialini boshqarish, ya'ni normal darajaga olib kelish, qishloq xo'jaligi xodimlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda.

Savollar:

1. Murakkab oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.
2. Oksidlovchi va qaytaruvchilarni ekvivalentini aniqlash.
3. Oksidlanish qaytarilish potensiallari.
4. Quyida keltirilgan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga koefisientlar tanlang:
 $Cl_2 + NaOH \rightarrow NaClO_3 + NaCl + H_2O$
 $Zn + HNO_3 \rightarrow Zn(NO_3)_2 + NH_4NO_3 + H_2O$

10-Mavzu: S-ELEMENTLAR

Reja:

1. S- elementlarga umumiyl tavsifnoma.
2. Vodorodni tabiatda tarqalishi, olinishi va kimyoviy xossalari.
3. Natriy va kaliyning tabiatda tarqalishi, olinishi va kimyoviy xossalari.
4. Kalsiyning tabiatda tarqalishi, olinishi va kimyoviy xossalari.
5. S - elementlarning biologik ahamiyati.

Adabiyotlar: 3-9.

1. S- elementlarga umumiyl tavsifnoma. Davriy sistemada vodorod va geliy bilan hisoblanganda 14 ta S-elementlar bo'lib, bularning tashqi energetik pog'onachalarida, ns^1 (I-A gruppacha elementlarida) va ns^2 (II-A gruppacha elementlarida) elektronlar bo'ladi. S-elementlar erkin holatda yuqori kimyoviy aktivilikni nomoyon qiladigan tipik metallardir. Ular kimyoviy reaksiyalarda tashqi energetik pog'onachadagi elektronlarni berib qaytaruvchi vazifasini o'tab +1 va +2 oksidlanish darajalarini nomoyon qiladilar. S-elementlarning tartib

raqami ortib borishi natijasida ularning atom radiuslari kattalashadi, ionlanish energiyasi esa, kamayadi, qaytaruvchilik xossasi yuqorida pastga tomon ortib boradi.

2. Vodorodni tabiatda tarqalishi, olinishi va kimyoviy xossalari.




Vodorod erda va atmosferada ko'p tarqalgan element. U er po'stlog'i massasini 1% ni tashkil etadi. Vodorod tabiatda erkin va birikmalar holida uchraydi. U engil gaz bo'lgani uchun havoning yuqori qatlamlarida, vulqon gazlarda, neft olish jarayonida boshqa gazlar bilan birgalikda uchraydi. Quyosh va yulduzlar massasining yarmini erkin holdagi vodorod tashkil etadi.

Vodorod suv, turli minerallar, neft, tabiiy gaz, hayvon va o'simliklar organizmidagi modda tarkibida birikmalar holida uchraydi. Vodorod rangsiz, hidsiz, mazasiz gaz, havodan 14.5 marta engil, $t_c = -252,2^\circ C$, $t_k = -252,8^\circ C$. Tabiatda vodorod ikki xil izotop: protiy- ${}_1^1 H$ (99,85%) va deyteriy ${}_2^3 H$ -(0,015%) holida uchraydi. SHuning uchun oddiy suvda ozgina deyteriy bo'ladi (1 t. suvda 40 g. deyteriy). Vodorodning uchinchi radioktiv izotopi tritiy ${}_1^3 H$ deyteriydan yadro reaksiyasi orqali olinadi. Amaliy jihatdan olganda vodorodni uchala izotopi ham bir xil kimyoviy xossalarni namoyon qiladi.

1766 yilda Kavendish vodorodning xossalarni o'rgangan, 1783 yili Lavuaze suvdan vodorodni olib, suvni kislород va vodoroddan tarkib topganligini amaliy jihatdan isbotladi.


Vodorod quyidagi usullarda olinadi:

A) **Elektroliz usuli.** Tuzlarni suvli eritmalarini elektroliz qilib olinadi. Osh tuzini suvli eritmasini elektroliz sxemasi quyidagicha:




Demak, vodorod katodda ajralib chiqadi.


B) $1000^\circ C$ haroratda cho'g'langan ko'mir ustidan suv pari o'tkazilsa $H_2O + C \rightleftharpoons H_2 + CO$, dastlab gazlar aralashmasi, $H_2, H_2O + CO$, ya'ni suv gazi olinadi. Bu gazlar $450^\circ C$ haroratda Fe_2O_3 katalizatoridan o'tkazilsa CO suv bilan reaksiyaga kirishib, yana vodorod hosil qiladi. Bu usul konversiya us uli deyiladi.



V) **Metanni suv bug'i bilan konversiyasi.** $900^\circ C$ harotatda nikel katalizatori ustidan metan va suv bug'i o'tkazilsa vodorod hosil bo'ladi:



G) **Metanni katalitik oksidlash orqali:**




D) *Metanni termik parchalash orqali:*




E) Suvni elektrolizi orqali: $2H_2O \xrightarrow{\text{электролиз}} 2H_2 \uparrow + O_2$



J) Laboratoriya sharoitida aktiv metallarga suv yoki suyultirilgan kislotalar ta'sir ettirish orqali;




K) *Gidridlarni hidrolizi orqali:*



L) Ishqorlarga Zn va Al ta'sir ettirish orqali:



Âitäölä nïëééöëäñè o'zaðî iähéäi áig'ëäiäi éëéëëò äiäöölä àöñièäiäi eáïöäo, hädööläo iööëöë áëëäi àöñiëäö iöäñëääë äig'ëäiëö çäëëëäöäë äà äiäööläiäiëä öäiëëëäë iööäëë. Äitäölä iåöäëëäö äà iåöäëëýiñëäö äëëäi hïñëë qëëëäi äëëëëiäëäö -1 äà +1 iñëëäiäiëö ääðääæäëäöëië íííí i qëëëäë. länäëäi:



Metall gidridlari suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishib vodorod va tegishli hidroksidlarni hosil qiladi:



YUqori haroratda vodorod metal oksidlarini qaytaradidi.



3. Natriyni va kaliyni tabiatda targalishi, olinishi va kimyoviy xossalari.


Tabiatda natriy aktiv metall bo'lgani uchun erkin holda uchramaydi, faqat birikmalar holida uchraydi, u er pustlog'ining 2.5% ini tashkil etadi. Quyosh va yulduzlarda ham natriyni borligi aniqlangan. Natriy minerallari qatoriga $NaCl$ -tosh tuz, $Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$ -glauber tuzi, $NaSl \cdot KSl$ -silvinit va $NaNO_3$ - chili selitrasizi va boshqalar kiradi.

Respublikamizda 5 ta tosh tuz koni- Xo'jaikon, Tubakat, Borsa-kelmas, Boybachakon va Oqqal'a konlariда taxminan 90 milliard tonna xom-ashyo bor. Qo'ng'irotda kimyoviy usulda kalsiy va kaustik soda ishlab chiqaradigan zavod qurilmoqda.

Kaliy ham natriy singari faqat birikmalar holida uchraydi, u er pustlog'ining 2.85% ini tashkil etadi. Eng muhim birikmalari $NaSi \cdot KSi$ -silvinit, $KSi \cdot MgSi_2 \cdot 6H_2O$ - karnalit, $KSi \cdot MgSO_4 \cdot 3H_2O$ - kainit. Kaliy tuzlari tuproqqa yaxshi shimgani uchun daryo va dengiz suvlariga bora olmaydi (Kaliy tuzlari dengizda 0.038%, natriy tuzlari esa 3.5% gacha uchraydi).

O'zbekistonda juda katta kaliy tuz konlari mavjud bo'lib, bular Tubaket va Xo'jaikon konlaridir.

Natriy $NaSl$ yoki $NaON$ ni suyuqlanmasini elektroliz qilib olinadi. Elektroliz sxemasi quyidagicha:




Kaliy ham suyuqlantirilgan KCl va KOH ni elektroliz qilib olish mumkin. Lekin bu usulning texnikaviy qiyingchiliklari bor. Hozirgi vaqtida sanoatda kaliy quyidagicha reaksiyalar asosida olinadi:





Natriy va kaliy yumshoq, engil metall bo'lib, kuchli qaytaruvchilardir. Ular havoda tez oksidlanadi, suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi, ftor va xlor bilan uy haroratida alangalandi.

Natriy va kaliy brom, iod, oltingugurt, vodorod va boshqa moddalar bilan aktiv reaksiyaga kirishadi:





Na va K suyuq yoki ammiak parlari bilan qizdirilganda reaksiyaga kirishib metall amidlarini hosil qiladi:




Natriy va kaliy amidlar kristal moddalar bo'lib, juda oson gidrolizlanadi: $KNH_2 + H_2O = KOH + HN_3 \uparrow$

Na va K spirtlar bilan ham reaksiyaga kirishadi:




Metall oksidlari va peroksidlari suv bilan reaksiyaga kirishib, metall gidroksidlarini hosil qiladi:



Metall hidridlari suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishib vodorodni hosil qiladi:




Natriy peroksid suyultirilgan xlorid kislota va havodagi karbonit angidrid bilan reaksiyaga kirishadi:



Bu reaksiya asosan havoni regenerasiyalab kislorod ajratib chiqarish uchun ishlataladi.


Tekistik, farmasevtika vasovun ishlab chiqarish uchun ishlataladigan $NaON$ (kaustik soda) $NaSl$ ni suvdagi eritmasini elektroliz qilib yoki natriy karbonatga kalsiy gidroksid ta'sir ettirib olinadi:




4. Kalsiyini tabiatda tarqalishi, olinishi va kimyoiy xossalari. Kalsiy eng ko'p tarqalgan elemetlar qatoriga kiradi. Uning er po'stlog'idagi massasi 3.6% ni tashkil etadi. Tabiatdagi asosiy kalsiy tutgan minerallar: ohaktosh $SaSO_3$, dolomit $CaCO_3 \cdot MgCO_3$, gips $CaSO_4 \cdot 2H_2O$, fosforit $Sa_3(RO_4)_2$, appatit $ZCa_3(RO_4)_2 \cdot SaF_2$ yoki $3Sa_3(RO_4)_2 \cdot SaSl_2$. Kalsiy $SaSl_2$ va SaF_2 aralashmasini elektroliz qilib olinadi. SaF_2 , $SaSl_2$ ning suyuqlanish haroratini paysaytirish uchun ozgina miqdorda qo'shiladi.




Elektroliz sxemasi quyidagicha:




Kalsiy kumushsimon oq, qattiq engil metall zichligi $\rho=1,55 \text{ g/sm}^3$, suyuqlanish va qaynash harorati ishqoriy metallarnikidan yuqori. Kalsiy kimyoiy reaksiyalarda tashqi pog'onadagi 2ta s- elektronlarini berib +2 oksidlanish darajasini nomoyon qiladi. Odatdagি sharoitda kislorod, galogenlar bilan qizdirilganda oltingugurt, azot, vodorod va ko'mir bilan reaksiyaga kirishadi:



Kalsiy aktiv metall bo'lganligi uchun suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi:




Kalsiy gidrid suv bilan reaksiyaga kirishib vodorodni ajratadi.



Kalsiy oksid (so'ndirilmagan ohak) oq rangli kukun bo'lib, ohaktoshni qizdirib olinadi: $CaCO_3 \rightarrow CaO + CO_2$

Kalsiy oksid suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi, kalsiy gidroksidni hosil



Sa(ON)_2 (so'ndirilgan ohak) havodagi SO_2 bilan reaksiyaga kirishib SaSO_3 ni hosil qiladi: $\text{Ca(OH)}_2 + \text{CO}_2 \rightarrow \text{CaCO}_3 + \text{H}_2\text{O}$

Agar Sa(ON)_2 ga qum aralashdirib qorilsa, g'isht terishda ishlataladigan qorishma SaSiO_3 olinadi: $\text{Ca(OH)}_2 + \text{SiO}_2 = \text{CaSiO}_3 + \text{H}_2\text{O}$.

Tabiiy suvda kalsiy birikmalar ko'p miqdorda bo'ladi. Suv ohakli tog' jinslaridan oqib o'tganda SO_2 bilan birikib, eruvchan kalsiy va magniy bikarbonatlarni hosil qiladi, natijada suv qattiq suvgaga aylanadi:






Karbonatli suv muvaqqat qattiqlikka, xlorid va sulfatli suv doimiy qattiqlikka ega.

Muvaqqat qattiqlik suvni qaynatib yoki ohakli suv quyish bilan yo'qotiladi:






Doimiy qattiqlikni soda qo'shib yo'qotiladi:





Suvni qattiqligi 11 suvdagi kalsiy va magniy ionlarining milligramm ekvivalentlari yig'indisi bilan o'lchanadi. Suvning qattiqligi 1.5-4 mekv/l bo'lsa, yumshoq, 4-8 mekv/l bo'lsa, ortacha 8-12 mekv/l bo'lsa, qattiq va 12 mekv/l dan katta bo'lsa juda qattiq bo'ladi.

5. S-elementlarning biologik ahamiyati. Vodorod barcha o'simlik va tirik oranzimlar tarkibiga kiradi. Odam organizmi massasining 10% vodorod tashkil etadi. Vodorod ionlari organizmda ro'y beruvchi barcha biokimyoiy jarayonlarni boshqaruvchi asosiy vositadir. Ishqoriy metallarning biologik ahamiyati juda kattadir. 70kg vaznli odam organizmida kaliy- 250g va natriy- 70g bo'ladi. Kaliy o'simliklarni o'sishi va rivojlanishi uchun eng zarur elementlardandir. Tuproqda kaliy etishmasa, o'simlik tez kasalga chalinib qoladi, kaliy tuzlari muhim kaliy o'g'it hisoblanadi. Ular quyidagilar:



Magniy, o'simliklar hayotida muhim rol o'ynaydi. Magniy o'simliklarda yashil modda xlorofill tarkibiga kiradi. Xlorofill moddasi yordamida o'simliklarda fotosintez jarayoni ro'y berdi. Odam organizmida 1.4 (massa jihatdan) kalsiy bo'ladi. Suyakda kalsiy asosan $Sa_3(RO_4)_2$ va $SaSO_3$ sifatida bo'ladi.

O'simliklarda kalsiy o'simliklarning o'sishi, ildiz otishi, meva berishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tuproqda o'rtacha kalsiyning miqdori 1.37%ni, magniy miqdori esa 0,63%ni tashkil etadi. Bu miqdorlar o'simliklarni normal o'sishi uchun etarli hisoblanadi. $SaSO_3$, $MgCO_3$ va $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ tuproqdagagi kislotalik va ishqoriylikni yo'qotish uchun sepiladi. $SaSO_3$ yoki $MgCO_3$ murakkab tuproq birikmalaridagi vodorod ionlari bilan, gips esa Na^+ ionlari bilan o'zaro ta'sirlashadi:



$SaSl_2$ va $SaSO_3$ hayvonlarda raxit kasalligida, $Sa(ON)_2$ – teri kasalligida veterinariyada ishlataladi. $Ca_3(PO_4)_2$ esa yosh hayvonlarni ozig'iga qo'shib beriladi.

Savollar:

1. Suvning tabiatdagи ahamiyati, fizik va kimyoviy xossalari.
2. Vodorod peroksid xossalari va olinishi.
3. II-A gruppacha elementlariga umumiy xarakteristika.
4. Suvning qattiqligi va uni yo'qotish usullari.

11-Mavzu: UGLEROD VA KREMNIY

Reja:

1. Kirish.
2. IV –A guruhcha elementlariga umumiy tavsifnoma.
3. Uglerodni tabiatda tarqalishi.
4. Uglerodning allotrofik shakl o'zragarishlari.
5. Uglerodning metallar va metallemlaslar bilan birikmalari.
6. Uglerodni kislorodli birikmalari.
7. Karbonat kislota va uning tuzlari.
8. Kremniyi tabiatda tarqalishi.
9. Kremniyi olinishi va xossalari.
10. Kremniyi kislorodli birikmalari.
11. Slikat kislota va uning tuzlari.
12. Uglerod va kremniyi birikmalarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.

Adabiyotlar: 2-6.

1.Kirish. Uglerodning kimyoviy xossalarni o'ziga xosligi, muhim biogen element sifatida namoyon etadi. Uning birikmalari 8 milliondan ortib ketdi. Kremniyning birikmalari esa er qobig'i va tuproqda ko'p miqdorda uchrashi bilan tavsiflanadi.

2.IV-A guruhcha elementlariga umumiy tavsifnoma.

IV-A guruhcha elementlariga C, Si, Ge, Sn, Pb kiradi. Bular p - elementlardir. Bu elementlarning tashqi pog'onasida qo'zg'atilmagan holatda $ns^2 \cdot np^2$ elektronlar bo'ladi, shulardan p - elektronlar juflashmagan. Qo'zg'atilgan holatda ns^2 dari elektronlardan bittasi p -ga o'tishi natijasida $s^1 p^3$ korfegurasiyaga (4ta juflashmagan elektronlarga) ega bo'ladi. SHuning uchun bu elementlar birikmalarida -4 dan +4 gacha oksidlanish darajalarini namoyon qiladilar. Guruhchada tartib raqamining ortishi bilan atom radiusi kattalashidi, ionlanish energiyasi esa kamayib boradi, ya'ni metalemaslik xossalari susayib, metallik xossalari kuchayib boradi.

3.Uglerodning tabiatda tarqalishi. Tabiiy uglerod barqaror ikki izotopdan $^{12}_6C$ (98,0%), $^{13}_6C$ (1,1) tashkil topgan. $^{14}_6C$ izotop havoning ustki qatlamlarida azotning neytronlar bilan to'qnashuvi natijasida kosmik nurlar ta'siridan hosil bo'ladi: $^{14}_7N + ^1_0n \rightarrow ^1_1H + ^{14}_6C$ (radioaktiv izotop)

Uglerod tabiatda erkin va birikmalar holda uchraydi. Erkin uglerodning 4ta allotrofik shakl o'zgarishi α - karbin, β - karbin, grafit va olmos ko'rinishlari ma'lum. Birikmalar holda uglerod- organik moddalar, toshko'mir, tabiiy gaz, neft, havodagi karbonat angidrid, tabiiy karbonatlar ohaktosh yoki marmar $CaCO_3$, магнезит $MgCO_3$, dalomit $CaCO_3 \cdot MgCO_3$, malaxit $CuCO_3 \cdot Cu(OH)_2$, gidrokarbonatlar $Ca(HCO_3)_2$ va $Mg(HCO_3)_2$ tarkiblarida uchraydi. Uglerod massa jahatidan er po'stlog'ining 0,35%ni tashkil etadi.


4.Uglerodning allotropik shakl o'zgarishlari. Uglerodning allotropik shakl o'zgarishlari olmos, garfit, α -karbin, β - karbinlar fizikaviy xossalari jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi, bunga sabab ularning kristall panjaralari turlicha tuzilganligidir.

Olmos yorug'ini kuchli sindiruvchi, shuning uchun yaltiroq, rangsiz kristall modda. Olmos kristallarida uglerod atomlari sp^3 - gibridlangan xolatda bo'ladi. Ular o'zaro qutbsiz kovalent bog'langan. Olmosda uglerodning har qaysi atomi 4ta boshqa atom bilan qurshab olingan, bu atomlar tetraedr markazidan uning uchlari tomon yo'nalgan bo'ladi. Olmosning bu tuzilishi uning nihoyatda qattiqligini va elektr tokini umuman o'tkazmasligiga sabab bo'ladi. Zichligi $\rho = 3,5 \text{ g/cm}^3$ ga teng. Sun'iy olmos grafitni 2000°C haroratda va 10^7 kPa bosimda qizdirib olinadi. Olmosni havosiz joyda 1800-1850 gacha qizdirilsa grafitga aylanadi.


Grafit- ozgina metall yaltiroqligiga ega, to'q kulrang krisstall modda. Grafit krisstallarida uglerod atomlari sp^2 gibridlangan holatda bo'ladi. Ular to'g'ri oltiburchakdan tarkib topgan yassi qatlamlar bo'lib birikkan. Ularda

uglerodning har bir atomi 3ta qo'shni atom bilan kovalent bog'lanish orqali bog'langan. Har qaysi atomning valent elektroni qatlamda metallardagi kabi harakatlana oladi va uglerodning bir atomidan boshqa atomiga o'tib turadi. Mana shu xossalari grafitning elektr va issiqlik o'tkazuvchanligiga va metall yaltiroqligiga sabab bo'ladi. Koks va qumdan tayyorlangan aralashma havosiz pechlarda 3000°C atrofida qizdirilsa sun'iy grafit hosil bo'ladi.

Karbin qora rangli mayda kristall modda. Qattiqligi jihatidan karbin grafitdan ustun, lekin olmosdan ancha keyinda turadi. Havosiz joyda 2800°C ga qadar qizdirilsa grafitga aylanadi. Karbin uglerodning chiziqli polimeridir. α -karbin uglerod atomlarining navbatlashib keladigan oddiy va uchlamchi bog'lanishlardan iborat:



β - karbin yoki polikumulen uglerod atomlari bir- biridan ikkilamchi bog'lari orqali bog'langan:



Uglerodning birikmalarini termik parchalanganda ko'mir hosil bo'ladi. Ko'mirning eng muhim navlari koks, pista ko'mir va qurim. Koks-toshko'mirning havosiz joyda qizdirilib olinadi. Pista ko'mir yog'ochni havosiz joyda qizdirilganda hosil bo'ladi. Qurum tabiiy gazni cheklangan miqdordagi havoda yondirish orqali olinadi. Uglerodning barcha allotrofik shakl o'zgarishlari hech qanday erituvchida erimaydi, faqat kuchli oksidlovchilar bilan reaksiyaga kirishadi.

5.Uglerodni metallar va metallemaslar bilan birikmalarini. Uglerod odatdagagi haroratda fтор bilan, qizdirilganda esa xlor bilan, yuqoriroq haroratda oltingugurt va azot bilan reaksiyaga kirishib, uglerod to'rt- fторидни, uglerod to'rt- xloridni, uglerod sulfidni va disianlarni hosil qiladi:



Disian H_2 , Cl_2 va ishqorlar bilan odatdagagi sharoitda juda oson reaksiyaga kirishib, sianid kislota birikmalarini hosil qiladi:




Uglerod metallar va metall oksidlari bilan reaksiyaga kirishib karbidlarni hosil qiladi:



Uglerod kremniy bilan reaksiyaga kirishib, qattiqligi jihatidan olmosga yaqin bo'lgan korborundni hosil qiladi: $C + Si = SiC$.

Uglerod konsenrtlangan kislotalar bilan oson reaksiyaga kirishadi:



6.Uglerodni kislorodli birikmaları.

Uglerodning ikkita oksidi ma'lum:
1).CO-uglerodning monooksidi yoki uglerod II-oksid, ya'ni is gazi,

2). CO_2 - uglerod dioksid yoki uglerod IV-oksid ya'ni karbonat angidrid.


Uglerod (II)-oksid rangsiz, o'ziga xos hidli zaharli, havodan engil, suvda yomon eriydigan gazdir ($t_k = 81,63^0 K$, $t_c = 68,03^0 K$).

CO molekulasida uglerod va kislorod atomlarining ikkita juftlashmagan elektronlari hisobiga ikkita kovalent bog'lanish vujudga keladi. Uchinchi bog'lanish esa kislorod atomining bo'linmagan elektron jufti bilan uglerod atomining erkin orbitali hisobiga doron- akseptroli mexanizm bo'yicha hosil bo'ladi. SHuning uchun CO da uglerodni valentligi 3ga, oksidlanish darajasi esa +2 ga teng bo'ladi: $:C\equiv O:$





Uglerod (II)- oksid quyidagi usullarda olinadi:




havoda uglerod (II)- oksid ko'kish alanga berib yonadi:



YUqori bosim va haroratda uglerod (II)- oksid oltingugurt, xrom, nikel, temir bilan, yorug'lik nurida esa xlor bilan reaksiyaga kirishadi:



Uglerod (II)- oksid kuchli qaytaruvchi. U ko'pchilik metallarni oksidlaridan qaytaradi:



Uglerod (IV)- oksid rangsiz, mazasiz, havodan 1.5 marta og'ir gazdir. CO_2 molekulasi chiziqsimon shaklda bo'ladi: $O=C=O$


Uglerodning kislород bilan bog'lanishi qutbli, lekin bog'lanishlar simmetrik joylashganligi tufayli CO_2 molekulasining o'zi qutbsiz bo'ladi. CO_2 xona xororatida 6 mPa bosimda suyuqlikka aylanadi, suyuqlikning bug'lanishi natijasida qattiq soviydi va gazning bir qismi qorsimon qattiq massaga, ya'ni "quruq muz"ga aylanadi. CO_2 organik moddalar yonganda va chiriganda hosil bo'ladi.



Laboratoriya sharoitida Kipp apparatida marmarga suyultirilgan xlorid kislota ta'sir ettirib olinadi:




CO_2 yuqori haroratlarda oksidlanish xossalari namoyon qiladi,



Bosim ostida CO_2 ammiak bilan reaksiyaga kirishib mochevinani hosil qiladi,




7. Karbonat kislota va unig tuzlari. Xona haroratida 1 hajm suvda 0,88 hajm CO_2 erib, kuchsiz, beqaror karbonit kislotasini hosil qiladi:






$$K_1 = 4 \cdot 10^{-7}, \quad K_2 = 5 \cdot 10^{-11} \text{ teng bo'ladi.}$$


Karbonat kislota ikki bosqichda dissosilangani uchun, o'rta tuzlar-karbonatlar va nordon tuzlar gidrokarbonatlarni hosil qiladi. Ishqoriy metallar va ammoniyning karbonatlari hamda ko'pchilik gidrokarbonatlar suvda yaxshi eriydi. Bunda eritma muhitiga gidroliz tufayli ishqoriy bo'ladi. Bu tuzlar ishqor eritmalariga CO_2 gazi ta'sir ettirib olinadi. Masalan:



Gidrokarbonatlar va karbonatlar qizdirilganda parchalanib ketadilar:



Karbonatlarga kuchsiz kislota- sirkal kislotasi ta'sir ettirilganda ham parchalanib ketadi,





Ohaktosh CO_2 va H_2O ta'siridan erib, kalsiy gidrokarbonatni hosil qiladi:




Kalsiy karbonat kislotali tuproqlarni ohaklashda va qurilish materiali sifatida ishlataladi: K_2CO_3 - kaliyli o'g'it, fotografiyada, sovun va shisha ishlab chiqarishda; $MgCO_3 \cdot CaCO_3$ - magniyli mikro o'g'it sifatida; $Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$ - soda, sovun shisha ishlab chiqarishda, tekistil sanoatida; $NaHCO_3$ - choy sodasi, medisinada va konditer ishlarida droja o'rnida ishlataladi.

8. Kremniyni tabiatda tarqalishi. Tabiiy kremniy barqaror uch izotopdan ^{28}Si (92,97%), ^{29}Si (4,68%), ^{30}Si (3,05%) tashkil topgan. Bundan tashqari sun'iy ravishda uchta radiotaktiv izotoplari olingan. Kremniy faqat birikmalar holida uchraydi. Kremniy kisloroddan keyin erda eng ko'p tarqalgan elementdir. U er po'stlog'ini massasini 27.6%ni tashkil etadi. Tabiatda asosan kremniy (IV)-oksid- SiO_2 va silikat kislota tuzlari holida uchraydi.




minerallari uchraydi. Kremniyni ikki allatropik shakl o'zgarishi kristal va amorf kremniy ma'lum. Kristal kremniy- shishadek yaltiroq to'q kul rang modda, zichligi $2,51 \text{ g/cm}^3$, $t_c = 1420^\circ C$, $t_k = 2355^\circ C$ ga teng. Amorf kremniy qo'ng'ir tusli kukin, zichligi $2,35 \text{ g/cm}^3$ teng. Uning aktivligi kristall kremniyga -qaraganda birmuncha kattaroq.


9.Kremniyni olinishi va xossalari. Kristal kremniy qumni yuqori haroratda koks bilan qaytarish orqali olinadi:





Toza krmemniy kaliy kremniy ftoridni alyuminiy bilan qaytarib olinadi:




Qumga magniy qo'shib qizdirilsa amorf kremniy hosil bo'ladi,





Juda toza kremniy $SiCl_4$ va SiH_4 dan olinadi,



Amorf kremniy odadagi haroratda ftor, qizdirilganda xlor, oltingugurt, kislород va suyuqlanmalarda metallar bilan reaksiyaga kirishadi:



Kremniy konsentrangan nitrat va ftorid kislota aralashmasida hamda ishqorlarni suvli eritmalarida eriydi,



10. Kremniyni kislородли бирікмалары. Kremniy kislород bilan ikki xil okid hosil qiladi: 1). SiO-kremniy (II)-oksid, tabiatda uchramaydi, ahamiyati yo'q. 2). Kremniy (IV)-oksid, tabiatda ikki xil ko'rinishda keng tarqagan,


A) Kristal qumtuproq kvass minerali va har xil turlari (billur, xalsedan, agat, yashma, krement) holida uchraydi.

V) Amorf qumtuproq tarkibi $SiO_2 \cdot nH_2O$ bo'lgan opal minerali holida bo'ladi.









Kristall kremniyning to'rt xil modifikasiyalari haroratga qarab bir-biriga aylanib turadi:

$\alpha - Кварц 573^{\circ}C$ $\beta - Кварц 867^{\circ}C$ $\beta - Триодитум 1470^{\circ}C$ $\beta - Кристаболит 1710^{\circ}C$


SiO_2 - atom panjara hosil qilib, polimerlanadi:





Kremniy (IV)-oksid kislotali oksidlar qatoriga kirib, metallar, metalemaslar, asosli oksidlar, ishqorlar, tuzlar va ftorid kislota bilan turli sharoitlarda reaksiyaga kirishadi.



Kremniyi vodorodli birikmasi silan yoki kremniy vodorod bo'lib, magniy silisidga xlorid kislota ta'sir ettirib olinadi:





Silan zaharli gaz bo'lib, havoda o'z-o'zidan yonib ketadi, galogenlar bilan tezda reaksiyaga kirishadi:




11. Silikat kislota va uning tuzlari. Kremniy (IV)-oksid suv bilan reaksiyaga kirishmaydi. SHuning uchun slikat kislota, slikatlarga kislota ta'sir ettirib olinadi. $Na_2SiO_3 + 2HCl = H_2SiO_3 + 2NaCl$




Slikat kislota juda kuchsiz va beqaror bo'lib, uning umumiyligi formulasi $2SiO_2 \cdot nH_2O$ holida ifodalananadi. Slikat kislota kolloid va iviq cho'kma holida olinadi. Uning meta-, orto-, dimeta- va poli- shaklari mavjuddir.



Slikat kislota qizdirilganda parchalanadi:




Slikat kislotaning tuzlarini slikatlar deyiladi, ular kremniy (IV)- oksidni suyuqlantirib, ishqorlar yoki natriy va kaliy karbonatlar qo'shib olinadi. Olingan slikatlar shishasimon massa holida bo'ladi:



Na_2SiO_3 va K_2SiO_3 suvda yaxshi ergani uchun eruvchan shisha deyiladi.

Oddiy shishanig formulasi $Na_2O \cdot CaO \cdot 6SiO_2$ dan iborat. U soda, ohaktosh va qum aralashmasini maxsus pechlarda suyuqlantirib olinadi:



Soda o'miga ko'mir va natriy sulfat aralashmasidan ham shisha hosil bo'ladi:



12.Ublerod va kremniy birikmalarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. Tuproqni strukturasini va gumus holatini saqlash uchun organik o'g'itlarning hamma turlari tuproqqa qo'shiladi. YAshil o'simliklar quyosh nurlari ta'sirida havodan (miqdori 0,03%) CO_2 ni olishi natijasida organik moddalarini hosil qilib, havoga kislород chiqaradi. o'simlik xlorofil donalarining quyosh nurini yutishi natijasida CO_2 suv bilan reaksiyaga kirishib glyukoza va kraxmalni

hosil qiladi. Bu jarayon fotosintez deyiladi. Uglerod fotosintez jarayoni tufayli tabiatda aylanadi.

Kislotali tuproqlarga $CaCO_3$ ёки $CaCO_3 \cdot MgCO_3$ solib tuproqning kislotaligi yo'qotiladi. SHo'rrok va sho'rtob tuproqlarning ishqoriyligini $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ solib yo'qotiladi. Yonilg'ining hamma turlari, ya'ni uglerodning birikmalari ko'mir, torf, neft mahsulotlari qishloq xo'jalik energetikasida ishlataladi. Ko'pchilik pestisid va uglerod asosida olingan polimer moddalar qishloq xo'jaligida keng ko'lamba ishlatilmoxda. Masalan: 2002 yilda ga erga chigit pylonka ostiga ekildi. Pylonkaning samaradorligini misollar asosida tushuntiriladi.

Kremniy mikroelement hisoblanadi. U o'simliklar biomassasi tarkibiga (18-20%) kiradi. O'simlik tuproqdagi fosfatlarni, tuproqqa eruvchan silikatlar qo'shilganda a'lo daoajada o'zlashtirdi. O'simlik poyasida kreiniyining etarli darajada bo'lishi, uning poyasini mustaxkamligini oshiradi. Yosh hayvonlarni o'sish davrida, ya'ni suyak skletini yaxshi o'sishi uchun kremniy berilishi kerak. Qum, silikatlar va alyuminosilikatlar tuproq minerallarining asosini tashkil etadi. Silikatlar va alyuminosilikatlar tuproq eritmalarida sekin boradigan almashinish reaksiyalarda ishtirot etadilar.

Savollar:

1. Adsorbsiya xodisasi.
2. Suvning qattiqligi.
3. Sement ishlab chiqarish.
4. Silikatlarni halq xo'jaligida ishlatalishi.

12-Mavzu: AZOT VA FOSFOR

Reja:

1. Kirish.
2. V-A guruhcha elementlariga umumiyl tavsifnomasi.
3. Azotning tabiatda tarqalishi va tuzilishi.
4. Azotni olinishi va kimyoviy xossalari.
5. Ammiakning olinishi va xossalari.
6. Azotni kislorodli birikmalari.
7. Nitrat kislota, olinishi va xossalari.
8. Fosforni tabiatda tarqalishi va allotrofik shakl o'zgarishlari.
9. Fosforni olinishi va xossalari.
10. Fosforni vodorodli va kislorodli birikmalari.
11. Fosfat kislotaning olinishi va xossalari.


Adabiyotlar: 2-10.

1. **Kirish.** Azot va fosfor o'simliklarning o'sib rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy elementlar hisoblanadi. SHuning uchun agrokimyogar, tuproqshunoslar, o'simliklar himoyasi va qishloq xo'jaligi biotexnologiyasi mutaxasislari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

2. V-A guruhcha elementlariga umumiy tavsifnomasi. V-bosh guruhcha elementlarini azot, fosfor, mishyak, surma va vismut tashkil etadi. Bu elementlar p-elementlar bo'lib, tashqi energetik pog'onasida beshtadan elektron bo'ladi - $ns^2 \cdot np^3$. SHu sababli bu elementlar -3dan +5gacha oksidlanish darajalarini namoyon qiladilar. Azot va fosfor tipik metalemaslar, mishyak esa amfoter metall, surma va vismut esa metallar jumlasiga kiradi. Azot atomida 3ta juftlashmagan p-elektron bor. SHu sababli azotni valetligi uchga teng. Tashqi pog'onasida d- pog'onacha yo'qligi tufayli uning elektronlari bir-biridan ajrala olmaydi. Lekin, azot atomi 2s- pog'onachasidan boshqa elektromanfiy atomga bitta elektron berishi mumkin, shunda u zaryadli bo'ladi (N^{+1}) va 4ta juftlashmagan elektronga ega bo'lib qoladi. Bu xol HNO_3 da kuzatiladi. SHu sababli azot besh valentli bo'la olmaydi.


Guruhchadagi boshqa elementlarning atomlarida 3d- pog'onachasida erkin orbitallari borligi uchun, qo'zg' atilgan xolatda s- elektronlardan bittasi d-pog'onachaga o'tadi. SHuning natijasida bu elementlar -3 dan +5 gacha oksidlarni namoyon qiladilar. Guruhcha elementlari kislorod bilan R_2O_3 va R_2O_5 bo'lgan oksidlarni, vodorod bilan esa RH_3 birikmalarini hosil qiladilar.

3. Azotni tabiatda tarqalishi va tuzilishi. Azot rangsiz, hidsiz gaz bo'lib, ikkita azot atomidan tashkil topgan N_2 molekuladir. Azotni tabiatda ikki izotopi $^{14}_7N$ (99,6%) va $^{15}_7N$ (0,4%) uchraydi. Birinchi izotopi atmosferada kosmik nurlari ta'sirida ketadigan yadro reaksiyalarida ishtiroy etadi:




Azot tabiatda erkin holida uchraydi. Havoda uning hajmi ulushi 78,09%ni, massa ulushi esa 75,6%ni tashkil etadi. Er po'stlog'idagi miqdori 0,01%. Azot birikmalaridan nitratlar va ammoniy tuzlari yomg'ir, daryo va dengiz suvlarida hamda tuproqda uchraydi.


Azot molekulasida bitta σ - bog'lanish va ikkita π - bog'lanish bo'lib, bu bog'lanishlarni quyidagicha tasvirlash mumkin:




3. Azotni olinishi va kimyoviy xossalari. Azotni $t_c = -210^0C$, $t_k = -196^0C$. Il suvda 15,4 ml azot eriydi. Sanoatda azot havoni suyuqlantirib olinadi. Suyuq havo bug'latilganda uchuvchanligi kamroq bo'lgan kisloroddan ajratiladi. Sof azot quyidagi reaksiyalar orqali olinadi:




Azot molekulasi ikki atomdan iborat. Ular orasida uchlamchi bog'lanish va uning qisqaligi (0.109 nm) molekulaning puxtaligiga sabab bo'ladi. Molekulani bog'lab turuvchi uchta bog'ni uzish uchun 941.4 kJ/mol energiya sarf qilish kerak. Xona haroratida azot faqat litiy bilan, yuqori haroratda esa boshqa metallar bilan reaksiyaga kirishib metall nitridlarni hosil qiladi:



Azot vodorod bidan yuqori bosim va haroratda, kislород bilan esa elektr yoyi haroratida (3000-4000) reaksiyaga kirishib, ammiak va azot (II)-oksidini hosil qiladi:




Azot grafit va kalsiy karbid bilan reaksiyaga kirishib, bariy va kalsiy sianidlarni hosil qiladi:




4.Ammiakni olinishi va xossalari. Ammiak o'ziga hos hidli, havodan ikki marta engil gazdir. Suvda juda yahshi eriydi, Ihajm suvda 710 hajm NH_3 eriydi. Ammiak odatdagи bosimda va $33,4^{\circ}C$ da suyuqlanib, $-77,8^{\circ}C$ da kristallanadi.


Laboratoriyaда ammiak ammoniy tuzlari hamda ishqoriy va ishqoriy-er metall oksidlari yoki gidrooksidlari aralashmasini qizdirish yo'li bilan olinadi:



Azot ammiakni xlорli ohak bilan oksidlash orqali olinadi:



Sanoatda ammiak $450-500^{\circ}C$ haroratda, $2 \cdot 10^4\text{ kPa}$ bosimda g'ovak temir katalizatori ishtirokida azot va vodoroddan sintez qilinadi:





Ammiakni suvdagi eritmasi, ya'ni ammoniy gidroksid kuchsiz asos hossasiga ega:

$$NH_3 + H_2O \rightleftharpoons NH_4OH \rightleftharpoons NH_4^+ + OH^-$$

$$K = \frac{[NH_4^+] \cdot [OH^-]}{[NH_4OH]} = 1,75 \cdot 10^{-4} \text{ мол/л}$$

Ammiak kimyoviy jihatdan faol bo'lib, birikish reaksiyasiga, oksidlanish-qaytarilish va almashinish reaksiyalariga juda oson kirishadi.

1. Birikish reaksiyalar. Ammiak kislotalar bilan birikib tuzlar hosil qiladi:



2. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar. Ammiak kislorodda yonganda azot va azot (II)- oksid hosil bo'ladi:



Gipoklorid eritmalari ammiakni gidrazingacha oksidlaydi,



Gidrazin ammiakka nisbatan ancha kuchsiz asos xossaga ega, lekin kuchli qaytaruvchi: $N_2H_4 + H_2O \rightleftharpoons N_2H_5OH \rightleftharpoons N_2H_5^+ + OH^-$, $K = 10^{-6}$




3. Almashinish reaksiyalar. Ammiakdag'i vodorod atomlari metall, galogen va to'yingan uglevodorodlarni galogenli xosilalariga almashinishi mumkin. Ishqoriy va ishqoriy-er metallar suyuq ammiakda erib, metall amidlarini hosil qiladi:



Ammiak galogenlar bilan reaksiyaga kirishib, azotni galogenli birikmalarini hosil qiladi: $4NH_3 + 3F_2 = NF_3 + 3NH_4F$. NF_3 - uch ftorli azot, gazsimon modda, qizdirilganda vodorod bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi:




NH_3 - metil yodid bilan reaksiyaga kirishib birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlarni hosil qiladi:



Ammoniy tuzlari qizdirilganda parchalanadi. Masalan:



6. Azotni kislorodli birikmaları. Azot besh xil oksid hosil qiladi, bular: N_2O , NO , N_2O_3 , NO_2 , N_2O_5 . N_2O – tuz hosil qilmaydigan oksidlari qatoriga kiradi. Azot (I)-oksid- N_2O . Rangsiz, xushbuy hidli, suvda kam eriydigan, xona haroratida barqaror, yuqori haroratda azot va kislorodga parchalanadigan gazdir. $t_k = -89^0C$, $t_c = -91^0C$. Ammoniy nitrat sekin 250^0S gacha qizdirilsa N_2O hosil bo'ladi:




Azot (I)- oksid ammiak va vodorod bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi:

$$3N_2O + 2NH_3 = 4N_2 + 3H_2O, \quad N_2O + H_2 = N_2 + H_2O$$

Azot (II)-oksid-*NO*. Rangsiz, zaharli suvda kam eriydigan gazdir. $t_k = -152^0C$, $t_c = -164^0C$, yuqori bosim va haroratda parchalanib ketadi:







Suyultirilgan nitrat kislotaga og'ir metallar ta'siri orgali olinadi.



Sanoatda esa $N_2 + O_2 \xrightarrow[3000-4000\text{ K}]{}$ $2NO$. Azot (II)- oksid, uglerod, vodorod,


kislород va fтор bilan reaksiyaga kirishadi:



Azot (III)- oksid N_2O_3 Nitrit kislotanıng angidridi, past haroratda to'q havo rangli suyuqlik, $-102^{\circ}S$ da kristallanadi, $+3,5^{\circ}S$ da qaynaydi va NO va NO_2 ga parchalanadi: $N_2O_3 \Leftrightarrow NO + NO_2$. Azot (III)-oksid suv va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib nitrit kislotani va metall nitritlarni hosil qiladi:



Nitrit kislotani qizdirib, konsentrasiyasi oshirilganda parchalanib ketadi:






Azot (IV)- oksid- NO_2 , o'ziga xos xidli, havodan og'ir, zaharli gazdir. harorat pasaytirilib, bosim oshirilganda polimerlanib N_2O_4 hosil bo'ladi:




Laboratoriya sharoitida konsentrangan nitrat kislotaga og'ir metallar ta'siri orqali olinadi:





NO_2 , xlor, ishqorlar va suv bilan oson ta'sirlashadi:



Azot (Y)-oksid- N_2O_5 . Rangsiz kristall modda, $t_c = +45^0C$. Azot (Y)-oksid nitrat kislotani fosfor oksid orqali suvsizlanirib yoki NO_2 ozon orqali oksidlab olinadi:





N_2O_5 . –kuchli oksidlovchi. U ko'mir, oltingugurt va fosforni CO_2 , SO_3 va P_4O_{10} ga qadar oksidlaydi. N_2O_5 . suv va ishqorlar bilan oson ta'sirlashidi:






7. Nitrat kislotaning olinishi va xossalari. Suvsiz HNO_3 rangsiz, o'tkir hidli suyuqlik, zichligi $\rho = 1,53\text{г/cm}^3$, $t_c = -42^0C$, $t_k = +84^0C$ ga tengdir. Odatta konsentrangan HNO_3 68%li bo'lib, zichligi $\rho = 1,40\text{г/cm}^3$ ga tengdir. Nitrat kislota yorug'lik nuri va yuqori haroratda parchalanib ketadi:



Laboratoriya olinishi:



Sanoatda quyidagi reaksiyalar orqali olinadi:




Cuyultirilgan HNO_3 kislotalarning barcha xossalalarini namoyon qiladi. Suvli eritmalarida dissosilanadi: $HNO_3 \leftrightarrow H^+ + NO_3^-$. Nitrat kislota deyarli barcha metallar va ayrim metallemaslar bilan reaksiyaga kirishadi. HNO_3 ni metallarga ta'siri:

1. Konsentrangan nitrat kislota Fe , Cr , Au , Al , Ta metallariga ta'sir etmaydi.

2. Konsentrangan nitrat kislota boshqa og'ir metallar bilan ta'sirlashganda NO_2 hosil bo'ladi.
Masalan:




3. Konsentrلган нитрат кислота ишқорија мендерлар билан та'sirlashganda N_2O hosil bo'ladi. Masalan:





4. Suyultirilgan нитрат кислота ишқорија мендерлар bilan Zn, Fe bilan ta'sirlashganda NH_3, NH_4NO_3 hosil bo'ladi. Masalan:




5. Suyultirilgan нитрат кислота бoshqa og'ir metallar bilan ta'sirlashganda NO hosil bo'ladi.



Nitrat kislotani metallemas larga ta'siri:







Nitrat kislotasi tuzlari qizdirilganda parchalanadilar. Kuchlanishlar qatorida $LiNO_3$ dan $Mg(NO_3)_2$ gacha tuzlar qizdirilganda metall nitritlari va O_2 hosil bo'ladi: $2NaNO_3 \xrightarrow{t} 2NaNO_2 + O_2$. $Mg(NO_3)_2$ dan $Cu(NO_3)_2$ gacha tuzlar qizdirilganda metall oksidi, NO_2 va O_2 hosil bo'ladi:



Vodoroddan keyin turgan metall nitratlar qizdirilganda metall, NO_2 va O_2 hosil bo'ladi: $Hg(NO_3)_2 \xrightarrow{t} Hg + 2NO_2 + O_2$.

8. Fosforni tabiatda tarqalishi va allotropik shakl o'zgarishi. Tabiatda fosforning ^{31}P izotopi barqaror bo'lib, ^{30}P va ^{32}P lar su'iy usulda olingan radiotaktiv izotoplardir. Fosfor atomining radiusi azot atomi radiusidan katta bo'lganligi sababli elektron qabul qilishi qiyinroq, elektron berishi esa osonroqdır. Fosfor faqat birikmalar holda uchraydi. Er po'stlog'idagi massasi 0,08% ni tashkil etadi. Fosfor o'simlik va hayvon oqsillarini tarkibiy qismini tashkil etadi. Odam organizmida 1,5 kg fosfor, shundan 1,4 kg suyakda bo'ladi. Tabiatda quyidagi minerallari uchraydi:




Fosfor: oq fosfor, qizil fosfor va qora fosfor allotropik shakl o'zgarishlariga ega.

Oq fosfor rangsiz, kuchli zaharli, kimyoviy faol, $t_c = 44^0C$, $t_k = 280,5^0C$, $\rho = 1,83\text{g/cm}^3$ ga teng bo'lgan 50^0S da yonuvchi kristall

modda. Suv bilan reaksiyaga kirishmaydi. SHuning uchun oq fosfor suv tagida yig'ib olinadi:





Oq fosforming kristall panjarasi P_4 holida mavjuddir, ya'ni uning molekulalari to'rt atomli va uch qirrali muntazam piramida shaklida bo'ladi. Oq fosfor havosiz joyda $250\text{-}300^\circ\text{S}$ da 2-3 soat davomida qizdirilsa qizil fosforga aylanadi.





Qizil fosfor- zaharsiz, kukun holida to'q qizil modda bo'lib, 250°S jan yuqorida yonadi. Qizil fosfor qizdirilganda suyuqlikka aylanmasdan turib, bug'lanadi. Uning bug'i quyuqlashib oq fosforni hosil qiladi. Zichligi $\rho = 2\text{-}2,4\text{ g/cm}^3$ ga teng. Qizil fosfor bir necha xil kristall formalardan iborat bo'lib, tuzilishi to'liq o'rganilmagan. Qora fosfor grafitga o'xshaydi, zichligi $\rho = 2,7\text{ g/cm}^3$. Oq fosforni uzoq vaqt bosim ostida qizdirilsa qora fosfor hosil bo'ladi. U kimyoviy jihatdan inert modda. Qora fosfor fazoda atom kristall panjaraga ega. Krisstallar paralell yassi qatlamlar bo'lib tutashgan. Qatlamlar orasidagi masofa $0,324\text{ nm}$ ni tashkil etadi.

9. Fosforming olinishi va kimyoviy xossalari. Fosfor appatitlar va fosforitlardan olinadi. Buning uchun ular ko'mir (koks) va qumming aralashmasiga elektr pechda hovosiz joyda 1500°S da qizdiriladi:




Oq fosfor xona haroratida o'z- o'zidan yonib, fosfor (Y)- oksid, kislород kam bo'lganda fosfor (III)- oksidlarni hosil qiladi:
 $P_4 + 5O_2 = P_4O_{10}$, $P_4 + 3O_2 = 2P_2O_3$.


OQ fosfor halogenlar, oltingugurt va metallar bilan reaksiyaga kirishadi:



Magniy va kalsiy fosfidlar suv va kislolar bilan reaksiyaga kirishadi:





Faqat oq fosfor issiq ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi:



Fosfor vodorod bilan reaksiyaga kirishmaydi.


10. Fosforning vodorodli va kislorodli birikmaları. Fosforning vodorodli birikmalarini vodorod fosfitlar deyiladi. Bular monofosfin- PH_3 (gaz), difosfin- P_2H_4 (suyuqlik) va polifosfin- $P_{12}H_6$ (qattiq)lardir.

Monofosfin (yoki fosfin) sarimsoq hidli, zaharli gaz. Ammiakdan farq qilib, suvda oz eriydi va u bilan reaksiyaga kirishmaydi. Metall fosfidlar suv va kislotalar ta'sir ettirib olinadi. Fosfin kuchli kislotalar bilan reaksiyaga kirishib, fosfanit PH_4^+ tuzlarini hosil qiladi. Bu tuzlar qizdirilganda suyuqlikka aylanmasdan bug'lanib, parchalanadi:



Difosfin P_2H_4 rangsiz suyuqlik, kuchli qaytaruvchi, hovoda o'z-o'zidan alangananib ketadi: $2P_2H_4 + 7O_2 = 2P_2O_5 + 4H_2O$.


Fosfor kislorod bilan bir necha xil oksidlarni hosil qildadi, ulardan muximlari fosfor (III)-oksid va fosfor (V)- oksiddir. Fosforni asta- sekin yoki kislorod etishmaganda oksidlansa fosfor (III)-oksid- P_2O_3 , aniqrog'i P_4O_6 hosil bo'ladi. P_2O_3 - mo'msimon kristall modda bo'lib, $t_c=24^0\text{C}$, $t_k=175^0\text{C}$.




P_4O_6 - sovuq suvda gidrolizlanib, fosfit kislotani, issiq suvda esa, fosfat kislotani hosil qiladi:




Hovoda qizdirilganda fosfor (V)- oksidga aylanadi:





Fosfor (V)-oksid P_4O_{10} (yoki P_2O_5) oq gigroskopik kukun. Fosforni mo'l havo yoki kislorodda yondirish orqali olinadi:





P_4O_{10} - 360^0S da suyuqlanmay bug'lanadi. Oz miqdordagi suv bilan P_4O_{10} metafosfat, ko'p miqdordagi suv bilan esa, ortofosfat kislotani hosil qiladi:



P_4O_{10} turli moddalar tarkibidagi bog'langan vodorod va kislorodni suv holida tortib oladi:



P_2O_5 suv bilan shiddatli birikib, reaksiya sharoitiga qarab har xil fosfor kislotalarni hosil qiladi:






HPO_3^- - suvda yaxshi eriydigan, zaharli kislota;


$H_3PO_4^-$ - havoda tursa suyuqlanib ketadigan kristall modda;

$H_4P_2O_7^-$ - yumshoq shishasimon massa, zarhsiz, suvda eriydi.


Bu kislotalar orasida eng ahamiyatlisi ortofosfat (oddiy qilib aytganda fosfat) kislotadir, chunki uning tuzlari mineral o'g'it sifatida keng ishlataladi. Fosfat kislota o'rta kuchli, uch negizli kislota bo'lGANI uchun digidrofosfatlarni, gidrofosfatlarni va fosfatlar hosil qiladi:




Laboratoriya sharoitida fosfat kislota fosformi 32% li nitrat kislota bilan oksidlab olinadi:









Sanoatda esa ikki xil usulda: ekstraksiya va termik usullarda olinadi. Ekstraksiya usulida maydalangan kalsiy fosfatga sulfat kislota bilan ishlov beriladi:






Kalsiy sulfat cho'kmaga tushadi, kislota esa eritmada qoladi. Bunday kislota o'g'itlar ishlab chiqarish uchun sarflanadi. Termik usulda quyidagi reaksiyalar orqali fosfat kislota olinadi:





Bu usulda toza, konsentrangan fosfat kislota olinadi. Fosfat kislota kislotalarga xos kimyoviy xossalarni nomoyon etadi. Barcha digidrofosfatlар, ammoniy va ishqoriy metallarning fosfatlarini va hidrofosfatlarni suvda yaxshi eriydi. Qolgan fosfatlar va hidrofosfatlarni suvda kam eriydi. Ba'zi bir digidro, hidrofosfatlarni va fosfatlarni olinishi:



Ishqoriy metallarning fosfatlari va gidrofosfatlari gidrolizlanadi. Masalan:



Digidrofosfatlar, gidrofosfatlar harorat ta'siridan parchalanadi, fosfatlar esa pachalanmaydi. Masalan:



Ortofosfat kislotani tuzlari qishloq xo'jaligida o'g'it sifatida ishlatiladi. Mineral o'g'itlar mavzuda to'liq to'xtalamiz. Fosfor- xujayralar protoplazmasi tarkibiga, xromasoma, viruslar va fermentlar tarkibiga kiradi. O'simlik va hayvon organizmida fosfor bo'ladi hamda fosfor hayot va tafakkur elementi deb yuritiladi. Insonning kundalik fosforga bo'lgan extiyoji 2 g bo'lib, u ovqat hisobidan to'liq qoplanadi.

Savollar:

1. Azotdagi σ va π bog'lanishlar.
2. Azotni tabiatda aylanishi.
3. Fosforning biokimoviy xususiyatlari.
4. Fosfatidlar, fosfoproteidlar va nuklein kislotalar.

13-Mavzu: MINERAL O'G'ITLAR

Reja:

1. O'g'itlarning klassifikasiyasi.
2. Makro va mikro o'g'itlar.
3. Mineral o'g'itlar.

Azotli o'g'itlar.

- 3.2. Fosforli o'g'itlar.
- 3.3. Kaliyli o'g'itlar.
- 3.4. Mineral o'g'itlarning ozuqlik qiymatini hisoblash.
4. Organik o'g'itlar.
5. Bakterial o'g'itlar.

Adabiyotlar: 2, 3, 5, 6, 7.

1. O'g'itlarning klassifikasiyasi. Tarkibida o'simliklarning o'sishi, normal rivojlanishi va meva barishi uchun zarur bo'lgan ozuqa kimoviy elementlari saqlaydigan moddalar o'g'itlar deyiladmi. Ular yuqori va barqaror hosil olish maqsadida tuproq unumdarligini oshirish uchun tuproqqa qo'shiladi. O'g'itlar tarkibiga ko'ra anorganik (mineral), organik, mineral- organik va bakterial sinflarga bo'linadi. Ular suyuq yoki qattiq holatlarda bo'lishi mumkin. O'g'itlar oddiy va kompleks o'g'itlarga bo'linadi. Faqat bitta ozuqa kimoviy elementi bo'ladigan o'g'itlar oddiy o'g'itlar deyiladi. Masalan: natriyli selitra tarkibida azot, kaliy xlorid tarkibida kaliy ozuqa elementlaridan iborat bo'ladi. Ikki va undan ortiq oziq elementi bo'ladigan o'g'itlar kompleks yoki murakkab

o'g'itlar deyiladi. Masalan: kalyli selitra tarkibida azot va kaly, nitrofoskada-azot, fosfor va kaly ozuqa elementlaridan iborat bo'ladi.

Aralash o'g'itlar ham kompleks o'g'itlar jumlasiga kirib turli hil o'g'itlarning mexanik aralashmasidan iborat bo'ladi. Ular ko'pincha o'g'it aralashmalari deyiladi.

2. Makro va mikroo'g'itlar. Nemis kimyogari YU. Libix 1840 yilda o'simliklarning mineral ozuqlanish nazariyasini taklif etdi. Bu nazariyaga muvofiq o'simliklar normal o'sib rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy kimyoviy elementlar o'nta bo'lib ular quyidagilardir: *C, O, H, N, P, K, Ca, Mg, Fe, S*. Bulardan o'simliklar uchun eng muhim bo'lgan elementlar uchta *N, P, K* qolganlari esa o'simliklarga ko'p miqdordarda kerak bo'ladi. SHu sababli ularni makroelementlar deyiladi, tarkibida shu elementlar bor o'g'itlar makroo'g'itlar deyiladi.

Makroo'g'itlar tarkibidagi ozuqa elementi miqdoriga qarab bohalonadi. YAqin vaqtlargacha tarkibida 50% atrofida P_2O_5 bo'lgan qo'sh superfosfat eng ahamiyatli fosforli o'g'it hisoblanar edi. Lekin hozirgi paytda 78-83% P_2O_5 saqlaydigan aralash poli fosfat kislota tuzlari olinib, fosforli o'g'itlar sifatida ishlatilmoqda.

Tarkibida *B, Cu, Co, Mn, Zn, Mo, J* kabi ozuqa elementlari saqlovchi o'g'itlarni mikroo'g'itlar deyiladi. Bu elementlarni o'simliklar juda oz miqdordarda (milligramlarda) o'zlashtiradi. Agar tuproqda zaruriy mikroelementlar miqdori oz bo'lsa, qancha ko'p azotli yoki fosforli o'g'it solinmasin, kutilgan natija olinmaydi. CHunki mikroelementlar o'simliklar organizmida kechadigan barcha oksidlanish- qaytarilish jarayonlarida ishtirot etadigan biokatalizator (fermentlar) tarkibiga kiradi. Ko'pinchilik fermentlarning faolligi ayniqsa, *Cu, Zn, Mn, B* kabi mikroelementlar konsentrasiyasiga bog'liq. SHu bilan birga ular fotosintez, nafas olish, azot, fosfor, kaly al mashinuvdi, oqsil, nuklein kislota, uglevod va boshqa moddalar sintezida ishtirot etadi. Masalan, o'simliklarda *Mn* etishmasa eng avvalo azot al mashinuvni buziladi. Natijada oksidlanish- qaytarilish reaksiyalari izdan chiqib, o'simlik barglarida dog'lar hosil bo'ladi. Xuddi shuningdek, *Zn* etishmasa fotosintez jarayoni susayadi, gullah to'xtaydi. *Mo* etishmasa o'simliklarda NO_3^- ioni NH_4^+ ga qaytarilmaydi. Mis o'simliklar uchun muhim rol o'ynaydi. U oksidlovchi fermentlar tarkibida bo'lib, oqsil va uglevodlar al mashinuvini yaxshilaydi, o'simliklarni zamburug' kasalliklariga chidamliligini oshiradi. Tuproqda *Cu* ionlari miqdorining kamayishi hosildorlikning keskin kamayishi sabab bo'ladi. Mikroelementlar o'simliklarni past haroratlarda kasalliklarga chidaililigini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda murakkab kombinasiyalangan o'g'itlar tarkibida *N, P, K* dan tashqari mikroelementlardan *B, Mo, Cu, Zn, Fe, Mn* larning suvda eriydigan tuzlari bo'ladi.

Kimyo sanoati quyidagi mikroo'g'itlarni ishlab chiqarilmoqda:

- a) *Bordatolit o'g'iti.* Bu o'g'it daolit (bor silikat) mineraliga sulfat kislota bilan ishlov berish orqali olinadi va tarkibida 14,5% suvda eruvchi borat kislotsini bo'ladi.
- b) *Bor superfosfat o'g'itida* 2% gacha borat kislotsasi va 16-18% P_2O_5 bo'ladi.
- c) *Barot kislota ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan qo'shimcha maxsulot magniy borat ham mikroo 'g'it sifatida ishlatiladi.*
- d) *Ammoniy molibdat* $(NH_4)_2MnO_4$ metallurgiya va elektr lampalarini ishlab chiqarish korxonalarining chiqindilari molibdenli o'g'it sifatida ishlatiladi.
- e) *Sulfat kislota sanoatining chiqindilari- pirit kuyundisi va mis kuperasi, misli o'g'it sifatida ishlatiladi.*
- f) *MnSO₄, KMnO₄, ZnSO₄ va Zn(NO₃)₂ lar marganesli va ruxli mikroo 'g'it sifatida ishlatiladi.*

3. Mineral o'g'itlar. Mineral o'g'itlar er ostidan qazib olinadigan va unga sanoat usulida ishlov beriladigan mahsulotlar bo'lib, ular tarkibida tuproq unumdorligini oshiradigan, o'simliklarning normal rivojlanishi uchun zarur bo'lgan makroelementlar mavjud bo'ladi. Mineral o'g'itlar asosini azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlar tashkil etadi.

3.1 Azotli o'g'itlar. Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirishda tuproqqa azotli o'g'itlar solish katta ahamiyatga ega. Azotli o'g'itlar bitta oziqa elementi saqlaydigan murakkab o'g'itlarga bo'linadi. Bundan tashqari azotli o'g'itlar (ammiak va uning birikmalarini) hamda nitratli va amidli (mochevana) o'g'itlarga bo'linadi. Eng muhim azotli o'g'itlarga suyuq ammiak, ammiakli suv, ammoniy xlorid, ammoniy sulfat, kaliy nitrat, natriy nitrat, kalsiy nitrat, ammoniy nitrat, mochevina, ammosof, diammosoflar kiradi. Bu o'g'itlarga sanoatda qo'yidagi reaksiyalar asosida olinadi:

1. *Suyuq ammiak NH₃, tarkibida 82.4% azot bo'ladi, tuproq eritmasi ishqoriy pH<11.5 bo'ladi. $N_2 + 3H_2 \rightleftharpoons 2NH_3$ asosida olinadi. Ammiak yugori atmosfera bosim ostida suyuq ammiakka aylantiriladi.*
2. *Ammiakli suv, ya'ni NH₄OH, tarkibida 20—22% azot bo'ladi. Tuproq eritmasi ishqoriy pH<11.5 bo'ladi.*
3. *Ammoniy xlorid- NH₄Cl, tarkibida 25% azot bo'ladi. Tuproq eritmasi kuchsiz kislotali pH>5 bo'ladi. Soda ishlab chiqarishda qo'shimcha maxsulot bo'lib qo'yidagi reaksiya orqli olinadi. $NH_3 + NaCl + CO_2 + H_2O = NH_4Cl + NaHCO_3$*
4. *Ammoniy sulfat- (NH₄)₂SO₄, tarkibida 21% azot bo'ladi, tuproq eritmasi kuchsiz kislotali pH>5 bo'ladi. Qo'yidagi reaksiya asosida olinadi:*

$$2NH_4OH + H_2SO_4 = (NH_4)_2SO_4 + 2H_2O$$
5. *Natriy nitrat yoki natriyli selitra- NaNO₃, tarkibida 16% azot bo'ladi, tuproq eritmasi neytiral muxitga ega. Qo'yidagi reaksiya asosida olinadi.*

$$Na_2CO_3 + 2HNO_3 = 2NaNO_3 + CO_2 + H_2O$$
6. *Kalsiy nitrat yoki kalsiyli selitra- Ca(NO₃)₂, tarkibida 15-15.5% azot bo'ladi. Tuproq eritmasi neytiral muxitga ega, qo'yidagi reaksiya asosida olinadi.*

$$CaCO_3 + 2HNO_3 = Ca(NO_3)_2 + H_2O + CO_2$$
7. *Mochevina yoki karbamid- (NH₂)₂CO, tarkibida 46.5% azot bo'ladi. Tuproq eritmasi neytiral muxitga ega. Qo'yidagi reaksiya asosida olinadi.*

$$2NH_3 + CO_2 = (NH_2)_2CO + H_2O$$


8. Nitrat ammoniy yoki ammiakli selitra- NH_4NO_3 , tarkibida 35% azot bo'ladi. Tuproq eritmasi kuchsiz kislotali pH>5 bo'ladi. Qo'ydag'i reaksiya asosida olinadi. $\text{NH}_3 + \text{HNO}_3 = \text{NH}_4\text{NO}_3$

Hozirgi vaqtida azotli mineral o'g'itlar CHirchiq "Elektr kimyo sanoat", Navoyi va Farg'on'a "azot" ishlab chiqarish birlashmasida ishlab chiqarilmoxda. Dunyo bo'yicha 2002 yilda azotli o'g'itlar 72.4 mln. tonna ishlab chiqarildi.


3.2. Fosforli o'g'itlar. O'simliklardan yuqori hosil olishning eng muhim omillaridan biri fosforli o'g'itlardan unumli foydalanishdir. Lekin fosforning tuproqdagi barcha birikmalaridan o'simliklar foydalana olmaydi. Ular suvda eriydigan bo'lishi kerak. Fosforli o'g'itlar asosan fosforitlardan olinadi. O'zbekistonda Jeroy-Sardara fosforitlar konidagi Morakash turiga mansub zarra donador fosforitlarning zahirasi taxminan 100 mln. tonnani tashkil etadi. Qizilqum fosforit kombinati qurilmoqda. Unda 2.7 mln.tonna fosforit olinadi. Eng muhim fasforli o'g'itlar qo'yidagilar : fosforit talqoni, oddiy superfosfat, qo'sh super-fosfat, presipitat, ammofos, suyak talqoni, nitrofosfat va nitroforskalarini tashkil etadi:

1. *Fosfarit talqoni yoki appatit- $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$. Uning tarkibida 16-35% P_2O_5 bo'lib, suvda yomon eriydi. Fosfarit mineralini maydalab olinadi.*

2. *Oddiy superfosfat- $\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2 + \text{CaSO}_4$, tarkibida 14-20% P_2O_5 bo'ladi. Fosfaritga sulfat kislota ta'sir ettirib olinadi:*



3. *Qo'sh superfosfat- $\text{Sa}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2$, tarkibida 35% gacha P_2O_5 , bo'ladi. Maydalangan fosfaritga konsentrlangan fosfat kislota ta'sir ettirib olinadi:*




4. *Presitrat- $\text{CaHPO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, tarkibida 30-35% P_2O_5 bo'ladi, suvda eriydi. Fosfat kislotani kalsiy gidroksid eritmasi neytrallash orqali olinadi: $\text{H}_3\text{PO}_4 + \text{Ca(OH)}_2 = \text{CaHPO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$*

5. *Suyak tolqoni- $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$. Uy hayvonlari suyaklarini qayta ishlab olinadi.*

6. *Ammofos- $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$, tarkibida 35-50% P_2O_5 bo'ladi. Suvda eriydi. Fosfat kislotani ammiak bilan neytrallanganda ammofos va diammofoslar hosil bo'ladi: $\text{NH}_3 + \text{H}_3\text{PO}_4 = \text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$
 $2\text{NH}_3 + \text{H}_3\text{PO}_4 = (\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$*

7. *Nitrofosfat- $\text{CaHPO}_4 \cdot \text{Ca}(\text{NO}_3)_2$, tarkibida 14-27% P_2O_5 va 21-24% azot bo'ladi. Xlorappatiqa nitrat kislota ta'siridan olinadi:*



8. *Nitrofoska- $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{KNO}_3$, tarkibida 10% P_2O_5 , 11% K_2O va 11% azot bo'ladi, suvda eriydi. Fosfarit minerali, nitrat kislota va kalyi xloridni aralashitirib olinadi. Respublikamizda fosforli o'g'itlar Samarqand, Olmaliq va Qo'qon "Superfosfat" zavodlarida ishlab chiqarilmoxda.*

3.3. Kaliyli o'g'itlar. Kaliyli o'g'itlar ham o'simliklarning ozuqlanishi uchun zarur. Tuproqda kaliy etishmasa hosil va o'simliklarning noqlay sharoitga chidamliligi sezilarli darajada pasayadi. SHu sababli qazib olinadinadigan kaliy tuzlarining 90% ga yaqini kaliyli o'g'itlar sifatida ishlatiladi. O'zbekistonda juda katta kaliy tuz konlari Qashqadaryo viloyatidagi Tubaket va Surxondaryo viloyatidagi Xo'jaikon konlaridir. Tubaket koni negizida kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarishni tashkil etish nazarda tutilmoxda. Eng muhim kaliyli o'g'itlarga: kaliy xlorid, kaliy sulfat, kaliy- magniy sulfatlari,

aralash kaliyli tuz, kaliymag, kainit va karnalit minerallari hamda kaliy karbonatlar kiradi:

1. *Kaliy xlorid-KCl*, tarkibida 53,5-62,5% K_2Obo ladi. Silvinit va karnalit minerallaridan olinadi.
2. *Kaliy sulfat-K₂SO₄*, tarkibida 48-50% K_2O bo'ladi. Kaliyni minerall tuzlaridan olinadi.
3. *Kaliy-magniy sulfatlari- K₂SO₄ +MgSO₄*, tarkibida 28% K_2O bo'ladi.
4. *Kaliymag (kaliymagniylik konsentrat)-K₂SO₄ 2MgSO₄ +oz miqdorda CaSO₄* va NaCl, tarkibida 17,5-19,5% K_2O bo'ladi. Bu o'g'itilda ozuqa elementlari ikkita K va Mg .
5. *Kaliy karbonat- K₂CO₃*, tarkibida 55-56% K_2O bo'ladi. Kaliy gidroksid eritmasiga karbonat angidrid ta'sir ettilib olinadi: $2KOH + CO_2 = K_2CO_3 + H_2O$
6. *Yog'och va torf kulida K₂CO₃ ko'p miqdorda bo'ladi.*

3.4 Mineral o'g'itlarning ozuqlik qiymatini hisoblash. O'g'itlaning ozuqlik qiymatini azotli o'g'itlarda azot N, fosforli o'g'itlarda fosfor (Y)- oksid P₂O₅, kaliyli o'g'itlarda K₂O larning foizi orqali ifodalangan miqdorlariga qarab baholash qabul qilingan. Masalan: $NaNO_3$ tarkibida azot-ozuqa elementi quyidagicha hisoblab topiladi:

$$1. M_{NaNO_3} = 23+14+16\cdot 3 = 85 \text{ g/mol}$$

$$2. NaNO_3 \text{ tarkibida bitta azot elementi bor.}$$

$$3. \omega\% (N) = 14 \cdot 100 / 85 = 16.47\%.$$

Demak, $NaNO_3$ tarkibida 16.47% ozuqa elementi azot bor ekan. Qo'sh superfosfat tarkibidagi ozuqlik qiymati quyidagicha topiladi:

$$M_{Ca(H_2PO_4)_2 \cdot H_2O} = 252 \text{ г/мол}$$

$$M_{P_2O_5} = 142 \text{ г/мол}$$

$$\omega\% (P_2O_5) = \frac{142 \cdot 100}{252} = 56.34\%$$

Toza kaliy xloriddagi ozuqlik qiymati quyidagicha:

$$M_{KCl} = 74.5 \text{ г/мол}$$



$$M_{K_2O} = 94 \text{ г/мол}$$

$$\omega\% (K_2O) = \frac{94 \cdot 100}{74.5 \cdot 2} = 63\%$$

4. Organik o'g'itlar. O'simliklar uchun ahamiyati katta bo'lgan qoramol go'ngi, qush go'ngi, o'simliklardan tayyorlanadigan kompostlar, saropel va suv havzasi ostidagi balchiqlar organik o'g'itlar jumlasiga kiradi. Qoramol go'ngi tarkibida ozuqa elementlarning foiz miqdori quyidagicha: N=0,25% , $P_2O_5 = 0,09\%$, $K_2O = 0,35\%$ va $MgO=0,05\%$. Ozuqa moddalarning miqdori vaqt o'tishi bilan kamayib boradi, lekin go'ngning tuproq strukturasini yaxshilashdagi roli juda kattadir.

5. Bakterial o'g'itlar. Bakterial o'g'itlar tuproq tarkibiga kiruvchi mikroorganizmlarni tutadi. Ko'proq ishlatiladigan nitrogin o'g'iti dukkakli o'simlikning har qaysi turi uchun o'ziga xos bakteriyalarni steril substratda urchitiladigan mahsulotdan ajratib olinadi. Tuproq tarkibidagi oqsil moddalarning chirishi natijasida hosil bo'lgan ammiak nitrifikasiya jarayonida nitrit va nitrat kislota va ularning tuzlariga aylandi. Nitrifikasiya jarayoni bir

necha ketma-ket reaksiyalar natijasida bo'lib, uni umumiy reaksiya tenglamalarini quydagicha yozish mumkin:



Havo tarkibidagi erkin azotni o'zlashtiradigan bakteriyalardan (Arotbacter chrooccum) azotogen va azotobakterin nomli bakterial o'g'itlar olinadi. Bu o'g'itlarni fosforli o'g'itlar va molibden birikmalariga aralashdirib ishlatsa hosildorlik 25% gacha ortadi.

Savollar:

1. Kompleks o'g'itlar.
2. O'zbekistonda mineral o'g'it ishlab chiqarish.
3. O'g'it sanoatini rivojlantirishda o'zbek olimlarini roli.

14-Mavzu: KISLOROD VA OLTINGUGURT

Reja:


1. VI-A guruhcha elementlariga umumiy tavsifnoma.
2. Kislorodni tabiatda tarqalishi va olinishi.
3. Kislorodni xossalari va ishlatalishi.
4. Ozon.
5. Oltingugurt ni tabiatda tarqalishi va olinishgi.
4. Oltingugurtning allatropik shakl o'zgarishlari.
7. Oltingugurtning kimyoviy xossalari.
8. Vodorod sulfidni olinishi va xossalari.
9. Oltingugurtning kislородli birikmalari.
10. Sulfat kislota va uning xossalari.
11. Sulfat kislota, uning xossalari va tuzlari.
12. Oltingugurt birikmalarining qishloq ho'jaligida ishlatalishi.

Adabiyotlar: 2-10.


Litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera kimyosi— bu kislород birikmalari kimyosidir. Ko'pchilik biomolekulalarning asosiy tarkibini kislород egallaydi. Qishloq xo'jaligida kislород va oltingugurt birikmalari keng ko'lamma qo'llaniladi.

1. YI-A guruhcha elementlariga umumiy tavsifnoma. YI-A guruhcha elementlariga kislород, oltingugurt, selen, telur va poloniyl kiradi. Bulardan poloniyl radiotaktiv element bo'lib qolganlari metalemaslar jumlasiga kirib xalkogenlar, ya'ni ruda hosil qiluvchi elementlardir. Bu elementlar *p*- elementlar oilasiga mansub bo'lib, tashqi energetik pog'onasida $ns^2 \cdot np^4$ elektronlar bo'ladi. *S*, *Se*, *Te* va *Po* elementlarining tashqi energetik pog'onasida kislорoddan farq qilib *d*- pog'onachasi bor. SHuning uchun ular -2, +4, +6, kislород esa -2, -1, +2 valentli bo'la oladi. Bu elementlar vodorod bilan H_2R , kislород bilan RO_2 , RO_3 , birikmalarni hosil qiladi. Tartib raqami ortishi bilan metalemaslik xossalari susayib, metallik xossalari kuchaya boradi. *Po* metallarga kiradi.


2. Kislородни табиатда тарқалishi va оlinishi. Kislород ерда eng ko'п tarqalgan element bo'lib, er po'stlog'i massasining 47,2% ni tashkil etadi. Uning havodagi hajmiy miqdori 20,95%, massa miqdori esa 23,15% dir. Er yuzasida erkin kislород fotosintez jarayoni tufayli paydo bo'ladi:




Tabiatda uchta izotopi uchraydi: $^{16}_8O - 99,76\%$, $^{17}_8O - 0,037\%$ va $^{18}_8O - 0,0204\%$. Sun'iy ravishda radioktiv 5 ta izotopi olingan. Kislород suv, tog' jinslari, ko'pchilik slikat va alyuminosilikat minerallari va tuzlari tarkibiga kiradi. Tirik organizmni tashkil etuvchi oqsillar yog'lar va uglevodlarda bo'ladi. 1 g. gemoglobin 1,33 sm³ kislородни biriktirib olishi mumkin. Kislородни birinchi shved kimyogari SHelle 1772 yilda magniy nitrat tuzini qizdirib olgan:




1775 yili Lavuaze havo tarkibida kislород borligini birinchi bo'lib aniqlagan. Laboratoriya sharoitida $NaNO_3$, $KMnO_4$, $K_2Cr_2O_7$ va $KClO_3$ tuzlarini qizdirib olinadi:



Sanoatda kislород havodan va suvni elektroliz qilib olinadi. Havo yuqori bosim ostida siqilib, suyuq holatga o'tkaziladi. Suyuq havo tarkibida 55% kislород, 44% azot va 2% argon bo'lib, suyuq havodan avval azot, so'ng kislород bug'latib olinadi. Bu usulda olingan kislород tarkibida azot va inert gazlar aralashgan bo'ladi. Toza kislород suvni elektroliz qilib olinadi:




Elektroliz sxemasi:




3. Kislородни xossalari va ishlatalishi. Kislород rangsiz, ta'msiz, hidsiz, havodan bir oz og'ir gazdir. 1000 ml suvda 31 ml kislород eriydi. Kislородни suyuqlanish harorati – 219^0S , qaynash harorati – 183^0S . Kislород molekulasi (O_2) paramagnit xossaga ega. Bu xol molekulada ikkita juftlashmagan elektron borligi bilan izohlanadi: $\ddot{\text{O}} : \ddot{\text{O}} :$. SHuning uchun gaz, suyuq, qattiq holatlarda


kislород magnit maydoniga tortiladi. Kislород faol metallemas, u geliy, neon va argondan boshqa barcha elementlar bilan birikma hosil qiladi. Inert gazlar, galogenlar, oltin va platinadan tashqari barcha elementlar bilan to'g'ridan-to'g'ri birikib, oksidlar hosil qiladi. Seziy uy haroratida havo kislорodi bilan birikadi: $4Cs + O_2 = 2Cs_2O$. Qolgan elementlar qizdirilganda oksidlar hosil qiladi:




4. Ozon. Kislорodning allotropik shakl o'zgarishlaridan biri ozondar. Ozon ko'kimir rangli, o'ziga xos hidli zaharli gaz. Ozon – 193^0S da suyuqlanib, -112^0S da qaynaydi. Ozon kislорodga nisbatan suvda yaxshi eriydi. Laboratoriyada ozon ozonator asbobida olinadi: $3O_2 \xrightarrow{\text{электр токи}} 2O_3$. Ozon kimyoiy jihatdan beqaror, kislорodga nisbatan kuchli oksidlovchi:




Past haroratda ozon molekulyar azot bilan reaksiyaga kirishadi:



Ozon beqaror bo'lib, molekulyar va atomar kislорodga parchalanib ketadi: $O_3 = O_2 + O$. 20^0S haroratdan pastda ozon to'yimagan uglevodorodlar bilan reaksiyaga kirishib ozonidlarni hosil qiladi:



Etilen ozonidlari hidrolizga uchrab aldegid va ketonlarni hosil qiladi:




5. Oltingugurtni tabiatda tarqalishi va olinishi. Tabiatda oltingugurtni to'rtta barqaror izotopi uchraydi: $^{32}_{16}S - 95.06\%$, $^{33}_{16}S - 0.74\%$, $^{34}_{16}S - 4.18\%$, $^{36}_{16}S - 0.014\%$. Sun'iy ravishda uchta izotopi olingan. Oltingugurt er po'stlog'i massasining 0,04% ni tashkil etadi. U tabiatda erkin va birikmalar (sulfidlar va sulfatlar) holida uchraydi. Metall sulfidlari: FeS_2 – temir kolchedoni yoki pirit, CuS va PbS – mis va

qo'rg'oshin yaltirog'i, ZnS – rux aldamasi, HgS – kinovar minerallari holida uchraydi.

Sulfatlardan $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ – gips, $CaSO_4$ – angidrid, $BaSO_4$ – og'ir shpat, $MgSO_4 \cdot 7H_2O$ – taxir tuz, $Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$ – glauber tuzi holida uchraydi.

Oltингugurt insон organizmidagi ayrim vitaminlar va aminokislotalar tarkibida uchraydi. Bundan tashqari, u o'simlik va hayvon organizmidagi oqsillar asosini tashkil etishi oltингugurtni hayotiy element ekanligini ko'rsatadi. Oltингugurt termik, katalitik oksidlash va qaytarish usullarida olinadi.


Termik usulda maxsus kompressorlar yordamida oltингugurt joylashgan er osti qatlamiga qaynoq suv bug'i va yuqori bosimli havo yuboriladi. Er ostida suyuqlangan oltингugurt ($112,8^{\circ}S$) bosim ostida er ustiga chiqariladi. Katalitik oksidlash usulida tabiiy gaz tarkibidagi H_2S ni Fe_2O_3 yoki Al_2O_3 yordamida oksidlاب oltингugurt olinadi:



Muborakdagи gaz tozolash zavodida har yili 100 ming tonna oltингugurt katalitik oksidlash usulida olinadi. Qaytarish usulida SO_2 ni uglerod yordamida qaytariladi: $SO_2 + C = CO_2 + S$


6. Oltингugurtni allatropik shakl o'zgarishlari. Oltингugurt och sariq, mo'rt, oson maydalanadigan qattiq kristal modda. U suvda erimaydi, uglerod sulfidda, toluolda yaxshi eriydi. Oltингugurt rombik, monoklinik va plastik allatropik shakl o'zgarishlarini hosil qildi va qaysi allatropik shaklda ekanligi haroratga bog'liq bo'ladi. Eng barqarori rombik oltингugurt bo'lib, $111,8^{\circ}S$ da suyuqlanadi, $\rho=2,07 \text{ g/sm}^3$. Suyuqlangan S ni asta- sekin sovitilsa monoklinik S hosil bo'ladi, $t_c=119^{\circ}C$, $\rho=2,19 \text{ g/sm}^3$. Monoklinik S asta-sekin rombik oltингugurtga aylanadi. $94.5^{\circ}S$ dan yuqori haroratda monoklinik S barqaror bo'lib, uzun ignasimon to'q sariq rangli kristalar hosil qiladi. Rombik va monoklinik oltингugurt molekulasi S_8 halqa shaklida bo'ladi. Suyuqlangan oltингugurt qaynash haroratiga yaqinlashganda tez sovitilsa, rezinasimon massa, plastik oltингugurt hosil bo'ladi. $445^{\circ}S$ haroratda S qaynaydi. Oltингugurt bug'larida S_8 – molekulasi 60%, S_6 - molekulasi 35% ni, S_4 molekulasi-4% ni, S_2 -2% iborat bo'ladi.

7. Oltингugurtni kimyoviy xossalari. Xona haroratida oltингugurt fтор, xlor va konsentrланган nitrat, sulfat kislotalar bilan reaksiyaga kirishadi:




Oltингugurt havoda havo rang alanga berib yonadi, bunda asosan SO_2 , qisman SO_3 lar hosil bo'ladi: $S + O = SO_2$, $2S + 3O_2 = 2SO_3$.


YUqoridagi reaksiyalarda oltingugurt qaytaruvchilik vazifasini o'taydi. Qizdirilganda oltingugurt C , Si , P , H_2 va ko'pchilik metallar, ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib oksidlovchilik xossalari namoyon qiladi.:




8. Vodorod sulfidni olinishi va xossalari. Vodorod sulfid H_2S – palag'da tuxum hidi keladigan gaz. U suvda yaxshi eriydi. H_2S tabiatda vulqon gazlarida, mineral buloq suvlari va oltingugurtli organik moddalar chiriganda hosil bo'ladi, $t_q = 60^{\circ}C$, $t_c = -86^{\circ}C$. Vodorod sulfid quyidagi usullarda olinadi:




Gazsimon vodorod sulfid ko'kish alanga berib yonadi va SO_2 va S hosil bo'ladi:




Vodorod sulfid halogenlar bilan reaksiyaga kirishadi:




Vodorod sulfid suvda eriganda kuchsiz sulfid kislotani hosil qiladi va kuchsiz kislotasi ikki bosqichda dissosilanadi:



Sulfid kislotasi ko'pchilik reaksiyalarda qaytaruvchilik vazifasini o'taydi. Masalan:




Sulfid kislotasi asosli oksidlar, asoslar va ba'zi tuzlar bilan reaksiyaga kirishib sulfidlar va gidrosulfidlarni hosil qiladi:




ZnS , CuS , CdS , HgS – suvda kam eriydi, Na_2S , K_2S , $(NH_4)_2S$, CaS – lar suda yaxshi eriydi.


9. Oltingugurtning kislородли бирікмалари. Oltingugurt kislород bilan bir necha xil oksidlar hosil qiladi, bular ichida SO_2 – oltingugurt (IV)-oksid va SO_3 – oltingugurt (VI)- oksid katta ahamiyatga egadir. Oltingugurt $360^{\circ}S$ da yonib, SO_2 ni hosil qiladi: $S + O_2 = SO_2$. Laboratoriya sharoitida sulfitlarga va ba'zi bir metallarga xlorid va sulfat kislotalar ta'sir ettirib olinadi:




Sulfit angidrid sanoatda ZnS yoki FeS_2 kuydirish yo'li bilan olinadi:




Oltingugurt (IV)- oksid yoki sulfit angidrid rangsiz, o'tkir ko'lansa hidli, zaharli gazdir, $-10^{\circ}S$ ga sovitilsa rangsiz suyuqlikka aylanadi, u po'lat balonlarda suyuq holda saqlanadi. SO_2 oksidlanish va qaytarilish xossalriga ega:




10. Sulfit kislota va uning xossalari. SO_2 suvda yaxshi eriydi, 1hajm suvda 40 hajm SO_2 erib faqat suvli eritmalarda mavjud bo'ladigan sulfit kislotani hosil qiladi:



Demak, sulfit kislota ikki qator tuzlar- sulfitlar va gidrosulfitlarni hosil qiladi:



Sulfit kislota kislород va galogenlar ta'siridan oksidlanadi:






NaHSO₃ konservant sifatida ishlatalidi.

11. Sulfat kislota, uning xossalari va tuzlari. Oltingugurt (IV)-oksid oksidlanguanda oltingugurt (VI)- oksid hosil bo'ladi. SO_3 – suyuqlik bo'lib, zichligi 1,92 g/sm³, $t_g=44,9^{\circ}C$, $t_{muz}=16,8$ ga tengdir. Uzoq vaqt saqlansa polimerlanadi. SO_3 – kuchli oksidlovchi, suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishib sulfat kislotasini hosil qiladi:

$$H_2O + SO_3 = H_2SO_4 + 88kJ$$

SO_3 konsentrangan H_2SO_4 erib oleumni hosil qiladi. Sulfat kislota rangsiz, moysimon suyuqlik, 96% li H_2SO_4 zichligi 1,84 g/sm³ga tengdir. 100% li H_2SO_4 10,5 °S da qotadi. Sulfat kislota suvgaga o'ch modda bo'lib, suv bilan aralashtirilganda ko'p miqdorda issiqlik chiqadi, shuning uchun suvgaga sulfat kislota qo'shish kerak. Sulfat kislota sanoatda ikki xil kontakt va nitroza usullarida olinadi. Kontakt usuli:





Nitroza usulida: $SO_2 + NO_2 + H_2O = H_2SO_4 + NO$ $2NO + O_2 = 2NO_2$ ga aylanadi va jarayonga qaytariladi. Sulfat kislota ikki negizli kislota bo'lgani uchun ikki bosqichda dissosilanib, o'rta va nordon tuzlarni hosil qiladi:




$$K_1 = 1 \cdot 10^{-3}, \quad K_2 = 1,3 \cdot 10^{-2}$$

Suyultirilgan sulfat kislota aktivlik qatorida vodoroddan chapda turgan barcha metallar bilan reaksiyaga kirishadi: $Zn + H_2SO_4 = ZnSO_4 + H_2$.



Konsentrangan sulfat kislota oltin va platinadan tashqari hamma metallarni eritadi, masalan:



Konsentrangan sulfat kislota metalemaslar bilan reaksiyaga kirishadi:



Bundan tashqari H_2SO_4 asosli oksidlar, asoslar va tuzlar bilan reaksiyaga kiris hib sulfatlarni va gidrosulfatlarni hosil qiladi. Sulfat kislota va uning tuzlari $450^{\circ}S$ dan yuqori haroratda parchalanadi:



Eng	muhim	sulfatlar:
$Na_2SO_4 \cdot 10H_2O, K_2SO_4, CaSO_4 \cdot 2H_2O, MgSO_4 \cdot 7H_2O, BaSO_4, CuSO_4 \cdot 5H_2O$		
$FeSO_4 \cdot 7H_2O, ZnSO_4 \cdot 7H_2O, KAl(SO_4)_2 \cdot 12H_2O, K_2SO_4, Fe_2(SO_4)_3 \cdot 24H_2O$		

12. Oltingugurt birikmalarining qishloq xo'jaligida ishlatalishi.

Qurutilgan o'simliklarda oltingugurtni miqdori 0,05% ni tashkil etadi. Demak, oltingugurt biogen element hisoblanadi, lekin biologik ahamiyati fosforga nisbatan kam o'rganilgan. Oltingugurt fotosintez jarayonida elektron tashuvchi element hisoblanadi. Oltingugurtning quyidagi birikmlari qishloq xo'jaligida kent ko'lamma ishlataladi: $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ – sho'rxok erlarni sho'rini ketkazishda, K_2SO_4 va $(NH_4)_2SO_4$ – mineral o'g'it sifatida, $CuSO_4 \cdot 5H_2O$, $ZnSO_4 \cdot 7H_2O$ va $MnSO_4 \cdot 5H_2O$ mikroo'g'it sifatida, mis va temir kuporoslar, oltingugurtning o'zi va har xil moddalar bilan aralashmasi fungisid sifatida ishlatilmogda. Kimyo sanoatida hosil bo'ladigan SO_2 nam havoda chang bilan tumansimon g'ubor hosil qilib muallaq holatda sulfat kislota tomchilariga aylanadi va yomg'ir bilan o'simliklar ustiga "kislotali

yomg'ir" bo'lib, tushushio'simliklar faoliyatiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Savollar:

1. Polisulfidlar.
2. Sulfit va sulfat angidridlarning tuzilishi.
3. Tiosulfat kislotasi va uning tuzlari.
4. Sulfat kislotani organik moddalarga ta'siri.

15-Mavzu: GALOGENLAR

Reja:

1. (VII)- A guruhcha elementlariga umumiyligi tavsifnomasi.
2. Ftor birikmalari va ularning xossalari.
3. Xlorini tabiatda uchrashi, olinishi va xossalari.

Xlorid kislota va uning xossalari.

Xlorid kislota tuzlari.

Xlorini kislorodli birikmalari.

Xlor birikmalarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.

Adabiyotlar: 1, 5-10.


1. (VII)- A guruhcha elementlariga umumiyligi tavsifnomasi. Ftor, xlor, iod va astat (VII)- A guruhcha elementlarini tashkil etadi, bularni galogenlar (grekcha tuz

tug'diruvchilar) deyiladi. Galogen so'zini tipik tuzlar ftoridlar, xloridlar, bromidlar va iodidlar hosil qilgani uchun berilgan. Galogenlarni tashqi energetik pog'onasida ns^2np^5 elektronlar, ya'ni 7tadan elektron bo'ladi. Qavat to'lishiga bitta elektron etishmaydi, shuning uchun ftor, xlor, brom va iod kuchli oksidlovchilardir. Galogenlar ita elektron biriktirib ns^2np^6 elektron strukturaga ega bo'ladilar. SHuning uchun galogenlar tipik metallemaslardir. Ftordan astatga tomon atom radiuslarini ortishi bilan, galogenlarni elektronga moyilligi kamayib boradi, shuning uchun iod va astat elementlarida metallik xossalari namoyon bo'ladi.




Ftor o'zining birikmalarida faqat $-I$ oksidlanish darajasini namoyon qila oladi, chunki uning nisbiy elektromanfiyligi juda katta bo'lishi tufayli o'z elektronini boshqa elementlarga bermaydi. Qolgan galogenlar esa $-1,+1,+3,+5,+7$ oksidlanish darajalarini namoyon qiladilar. Oddiy sharoitda galogenlar ikki atomdan tashkil topgan molekula holida bo'ladi.

2. Ftori birikmalarini va xossalari. Tabiiy ftor $^{19}_9F$ izotopi holida bo'ladi. Uning uchta su'niy izotoplari olingan. Litosferani 0,066%ni ftor tashkil etadi. Ftori kimyoviy faolligi yuqori bo'lgani uchun, tabiatda faqatgina metallar bilan hosil qilgan birikmali uchraydi. Ftori tabiatda eng ko'p uchraydigan mineralari: kalsiy flyuorit- CaF_2 , kriolit Na_3AlF_6 va ftorappatitlar $Ca_3(PO_4)_2 \cdot CaF_2$ dir. Odatdagagi sharoitda ftor yashil-sariq rangli zaqarli gazdir, $t_q=188,2\ ^\circ C$, $t_c=-218\ ^\circ C$. Il suvda 0,8 mg ftor bo'ladi. O'simliklardan piyozda ftor eng ko'p miqdorda uchraydi. Ftor suyak va tish emalining tarkibiga kiradi.



Ftori olish uchun ozgina LiF qo'shilgan $KF-2HF$ aralashmasining suyuqlanmasini $100^\circ S$ da po'latdan yasalgan elektrolizorda grafit anodli qismida olinadi. Ftor hamma metallar bilan va ko'pchilik metalemaslar bilan odatdagagi sharoitda reaksiyaga kirishadi. Bu reaksiyalarda ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Masalan:



Ftor o'zidan keyin turgan galogenlarni tuzlaridan siqib chiqaradi:





Ftor atmosferasida hatto suv va qum ham yonadi:




Qizdirilganda inert gazlar bilan ham reaksiyaga kirishadi:



Ftoridlarga konsentrangan sulfat kislota ta'sir ettirilsa vodorod ftorid hosil baladi:



Vodorod ftorid o'tkiz ko'lansa hidli, rangsiz gaz, $t_c=83^{\circ}C$, $t_g=-19,5^{\circ}C$ ga teng. HF qutbli molekulalardan iborat bo'lgani uchun suyuq va qattiq holatda ham kuchli assosilangan bo'ladi. Vodorod ftorid suvda erib, 40% li ftorid kislotasini (plavik kislotasini) hosil qiladi. HF kuchsiz bir asosli kislota bo'lib, Au va Pt dan tashqari ko'pgina metallarni o'zida eritadi, hatto shisha oynasini ham eritadi:



Plavik kislotani shu xossasidan foydalanib shisha oynalarga yozuvlar, har xil bezaklar beriladi. Na , K , Ag , Al va Sn ftoridlar suvda yaxshi eriydi. Bu kislotaning barcha tuzlari hayot uchun xavflidir.


Ftori kislordi birikmalaridan HOF , F_2O , F_2O_2 , F_2O_3 va F_2O_4 lar ham ma'lumdir. Ftor (I)- oksidi 2% li natriy gidroksid eritmasi orqali ftor gazi o'tkazib olinadi:

$$2F_2 + 2NaOH = F_2O + 2NaF + H_2O$$





F_2O juda zaharli, rangsiz gazdir. Ftor va kislord aralashmasi sovitilib, unga elektr zaryadi ta'sir ettirish yo'li bilan sariq kristall modda F_2O_2 olinadi.

3. *Xlorni tabiatda uchrashi, olinishi va xossalari*. Tabiiy xlor ikki izotopdan ^{37}Cl (24.6%) va ^{35}Cl (75.4%) iboratdir. Sun'iy ravishda 5ta radioaktiv izotopi olingan. Xlor tabiatda birikmalar holida uchraydi. Uning birikmalari er po'stlog'i massasini 0.25% ni tashkil etadi. Xlorni tabiatda quyidagi birikmalari uchraydi: osh tuzi- $NaCl$, kaliy xlorid- KCl , silvinit- $NaCl \cdot KCl$, magniy xlorid- $MgCl_2 \cdot 6H_2O$, karnalit- $KCl \cdot MgCl_2 \cdot 6H_2O$, kainit- $MgSO_4 \cdot KCl \cdot 3H_2O$ va boshqalar. Xlor birikmali okean, dengiz va ko'llarning suvlariда 0.8-3.5% gacha bo'ladi. O'zbekistonda 5ta tosh tuzi koni- Xo'jaikon, Tubaket, Boybichakon va Oqqala konlariда 90 milliard tonna xom ashyo bor.


Sanoatda dastlab xlor vodorod xloridni $400^{\circ}S$ haroratda $CuCl_2$ katalizatori ishtiropida oksidlash orqali olinar edi:




Hozirgi vaqtida xlor osh tuzini suyuqlanmasini elektroliz qilib olinadi:



Osh tuzini suvli eritmasini elektroliz qilinganda ham xlor hosil bo'ladi




Laboratoriya sharoitida xlor quyidagi reaksiyalar orqali olinadi:




Xlor sarg'ish- yashil, o'tkir hidli, zaharli gazdir. Havodan 2.5 marta og'ir, lhajm suvda 2.3 hajm xlor eriydi. $0^{\circ}S$ da, 400 kPa bosimda suyuqlanadi, $\rho=1,57 \text{ g/sm}^3$, $t_{suyuq}=34^{\circ}S$, $t_{qay}=101^{\circ}S$. Xlorli suv sovitilsa $Cl_2 \cdot 6H_2O$, $Cl_2 \cdot 8H_2O$ tarkibli kristallogidratlar hosil bo'ladi.


Xlor kimyoiy faol bo'lgani uchun metallar va metallemaslar bilan reaksiyaga kirishadi. Masalan:




Xlor kislorod, azot va inert gazlar bilan reaksiyaga kirishmaydi, lekin xlor ko'pchilik murakkab moddalar bilan reaksiyaga kirishadi. Masalan:



Xlor qizdirilganda o'zidan keyingi turgan galogenlarni birikmalaridan siqib chiqaradi:





Xlor suv bilan reaksiyaga kirishib, xlorid va gipoxorit kislotalarni hosil qiladi:



Xlor ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib xlorid, gipoxorit va xlorat kislota tuzlarini hosil qiladi:



3.1. Vodorod xlorid, xlorid kislota va ularning xossalari. Vodorod xlorid laboratoriya sharoitida osh tuziga konsentrangan H_2SO_4 ta'sir ettirib olinadi:




Sanoatda esa xlor va vodorod gazlarini yoqib olinadi: $H_2 + Cl_2 = 2HCl$. Vodorod xlorid o'tkir hidli rangsiz gazdir, havodan 1,3 marta og'ir, $0^{\circ}S$ da 1 hajm suvda 500 hajm vodorod xlorid erib, xlorid kislotani hosil qiladi. Xlorid kislota rangsiz suyuqlik bo'lib, nam havoda to'taydi, konsentrangan eritmasi 37% li bo'lib, zichligi $1,19 \text{ g/sm}^3$ ga tengdir.



Xlorid kislota kuchli kislota bo'lgani uchun metallar, asosli oksidlar, asoslar va ba'zi tuzlar hamda gazlar bilan reaksiyaga kirishib, xlorid kislota tuzlarini hosil qiladi.

Xlorid kislota tuzlari. Xlorid kislota me'da shirasi tarkibida bo'lib, u ovqat hazm qilish, fermentlar faoliyatini me'yorida ushlab turishga xizmat qiladi. Natriy xlorid- $NaCl$ osh tuzi qonning osmotik bosimi doimiy bo'lishini hamda eritositlar faoliyatining me'yorida saqlanishini ta'minlaydi. Kaliy xlorid- KCl kaliyli o'g'it, bary xlorid- $BaCl_2 \cdot 2H_2O$ qishloq xo'jaligida insektisid (zararli hashoratlarga ishlatalidigan kimyoviy moddalar) modda sifatida, Simob (II)- xlorid- $HgCl_2$ - urug'larni dorilashda, rux xlorid- $ZnCl_2$ - yog'och materiallarini dizenfeksiya qilishda, alyuminiy xlorid- $AlCl_3$ Fridel-Krafts rekasiyasi uchun katalizator sifatida, kumush xlorid- $AgCl$ fotografiyada, kalsiy xlorid- $CaCl_2$ tibbiyotda ishlataladi.



Xloring kislordi birikmalari. Xlor bilan kislordi bevosa birikmaydi, lekin bilvosita yo'llar bilan xloring Cl_2O - (I)- oksid, ClO_2 - xlor (IV)- oksid, Cl_2O_6 - xlor (VI), Cl_2O_7 - xlor (VII)- oksidlari olingan. Xlor(I)- oksidi yoki gipoxlorit angidridi, sarg'ish- jigar rang, ko'lansa xidli, gazdir. U salgina isitilsa yoki biror moddaga tegib ketsa darxol portlaydi. Simob (II)- oksidiga $0^{\circ}S$ haroratda xlor ta'sir ettirib olinadi, xona haroratida esa parchalanib ketadi:



Xlor (I)- oksidi ishqorlar, suv bilan reaksiyaga kirishib gipoxlorit kislotasini va uning tuzlarini hosil qiladi:




$HCIO$ - kuchli oksidlovchi, ammo kuchsiz kislotadir. Suvli eritmalarida barqaror bo'lib, uzoq vaqt saqlansa parchalanib ketadi, $HCIO \rightarrow O + HCl$. Gipoxlorit kislota va uning tuzlari qizdirilganda xlorat kislota va uning tuzlari hosil bo'ladi:



Xlor (*IV*)- oksidi sabzi rangli, o'tkiz hidli beqaror, portlovchi gazdir. Xloratlarga qaytaruvchilar ta'sir ettirib olinadi:





ClO_2 ga to'g'ri keladigan kislota olinmagan, lekin u suv bilan birikib, xlorit- $HClO_2$ va xlorat- $HClO_3$ kislotalarni hosil qiladi:




Xlorit va xlorat kislolar suvli eritmalarida mayjud bo'ladi. Xlor (*IV*)- oksidi ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib, xlorid va xlorat kislota tuzlarini hosil qiladi:




Xlorat kislota va uning tuzlari qizdirilganda parchalanib perxloratlarni hosil qiladi:




Xlor (*VI*)- oksidi Cl_2O_3 havoda tutaydigan to'q qizil suyuqlik, yonuvchi moddalarga tegsa darhol portlaydi. Xlor (*IV*)- oksidini ozon yordamida oksidlab olinadi:



Cl_2O_6 ga muvofiq kislota olinmagan, ammo u suv bilan birikib xlorat va perxlorat kislotalarni hosil qiladi:



Xlor (*VII*)- oksidi rangsiz moysimon suyuqlik bo'lib, xlorning boshqa oksidlariga qaraganda beqaroroqdır. Xlorat kislotani fosfor oksidi yordamida suvsizlantirib olinadi:



Xlor (*VII*)- oksidi suv bilan reaksiyaga kirishib, perxlorat kislotani hosil qiladi:



Perxlorat kislotasi suvli eritmalarida eng kuchli kislota hisoblanadi. Xlorni kislorodli kislotalarining oksidlanish darajasi ortishi bilan barqarorligi ortib boradi, lekin oksidlovchilik xossalari kamayib boradi.

-----→ *kislotaligi ortib boradi.*



←----- *oksidlovchiligi ortib boradi.*

3.4. Xlor birikmalarining qishloq ho'jaligidagi ahamiyati. Galogenlar muhim biokimyoiy ahamiyatga ega. Xloridlar va xloratlar qishloq ho'jaligida keng ko'lamda ishlatalmoqda. O'zida xlor saqlovchi o'g'itlarga NH_4Cl , KCl , $KCl \cdot NaCl$, $KCl \cdot MgCl_2 \cdot 2H_2O$ lar kiradi va bu o'g'itlar tuproqning sho'rланishini

oshirmaydi. Xloratlar $NaClO_3$, $Mg(ClO_3)_2$, $Ca(ClO_3)_2$ lar gerbisid va defoliant modda sifatida ishlataladi.

Savollar:

1. Iodni, bromni tabiatda uchrashi, olinishi va xossalari.
2. Galogenlarning atrof- muhitga ta'siri.




16-Mavzu: METALLAR

Reja:



1. Metallarning elementlar davriy sistemasidagi o'rni.
2. Metallarning tuzilishi.
3. Metallarning fizikaviy xossalari.
4. Metallarning kimyoiy xossalari.
5. Metallarning olinishi.
6. Metallarning korroziyasi.
7. Metallarning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.

Adabiyotlar: 3, 5, 6, 8, 10, 13.

1. Metallarning elementlar davriy sistemasidagi o'rni. Hozirgi vaqtida ma'lum bo'lgan 114 ta elementlardan 87tasi metallarga to'g'ri keladi. Bular davriy sistemamaning I, II, III, VIII (vodoror va bordan tashqari) guruhlarida va IV, V, VI, VII guruhlarning qo'shimcha guruhlarida hamda bosh guruhchalarining pastki qismlarida joylashgan, f elementlar ham metallik xossalarni namoyon qiladilar. Metallarning tashqi energetik pog'onachalarida asosan bittadan uchtagacha elektronlar bo'ladi. Bosh guruhcha metallarining tashqi energetik pog'onachalari s va p elektronlar bilan to'lib boradi:



Qo'shimcha guruhcha metallarining esa tashqaridan ichki d-qavatlari elektronlar bilan to'lib boradi. Masalan:



2. Metallarning tuzilishi. Odatdag'i sharoitda metallar, simobdan tashqari hammasi qattiq kristall moddalardir. Metallarning kristall panjaralari uch xil bo'ladi:

- *Hajmiy markazlashgan kub-* Na , K , $\alpha - Fe$, $\alpha - Cr$, V , Mo , W ana shunday panjaraga ega.
- *Yoqlari markazlashgan kub-* Al , Cu , Ni , Ag , Au , Pt , Pb shunday panjaraga ega.
- *Geksagonal-* Be , Mg , Cd , Ti , Zn geksagonal panjaraga egadirlar.

Metall atomlari tashqi qavatlardagi elektronlarini berib musbat zaryadli ionlarga aylanadi. Metall atomlaridan ajralgan elektronlar (elektronlar gazi) musbat

zaryadli ionlar atrofida erkin harakatlanadi. Metall zarrachalari bir-biri bilan asosan shunday elektronlar vositasi bilan bog'lanib turadi. Bunday bog'lanish metall bog'lanish deyiladi. Elektronlar muayyan atomlar bilan bog'lanmaganligi uchun maydon ta'siridayoq ma'lum yo'nalishda ko'cha boshlaydi va natijada elektr toki hosil bo'ladi.

3. Metallarning fizikaviy xossalari. Hamma metallar simobdan tashqari qattiq moddalardir. VI-B guruhcha metallari (*Cr,Mo,W*) qattiqligi jihatidan olmosga yaqinlashib qoladi. I-A guruhcha (*Na,K,Rb,Cs*) metallari esa yumshoq bo'lib, ularni oson kesish mumkin.

Metallar o'ziga xos yaltiroqlikka ega. Ularning ko'pchiligi kul rang tusda bo'lib o'ziga tushgan yorug'lik nurlarini qaytarishi natijasida yaltiraydi. Metallarning sirti tekis yaxlit bo'lganda (*Ag,Pd*) yaltiroqligi ortadi. Metallarning sirti dag'al yoki kukin holida bo'lsa (*Fe,Pt*) to'q kul rang yoki qora tusga kirib yaltiramaydi.

Metallarning elektr va issiqlik o'tkazuvchanligi ularning kristallarida erkin elektronlar borligidir. Bu elektronlar ozgina potensiallar ayirmasi ta'sirida ham ma'lum bir yo'nalishda harakatlanadi, natijada elektr toki hosil bo'ladi.

Harorat ko'tarilishi bilan kristall panjara tugunlarida ionlarning tebranma harakati kuchayadi, bu esa elektronlarning bir yo'nalishda harakatlanishini qiyinlashtiradi va bu bilan elektr o'tkazuvchanlikning kamayishiga olib keladi. Past haroratlarda esa, aksincha. Elektr o'tkazuvchanligi eng katta bo'lgan metallar *Ag,Cu,Au*, eng kami *Pb,Hg*. Ko'pchilik hollarda metallarning issiqlik o'tkazuvchanligi elektr o'tkazuvchanligi tartibada o'zgaradi.

Metallarning plastikligi, ularning ichki tuzilishiga bevosita bog'liq bo'ladi. Metallarning ichki tuzilishi ba'zi qavatlardagi ionlarning boshqa qavatlardagi ionlarga nisbatan sirtqi ta'sir ostida oson sirpanishiga imkon beradi. Xuddi metallar kabi latun, bronza qotishmalar ham juda plastik bo'ladi. Metallar mexanik ravishda ishlanganda, ion qavatlarining ko'p marta siljishi natijasida, ionlarning joylanish tartibi buziladi, metall go'yo amorf bo'lib qoladi va uning plastikligi kamayib, qattiqligi ortadi. Ammo ishlangan metallarning (masalan, cho'zilgan temir simni) plastikligi ma'lum haroratga qadar qizdirilsa yana avvalgi holiga qaytadi.

Metallarning zichligi turlicha bo'ladi. Zichligi 5g/cm^3 dan kichik bo'lgan metallar engil, qolganlari og'ir metallar deyiladi. Metallning atom massasi qancha kichik va atomining radiusi qancha katta bo'lsa uning zichligi shuncha kam bo'ladi. Metallarning orasida eng engili- litiy (zichligi $0,53/\text{cm}^3$), eng og'iri osmiydir (zichligi $22,6 \text{ g/sm}^3$). 1000°S dan yuqori haroratlarda suyuqlanadigan metallar qiyin suyuqlanadigan metallar, bundan past haroratlarda suyuqlanadiganlari oson suyuqlanadigan metallar deyiladi. Eng

oson suyuqlanadigan metall-simob, uning suyuqlanish harorati $-38,9^{\circ}C$, Cs va Ca tegishlicha $29^{\circ}C$ va $29,5^{\circ}C$. Volfram- eng qiyin suyuqlanadigan metall, uning suyuqlanish harorati $3390^{\circ}C$.

Ko'pchilik metallar sharoitga qarab har xil shaklda kristallanadilar. Bu hodisa polimorfizm deyiladi. Polimorfizm metallning har qaysi kristallik shakli muayan haroratda va muayyan bosim chegaralaridagina barqoror bo'ladi. Polimorfizm modifikasiyalar gerek harflari bilan ifodalanib element belgisi oldiga yoziladi. Metallarni past haroratdagi barqaror modifikasiyasi α harfi bilan, yuqori haroratdagi modifikasiyasi β bilan ifodalanadi. Polimorf metallar bir-biridan ichki strukturasi va fizikaviy xossalari bilan farqlanadilar.

Magnit maydoni ta'siriga ko'ra metallar diamagnit (magnit maydoniga tortilmaydi), paramagnit (magnit maydoniga tortiladi) va ferromagnit (maydonga yuqori darajada tortiladi) metallarga bo'linadi. Metallardan $Cu, Ag, Au, Zn, Cd, Hg, Zr$ - diamagnit, $Sc, V, La, Ti, Nb, Ta, Cr, Mo, Re, Ra, Pd, Oc, Pt$ - paramagnit, Fe, Co, Ni -ferromagnit xossalari namoyon qiladi.

Sanoatda metallar qora, rangli, nodir va qimmatboho metallarga bo'linadi. Temir va uning qotishmlari qora metallarga;




Au, Ag, Pt, Ir - qimmatbaho metallarga; Ti, Cr, Zr, In, Be, V, W - nodir metallarga Mg va Al dan tashqari, qolganlari rangli metallar jumlasiga kiradi.

4. Kimyoviy xossalari. Barcha metallarning atomlari valent elektronlarini oson berib, musbat zaryadlangan ionlarga aylanadi. SHuning uchun, metallar qaytaruvchilar hisoblanadi. Metallarning qaytaruvchilik xossalari ionlanish potensialining qiymatidan bilish mumkin. Metallning elektron yo'qotishi qancha oson bo'lsa uning ionlanish potensiali qiymati kichik bo'ladi. Har xil oksidlanish darajasini namoyon qiladigan metall birikmalarini xossalari ham turlicha bo'ladi. Masalan: CrO - asosli, Cr_2O_3 -amfoter, CrO_3 -kislotali oksid xossalari namoyon qiladi.


Qo'shimcha guruhscha metallari yuqori oksidlanish darajalarini namoyon qiladilar. Masalan: $V + 5, Cr + 6, Mn + 7$ oksidlanish darajalarini namoyon qiladilar. Metallarni ularning birikmalaridan boshqa metallar siqib chiqarishini rus olimi N.N.Beketov 1889 yilda o'rgangan. Beketov har qaysi metallning o'rnnini elektr kuchlanishining katta-kichikligiga qarab, ya'ni ayni metall shu metallning tuzi eritmasiga solinganda vujudga keladigan potensiallar ayirmasiga qarab joylashtirgan:

$Li, K, Na, Ca, Mg, Al, Mn, Zn, Fe, Ni, Sn, Pb, H_2, Cu, Hg, Ag, Au$

Bu qatorni hozirgi vaqtida metallarning aktivlik yoki kuchlanishlar qatori deyiladi. Aktivlik qatorida vodoroddan chapda turgan metallar suyultirilgan kislota eritmalaridan vodorodni siqib chiqaradi. Vodoroddan keyin turgan metallar esa kislotalardan vodorodni siqib chiqara olmaydi:





Konsentrangan H_2SO_4 Pt va Au dan boshqa hamma metallarni oksidlaydi, Natijada tuz va suv hosil bo'ladi:










Nitrat kislota metallarga ta'sir etganda azot oksidlari, tuzlar va ammiak hosil bo'ladi (12-mavzuga qarang).


Aktivlik qatorida joylashgan metall o'zidan keyingi turgan metallarni ularning tuzlari eritmasidan siqib chiqaradi:



Metallarning galogenlar bilan hosil qilgan birikmalarni galogenidlar, oltingugurtli birikmalari- sulfidlar, azotli birikmalari- nitridlar, fosforli birikmalari- fosfidlar, uglerodli birikmalari- karbidlar, kremniyli birikmalari- silisidlar, vodorodli birikmalari- gidridlar, kislorodli birikmalari- oksidlar va peroksidlar deyiladi. Misollar:




5. Metallarning olinishi. Tarkibida metallar bo'lgan minerallar va tog' jinslari rudalar deyiladi. Rudalardan metallar olish metalurgiya sanoatida amalgamashiriladi. Metallar olinishning usullariga qarab piro-, hidro- va elektrometallurgiya bo'ladi. Pirometallurgiyaga rudalardan metallarni yuqori haroratda qaytarish reaksiyalari yordamida olish usullari kiradi. Qaytaruvchi sifatida C, CO, H_2, CH_4 ishlatalidi. Agar ruda oksid holida bo'lsa, undagi metall C va CO bilan qizdirib olinadi:







Agar ruda karbonatlar holida bo'lsa, dastlab karbonatlar qizdirilib, metall oksidlari olinadi, so'ngra C bilan qaytarib metall olinadi:





Agar ruda sulfid holida bo'lsa, u oldin kuydirilib metall oksidi olinadi, so'ngra qaytariladi:




Qiyin suyuqlanuvchi metallar *W, Ti, Mo, Cr, Mn va V* metallotermiya reaksiyasi orqali olinadi. Qaytaruvchi sifatida alyuminiy ishlatsa alyuminotermiya (1899 Beketov ochgan), magniy ishlatsa magniytermiya, vodorod ishlatsa vodorodotermiya deyiladi.



Gidrometallurgiyaga metallarni tuzlarining eritmalaridan olish usullari kiradi. Bunda ruda tarkibidagi metall dastlab erituvchi yordamida ($H_2SO_4, NaOH, KCN, NH_4OH$) eritmaga o'tkaziladi va shu eritmadan (cho'ktirish, ekstrasiya, ionlarni almashtirish) orqali ajratib olinadi. Ruda tarkibidagi mis H_2SO_4 da eritish orqali $CuSO_4$ eritmasiga o'tkaziladi, so'ngra Cu eritmadan elektroliz yoki temir kukini yordamida siqib chiqarish orqali ajratib olinadi:



Elektrometallurgiyada metallarni elektroliz yordamida olish usullari kiradi. I va II guruhni bosh guruhcha elemetlari ularning tuzlarini yoki gidroksidlarini suyuqlanmasini elektroliz qilib olinadi. $NaCl$ éku $NaOH$ suyuqlanmasini elektroliz qilib natriy metali olinada. Elektroliz sxemasini:



6. Metallarning korroziyasi. Metallarni atrofdagi muhit ta'sirida emrilishiga korroziya deyiladi. Bu o'z-o'zidan sodir bo'ladigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyasidir. Korroziya ikki xil kimyoviy va elektrokimyoviy bo'ladi.

Metallarning muhit ta'siridan oksidlanib emrilishida sistemada elektr toki paydo bo'lmasa, bunday emrilish kimyoviy korroziya, elektr toki vujudga kelishi bilan emrilish esa elekrtokimyoviy korroziya deyiladi.

7.Metallarning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. O'simliklarni o'sib rivojlanishi uchun zarur bo'lgan metallar $Na, K, Cu, Mg, Ca, Zn, Mo, Fe, Co, Ni$ larni tashkil etadi, bular makro va mikro o'g'itlar tarkibiga kiradi. Kaliyli o'g'itlar o'simliklarning oziqlanishi uchun zarur bo'lib, ular tuproqda etishmasa hosil va o'simliklarni noqulay sharoitga chidamliligi sezilarli darajada pasayadi. Eng muhim kaliyli o'g'itlar quyidagilar: $KCl, K_2SO_4, K_2CO_3, KNO_3$;

Ammofos- $(NH_4)_2HPO_4 + (NH_4)_2SO_4 + KNO_3 + NH_4Cl$;

Nitroammofos- $NH_4NO_3 + NH_4H_2PO_4 + KNO_3 + NH_4Cl$;

Karboammofos- $CO(NH_2)_2 + (NH_4)_2HPO_4 + KNO_3 + NH_4Cl$.

Kalsiy metali fosforli o'g'itlarning asosiy qismini tashkil etadi. Bularga: oddiy superfosfat- $Ca(H_2PO_4)_2 + CaSO_4$

Qo'sh superfosfat- $Ca(H_2PO_4)_2$, presipitat- $CaHPO_4 \cdot 2H_2O$, ammofos- $NH_4H_2PO_4$, diammofos- $(NH_4)_2HPO_4$, suyak tolqoni- $Ca_3(PO_4)_2$ lar kiradi.

Ikki yoki uch valentli temir ionlarining miqdori tuproqda 500mg/kg dan 100g/kg ni tashkil etadi. Bu miqdor o'simliklarni rivojlanishi va o'sishi uchun etarli hisoblanadi, shuning uchun temiri o'g'itlar ishlab chiqarilmaydi.

$Cu, Mg, Zn, Mo, Mn, Co, Ni$ metallarini o'simliklar kam miqdorda o'zlashtirgani uchun ular mikro o'g'itlar tarkibiga kiradi. Mikro o'g'itlardan $CuSO_4 \cdot 5H_2O$ – мис купораси, $ZnSO_4 \cdot 7H_2O$ - рух купорасу,

$CaCO_3 \cdot MgCO_3$ – доломит, $(NH_4)_2MoO_4$ – аммоний молибдам,

$CoSO_4 \cdot 7H_2O$ - кизил купорослар камта

ahamiyatga egadirlar, ya'ni ular tuproqning vitaminlari hisoblanadilar.

Savollar:

1. Metallarning toza olinish usullari
2. Kimyoviy korroziya.
3. Elektrokimyoviy korroziya.
4. Metallarning ekologiyasi va toksokologiyasi.

17-Mavzu: ANALITIK KIMYO FANI VA UNING METODLARI

Reja:

1. Analitik kimyo fani va uning metodlari.
2. Analitik kimyoning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.
3. Sifat analizi usullari.
4. Analitik reaksiyalarni o'tkazish usullari.
5. Kationlarning analitik guruuhlariga bo'linishi.

Adabiyotlar 13-16.

1. Analitik kimyo fani va uning metodlari. Analitik kimyo- har xil moddalar va ular aralashmasining sifat va miqdoriy tarkibini o'rgatuvchi fandir. Bu fan sifat va miqdoriy analiz usullariga bo'linadi. Sifat analizi- analiz

qilinayotgan modda yoki moddalar aralashmasi qanday kimyoviy elementlardan (atomlar, ionlar yoki ionlar guruhidan) tashkil topganligini aniqlash usullarini o'rgatadi. Miqdoriy analiz- aniqlanayotgan moddada kimyoviy elementlarning qancha miqdorda borligini aniqlash usullarini o'rgatadi. Murakkab moddalar, avvalo, sifat analiz qilinib, so'ngra tekshirilayotgan elementlarning massa foizlari, ya'ni miqdorlari aniqlanadi. Analitik kimyoni usullari moddalarning turli xususiyatlarga asoslanadi. Masalan, moddalarning cho'kmaga tushishi, rangi, gaz holatda bo'lishi kabi xossalarga asoslanib analistik usullar yaratilgan. Bu usullarni uch guruhga kimyoviy, fizikaviy va fizik-kimyoviy usullarga ajratish mumkin. Kimyoviy usullar kimyoviy reaksiyalarga asoslanadi. Analiz jarayonida ishlataladigan, reaksiyalar analistik reaksiyalar ularni vujudga keltiruvchi moddalar esa, reagentlar deyiladi. Fizikaviy usullarda kimyoviy reaksiyalardan foydalanilmaydi, faqatgina moddalarning fizikaviy xususiyatlari tekshiriladi. Analizning fizik-kimyoviy usullari kimyoviy reaksiyalar vaqtida sodir bo'ladigan fizikaviy o'zgarishlarni tekshirishga asoslangan. SHuni alohida ta'kidlash lozimki fizikaviy va fizik-kimyoviy usullar xilma-xil murakkab tuzilishga ega bo'lgan asboblarni qo'llashni talab etadi. Ana shu sababli kimyoviy analiz metodlari qulay va ularning qishloq xo'jaligida qo'llanilish sohasi ham kengdir.

2. Analitik kimyoni qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. Analitik kimyo fani bilan agronomiya, fiziologiya, mikrobiologiya, zoogigiena, qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish fanlari bevosita bog'liqidir. Kimyoviy analizsiz xomashyo va tayyor mahsulot sifatiga baho berish ishlab chikarish jarayonlarini tushuntirish mumkin emas. Ekinlardan mo'l hosil olishda, chorvachilikda, tuproq tarkibini o'rganishda, turli o'g'itlardan foydalanishda analistik kimyo usullaridan keng foydalaniladi. SHuning uchun bo'lajak agronomlar, agrokimyogarlar, zoomuhandislar biologik jarayonlarning mohiyatini to'liq tushuna olish imkoniyatini analistik kimyo beradi.




3. Sifat analizi usullari. Tekshirilayotgan moddaning miqdori yoki hajmiga ko'ra analiz usullari: makro-, yarim-mikro-, mikro-, va ultramikro usullariga bo'linadi:

- a) *Makro usulda reaksiya o'tkazish uchun 1-10 g quruq modda yoki 10-100 ml eritma olinadi. Reaksiyalar oddiy probirkalarda olib boriladi, hosil bo'lgan cho'kmalar filtrlash orqali ajratiladi, yuviladi va aniqlanadi.*
- b) *YArim-mikro usulda reaksiya olib borish uchun 0.05-0.5 g quruq modda yoki 1-10 ml eritma olinadi. Reaksiyalar tubi kichraytirilgan probirkalarda tomchi usullarida o'tkaziladi. Cho'kmalarni eritmalardan ajratish uchun sentrafugalardan foydalaniladi.*
- c) *Mikro usulda analiz olib borish uchun 0.001-10⁻⁶ g quruq modda yoki 0.1-1 ml eritma olinadi. Reaksiyalar maxsus probirkachalarda o'tkaziladi.*
- d) *Ultra-mikro usulda analiz olib borish uchun 10⁻⁶-10⁻⁹ g quruq modda yoki 10⁻⁴-10⁻⁶ ml eritma olinadi.*

Keltirilgan usullardan yarim - mikrousulda ham aniq natjalar olish mumkin. SHuning uchun tekshirilayotgan moddani sifat jihatdan kimyoviy analiz qilishda asosan yarim - mikro usul ishlataladi.

4. Analitik reaksiyalarni o'tkazish usullari. Kuzatish mumkin bo'lgan effekt sodir bo'ladi. Keltirilgan usullardan yarim - mikrousulda ham aniq natjalar olish mumkin. SHuning uchun tekshirilayotgan moddani sifat jihatdan kimyoviy analiz qilishda asosan yarim - mikro usul ishlataladi.

Modda quruqligiga analiz qilinsa, quruq usul, eritib analiz qilinsa ho'l usul deyiladi. Modda suvda, kislotada yoki ishqorda eritiladi va hosil bo'lgan eritmada izlanayotgan ionlar tegishli reaktivlar orqali topiladi. Bunda kimyoviy reaksiya ionlar orasida sodir bo'ladi, chunki moddalar suvda erganda ionlarga dissovylanadi. Reaksiyalarni amalga oshirishda ayrim ionlar muhim rol o'ynaydi, qolgan ionlar esa reaksiyaga kirishmaydi. Masalan:



Barcha reaksiyalarda oq cho'kma $BaSO_4$ hosil bo'ladi. YUqorida keltirilgan uchala reaksiyani qisqartirilgan ionli tenglamasini $Ba^{2+} + SO_4^{2-} = BaSO_4$ holida ifodalash mumkin. Demak Ba^{2+} ioni yordamida SO_4^{2-} ionini, aksincha SO_4^{2-} ion bilan Ba^{2+} ionini aniqlash mumkin.

Analitik reaksiyalarni o'tkazishda harorat ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi bir reaksiyalar sovuqda, ayrimlarini esa, xona temperaturasida, yana boshqalarini qizdirish bilan olib borishga to'g'ri keladi.

5. Kationlarni analitik guruhlarga bo'linishi. Kationlarni analitik guruhlarga bo'lishning bir necha usuli mavjud bo'lib, ulardan eng qulayi 1871 yilda N.A.Menshutkin taklif etgan sulfid usuli hisoblanadi. Sulfid usulida kationlar besh guruhga bo'linadi.

Kationlarning sinflarga bo'linishi

Sulfidlari suvda eruvchan		Sulfidlari suvda erimaydi yoki suv ta'siridan erimaydigan gidroksidlar hosil qiluvchi		
Karbonatli tuzlari suvda				
eruvchan	erimaydi	Sulfidlari suyultirilgan kislotalarda eriydi yoki suv ta'siridan kislotalarda eriydigan gidroksidlar hosil qiluvchi	Sulfidlari suyultirilgan kislotalarda erimaydi	
I guruh	II guruh	III guruh	IV guruh	V guruh

K^+ , Na^+ , NH_4^+ , Mg^{2+} Guruh reagenti yo'q	Sa^{2+} , Sr^{2+} , Ba^{2+} Guruh reagenti $(NH_4)_2CO_3$	Al^{3+} , Cr^{3+} , Fe^{3+} , Fe^{2+} , Mn^{2+} , CO^{2+} , Zn^{2+} Guruh reagenti $(NH_4)_2S$	1. Ag guruhi Ag^+ , Pb^{2+} , Hg_2^{2+} xloridlari suvda erimaydi. Guruh reagenti HCl . 2. Cu guruhi Cu^{2+} , Cd^{2+} , Bi^{3+} xloridlari suvda eruvchan. Guruh reagenti H_2S .	Sulfidlari Na_2S da eriydi. Hg_2^{2+} , As^{3+} , As^{5+} , Sb^{3+} , Sb^{5+} , Sn^{2+} , Sn^{4+} Guruh reagenti Na_2S .
--	--	---	--	--

Savollar:

1. Analitik kimyoni rivojlanish davrlari.
2. Analitik reaksiyalarning sezgiriligi va yo'nalganligi.
3. Sifat analizda qo'llaniladigan reaktivlar.
4. Tarkibi noma'lum moddani analizi.

18-Mavzu: MIQDOR ANALIZI

Reja:

1. Miqdoriy analizning mohiyati va uning metodlari.
2. Tortma analiz.
3. Kristallo gidratlar.
4. Hajmiy analizning mohiyati va metodlari.
5. Eritmalarining normalligini va titrini aniqlash.
6. Neytrallash metodining mohiyati.

Adabiyotlar 13-16.


1. Miqdoriy analizning mohiyati va uning metodlari. Miqdoriy analizning vazifasi, kimyoviy birikma yoki aralashma tarkibiga kiradigan ayrim elementlar yoki ionlar miqdorini foizlarda aniqlashdan iboratdir. Miqdoriy analizlarni bajarishda kimyoviy metodlar, fiziko-kimyoviy va fizikaviy metodlar keng qo'llaniladi. Kimyoviy analiz metodlari asosan uchga bo'linadi:

1. *Tortma analiz yoki gravimetrik analiz.*
2. *Hajmiy yoki titrimetrik analiz.*
3. *Gaz analizi.*

2. Tortma analiz. Bu metod juda qadimdan ma'lum bo'lib, etarli darajada aniq natijalar beradi, lekin uni bajarish uchun ko'p vaqt ketadi. Bu analizda ma'lum moddadan uning tarkibiy qismlarini erimaydigan cho'kma ko'rinishda ajratishga va uning massasiga qarab shu tarkibiy qismning miqdorini hisoblab topishga asoslangan. Bu analiz quyidagi tarkibida bajariladi. Tekshirilayotgan moddadan namuna olinib, analitik torozida tortiladi, so'ngra namuna eritmaga o'tkaziladi, zaruriy komponent aniq tarkibli birikma holda cho'kmaga tushiriladi va filtrlanib eritmadan ajratiladi. CH₀'kma doimiy massaga kelguncha quirtiladi va analitik torozida tortiladi. CH₀'kmaning massasini bilgan holda zaruriy komponentning foiz miqdori hisoblab topiladi.

3. Kristallogidratlar. Moddalar eriganda issiqlik effekti sodir bo'ladi. Moddaning tuzilishi va tabiatiga qarab issiqlik ajralib chiqishi yoki yutilishi mumkin. Masalan: $NaOH$, KON , N_2SO_4 suvda eriganda ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiqadi, ya'ni ekzotermik jarayon sodir bo'ladi. NN_4NO_3 , $Sa(NO_3)_2$,

KNO_3 tuzlari eriganda esa, issiqlik yutiladi, ya'ni endotermik jarayon sodir bo'ladi. Eriyotgan modda bilan erituvchi kimyoviy ta'sirga uchrashi natijasida solvatlar yoki gidratlar nomini olgan birikmalar hosil bo'ladi. Bunday birikmalar ko'pchilik hollarda, beqarordir, ya'ni eritmadan erkin holda ajratib bo'lmaydi. Lekin ayrim hollardan barqaror moddalar hosil bo'lgani uchun ularni eritmadan qayta kristallash yo'li bilan ajratib olish mumkin. Bunday kristallar, tarkibida suv tutadi. Tarkibida suv tutgan kristall moddalarni kristallogidratlar deyiladi. Kristallogidrat tarkibiga kirgan suvni, kristallizasiya suvi deyiladi. Kristallogidratlarga $VaSl_2 \cdot 2N_2O$, $SaSO_4 \cdot N_2O$, $SaSO_4 \cdot 2N_2O$, $N_2S_2O_4 \cdot 2N_2O$, $Na_2V_4O_7 \cdot 10N_2O$, $Na_2SO_3 \cdot 10N_2O$ misol bo'la oladi. Kristallogidratlarni ma'lum bir temperaturagacha qizdirilganda, faqatgina tarkibidagi suvni yo'qotadi, moddani parchalanishi esa, yuqori haroratda sodir bo'ladi. Misol uchun:



4. Hajmiy analizning mohiyati va metodlari. Hajmiy analiz reaksiyaga kirishayotgan moddalar eritmalarining hajmini aniq qilib o'lchashga asoslangan. Bu analizda o'zaro ta'sir etayotgan ikki eritmaning hajmi o'lchanadi va ulardan birining ma'lum konsentrasiyasi asosida, ikkinchisining no'malum konsentrasiyasi topiladi. Hajmiy analizda faqat tez va oxirigacha boradigan reaksiyalar ishlatiladi hamda tekshirilayotgan eritmaga reaktiv eritmasidan ekvivalent miqdorida qo'shiladi. Reaksiya tomoni bo'lgan nuqtani, ya'ni ekvivalent nuqtani indikatorlar yordamida aniqlanadi. Konsentrasiyasi ma'lum bo'lgan va uning yordamida boshqa eritmadiagi muddaning miqdori aniqlanadigan eritma titrlangan yoki standart ishchi eritma deyiladi. 1 ml eritmadiagi erigan muddaning grammalar hisobidagi og'irlilik miqdori shu eritmaning titri deyiladi. Masalan natriy gidroksid eritmasining titri 0.001895 g/ml ga teng bo'lsa, bunday eritmaning har bir ml da 0.001895 g natriy gidroksid bo'ladi.

Hajmiy analizda turli tipdagi reaksiyalar qo'llaniladi. Reaksiyaga tipiga muvofiq hajmiy analiz metodlari ham uch turga bo'linadi:

- a) Ionlarning o'zaro ta'siriga asoslangan metodlar. Bularga neytrallanish, cho'ktirish metodlari kiradi.
 - b) Oksidlanish - qaytarilish reaksiyasiiga asoslangan metodlar. Bularga permanganatometriya, xromatometriya, yodometriya metodlari kiradi.
 - c) Kompleks hosil bo'lishiga asoslangan metodlar. Bumetodga kompleksometriya metodi kiradi.
- qaysi metodda analiz o'tkazilmasin:
- a) Ishchi eritmaga tayyorlashga.
 - b) Indikatorlar tayyorlashga.
 - c) O'zaro ta'sirlanuvchi eritmalarining hajmini to'g'ri o'lchashga e'tibor berish zarurdir.

5. Eritmalarning normalligi va titrini aniqlash. Tayyorlangan eritmaning titri T namuna massasini grammini eritma hajmiga bo'lish orqali topiladi, ya'ni $T = \frac{a}{V}$

Bu erda: a - namuna og'irligi; V - eritmaning hajmi. Titrni SI birligi g/ml dir.

Titr bilan ifodalangan konsentrasiyasidan normal konsentrasiyasiga o'tishda quyidagi formuladan foydalaniladi: $N = \frac{T \cdot 1000}{\mathcal{E}}$ $\text{с}/\text{мл}$ yoki $T = \frac{N \cdot \mathcal{E}}{1000}$ $\text{экв}/\text{л}$

N - eritmaning normal konsentrasiysi.

T - eritmaning titri.

E - erigan moddaning ekvivalenti.

Normal konsentrasiya bilan eritma hajmi orasida teskari proporsional bog'lanish mavjuddir.

Titrlash uchun sarflanadigan hajmi V_1 va V_2 bilan, normalligiga muvoqiq ravishda N_1 va N_2 bilan bilan belgilansa $V_1 \cdot N_1 = V_2 \cdot N_2$ tenglik hosil bo'ladi.

V_1 - birinchi eritmaning hajmi;

N_1 - birinchi eritmaning normalligi;

V_2 - ikkinchi eritmaning hajmi;

N_2 - ikkinchi eritmaning normalligi.

YUqoridagi formula asosida ikkinchi eritmaning normalligi topiladi. Hajmiy analiz tortma analizdan farq qilib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Agar tortma analizda analiz qilayotgan moddadagi aniqlanadigan komponentini cho'kmaga o'tkazilib, cho'kmaning og'irligi bo'yicha shu komponentining miqdorini hisoblab topilsa, hajmiy analizda o'zaro ta'sir etayotgan ikki eritmaning hajmi o'lchanadi va ulardan birining ma'lum konsentrasiyasi asosida ikkinchisining nomalum konsentrasiyasi aniqlanadi. Agar tortma analizda reaktiv ortiqcha miqdorda qo'shilsa, hajmiy analizda aniqlanayotgan moddaga kimyoviy aniq ekvivalent miqdorda qo'shiladi. Tortma analizda tarozilar va ularda tortish, hajmiy analizda esa hajmni aniq o'lhash asosiy rol o'ynaydi. Hajmiy analizda faqat tez va oxirigacha ketadigan reaksiyalar qo'llaniladi. Bunda eritmalar o'rtaсидаги reaksiyalarning oxiri tashqi belgisidan aniq b'ilinib turish yoki boshqacha aytganda, birorta usul bilan oson qayd qilinadigan bo'lishi kerak. Reaksiyaga kirishayotgan moddalardan birining konsentrasiyasi aniq bo'lishi, eritmada ishtirok etayotgan boshqa moddalar esa asosiy reaksiyaga halaqit bermasligi lozim. Hajmiy analizning tortma analiziga nisbatan afzalliklari bor: hajmiy analiz tortma analizdan tezroq bajariladi va unda turli tipdagi reaksiyalardan (almashini, oksidlanish - qaytarilish va boshqalardan) foydalilaniladi. Biroq hajmiy analizda aniqlik tortma analizdagiga nisbatan birmuncha kam bo'ladi.

6. Neytrallash metodining mohiyati. Neytrallash metodi N^+ va ON^- ionlari o'rtaсида boradigan neytrallash reaksiyasiga asoslangan, bunda kuchsiz

dissosilanadigan suv molekulalari hosil bo'ladi:
 $=N_2O$



Neytrallash metodidan kislota va ishqorlarni, shuningdek eritmada gidrolizlanib kislotali yoki ishqoriy muhit hosil qiladigan tuzlarni miqdoriy aniqlash uchun foydalaniлади.

Neytrallash metodida kuchli kislota yoki ishqorlarning eritmalari ish eritmalari bo'lib hisoblanadi. Agar neytrallash metodi bilan qandaydir kislota eritmasining noma'lum konsentrasiyasini aniqlash talab qilinsa, bu eritma ishqorning titrlangan eritmasi bilan, ko'pincha **0.1n NaON** yoki **KON** eritmasi bilan titrlanadi. Ishqor eritmasining konsentrasiyasini aniqlash uchun u ko'pincha **0.1n NSI** yoki **N_2SO_4** kislotaning titrlangan eritmasi bilan titrlanadi.

Kislota va ishqorlarning titrlangan ish eritmalarini tortim bo'yicha tayyorlash mumkin emas, chunki ular boshlang'ich moddalarga qo'yiladigan talablarga javob bermaydi. SHuning uchun taxminiy konsentrasiyalri ish eritmalari tayyorlanadi, so'ngra esa boshlang'ich modda bo'yicha titrlash yo'lli bilan aniq konsentrasiyasi topiladi.

Kislotalar titrni aniqlashda boshlang'ich modda sifatida bura **$Na_2B_4O_7 \cdot 10H_2O$** yoki **$Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$** ishqorlar titrni aniqlashda esa oksalat kislota **$H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$** yoki qahrabo kislota ishlataladi. Neytrallash reaksiyalarida titrlash jarayonida vodorod ionlarining konsentrasiyasi va binobarin, eritmaning **rN** ni ham asta-sekin o'zgara boradi. Indikatorlar yordamida neytrallash reaksiyasiini ekvivalentlik nuqtasini aniqlash mumkin. So'ngra sarflangan ish eritmasining miqdori va uning normalligiga ko'ra tekshirilayotgan eritmadagi aniqlanayotgan birikmaning miqdorini hisoblab topish mumkin.

Savollar:

1. Optik analiz metodlari.
2. Elektor-kimyoiy analiz metodlari.
3. Xromotografik analiz metodlari.
4. Tortma analizdagi hisoblashlar.
5. Titrlangan va standart eritmalar.
6. Hajmiy analizdagi hisoblashlar.

MUNDARIJA

1. Kimyoning asosiy tushuncha va qonunlari	4
2. Atom tuzilishi. D.I.Mendeleevning davriy qonuni va davriy sistemasi	8

3.	Kimyoviy bog'lanish	12
4.	Kimyoviy reaksiyalarning tezligi va kimyoviy muvozanat	17
5.	Eritmalar	22
6.	Elektrolitik disosilanish nazariyasi	28
7.	Suvning ion ko'paytmasi va vodorod ko'rsatkich. Tuzlarning gidrolizi	33
8.	Kompleks birikmalar	39
9.	Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari	43
10.	S-elementlar	48
11.	Uglerod va kremniy	55
12.	Azot va fosfor	63
13.	Mineral o'g'itlar	74
14.	Kislorod va oltengugurt	79
15.	Glogenlar	88
16.	Metallar	94
17.	Analitik kimyo fani va uning metodlari	100
18.	Miqdor analizi	102

Bosishga ruxsat berildi 29.03.03. Bichimi (60x84) 1/16. SHartli bosma tabog'i 6,75
Nashriyot bosma tobog'i 6,75. Adadi 500 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining 10-505 sonli
guvohnomasi asosida ToshDAU nashr tahririyati bo'limining RIZOGRAF apparatida chop etildi.